Annotation: *The article talks about the influence of pedagogical activities in creating an innovative educational environment in preschool educational organizations and the aspects that need to be paid attention to in their use.*

Аннотация: *В статье говорится о влиянии педагогической деятельности на мониторинг инновационной образовательной среды в дошкольных образовательных организациях и контроле, на который следует обращать внимание при их загрузке.*

Kalit soʻzlar: *Innovatsion ta'lim texnologiyasi, innovatsion o'qitish, Interfaol metodlar, mantiqiy o'yinlar, “Davlat talablari”, “Ilk qadam”.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosini o’yinli texnologiyalar tashkil qiladi. Bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o’yin bo’lganligi bois – u ta’lim texnologiyasi sifatida tatbiq etilgan. O’yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faolligi va tasavvuri tashkil etadi. O’yin olimlar tadqiqotlariga ko’ra mehnat va o’qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O’yin ijtimoiy tajribalarni o’zlashtirish va qayta yaratishga yo’nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o’z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi

loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetentsiyadir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash. Bunday usullar bolajak mutaxassisning kompetensiyalarini rivojlantirishga, oquvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yonaltirilgan bolishi kerak. Ta'lim dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat'iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Mamlakatimizdagi deyarli barcha maktabgacha

ta’lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o’z navbatida, tarbiyachilarning o’z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, tarbiyachini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o’zgartirib, tarbiyachilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko’rgazmali tasavvur orqali anglash davrida bo’lganligi bois, barcha yangi bilimlar ko’rgazmalilikka asoslanadi. Bu yoshdagi bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan tarbiyachilar unumli foydalanadilar. Chunki mazkur metodlardan foydalanish orqali har bir bola o’zining individual qobiliyatlarini namoyon eta oladi; mantiqiy o’yinlar o’ynash bolaning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir ko’rsatadi; atrof-muhit hodisalari haqida aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi; bolani ham ruhan, ham jismonan rivojlantirishda xizmat qiladi; bolalarni o’z oldiga maqsad qo’yib, uni amalga oshirishga o’rgatadi; qiyin vaziyatlar tu’g’ilganda mustaqil ravishda muammoga yechim topishga o’rgatadi. Shu bilan birgalikda bolalarning nutqini ravon bo’lishida, o’z fikrini erkin bayon eta olish ko’nikmasini shakllantirish imkoni yaratiladi.

Interfaol metodlar mazmuniga ko’ra bolalar faol o’zaro ta’sir qilish sharoitida o’zlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Birgalikdagi faoliyatdan zavq oluvchi bolalar uchun bunday usullar yangi bilimlarni egallashda qiziqarli va tassurotga boy bo’lishini ta’minlaydi.

Faqatgina tarbiyachi ushbu usullarni bolalarning o’ziga xos xususiyatlari va yosh jihatlariga moslashtirgan holda foydalanishi lozim. Bolalarning rivojlanishiga qo’yilgan “Davlat talablari” va “Ilk qadam” davlat dasturida bolaning umumiy va rivojlanish sohasi kompetensiyalarining muhim yo’nalishlari belgilab berilgan. Unga ko’ra maktabgacha 6-7 yoshdagi bolaning umumiy kompetensiyalari sifatida quyidagilar ajratib ko’rsatildi:

- **Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

- **O‘yin kompetensiyasi** – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

- **Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan axloq-odob normalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati.

- **Bilish kompetensiyasi** – atrof-muhitni ongli ravishda idrok qila olish va bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilishda foydalanish.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta’limiy jarayonida qo‘llashda avvalo yuqoridagi bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish kerak. Masalan, mantiqiy o‘yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish jarayonida xizmat qilsa, so‘z o‘yinlari kommunikativlikni oshiradi. Shu bois usullarni saralash va muvofiqlashtirish asosida olib borish zarur. Hozirgi davrdagi inqilobiy hodisalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ijtimoiy munosabatlardagi nomutanosibliklar global muammolardek jamiyat ravnaqiga aks ta’sir etmoqda. Agarda erta yosh davridan bolalarda ijtimoiy hayot qadriyatlari shakllantirib borilsa, kelajakda sog‘lom hayot tarzini yaratishda zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul)
2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellektual psixologik oyinlar T.:(4-5)
3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi (2010).
4. M. Atayev (2017). Islomda bolalar huquqlari.

5. V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.B.Pak, G.E.Djanpeisova “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o’quv dasturi Toshkent 2018 9-10 betlar
6. <https://baxtiyor.uz> Ta’limda innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish
7. Abduqodirov A., Begmatova N., Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. -Qarshi, “Nasaf”. 2011 y. 57 b.
8. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. “Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi” FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232 b <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/588>

TASVIRIY SAN’AT FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY METODLARNING QO’LLANISHI VA ULARNING O’QITISHDAGI SAMARASI

Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi 1-bosqich talabasi, Tel: +998941521147

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tasviriy san’at fanini o’qitishda zamonaviy metodlarning qo’llanishi, darslarni samarali tashkil etishda, o’quvchilarni dars mashg’ulotlariga qiziqishlarini yanada orttiradi va zamonaviy metodlar bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini bilib olish mumkin.*

***Аннотация:** В данной статье можно узнать о применении современных методов в преподавании изобразительного искусства, эффективной организации уроков, повышении интереса учащихся к занятиям на уроках и о том, что современные методы являются одной из актуальных проблем современности.*

***Abstract:** In this article, it is possible to find out that the use of modern methods in teaching the subject of Fine Arts, in the effective organization of classes, makes students more interested in classes, and modern methods are one of the pressing problems of today.*

Kalit soʻzlar: *metod, topshiriq, taassurot, oʻzlashtirish, texnologiya, tavsif, ranglar, shakllar.*

Ключевые слова: *метод, задание, впечатление, освоение, технология, описание, цвета, формы.*

Key words: *method, assignment, impression, appropriation, technology, description, colors, shapes.*

“Yuqori sinflarda bolalar shaxs boʻlib, jamoa boʻlib shakllanadi. Ayni oʻsha paytda ularni oʻzlari oʻrgangan muhitdan ajratib qoʻymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda taʼlim-tarbiyasiga salbiy taʼsir qilishi mumkin. Shu bois taʼlim jarayonining usluksizligini taʼminlash, oʻquv dasturlarini takomillashtirish zarur.”

Shavkat Mirziyoyev

Oʻqitishdan koʻzlanadigan maqsad bu davlat taʼlim standartlarida belgilangan bilim va koʻnikmalarini oʻquvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki oʻquvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki oʻquvchi malaka oshirish uchun moʻljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina oʻqitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa boʻladi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda bilim berish jarayoniga jiddiy eʼtibor qaratilmasa, oqibatda taʼlimning sustlashishiga olib keladi.

Bugungi kunda har bir fanni oʻqitishda zamonaviy metodlardan foydalanish oʻqitishda yangicha yondashuv ekanligidan dalolat beradi. Avvallari oʻqitishda metodlardan toʻlaqonli foydalanmaganligi va dars mashgʻulotlari jarayonida qoʻllanmaganligi natijasida darslar qiziqarli tashkil etilmagan.

Maʼlumki, taʼlim olish (maʼlumot olish) jarayoni – bu maʼnaviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon taʼlim oluvchining oʻzi orqali yoki boshqa birov- taʼlim beruvchining koʻmagida amalga oshirilishi mumkin. Taʼlim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.

«Tasviriy san’at o’qitish metodikasi» kitobi ketma-ketlik bosqichlari asosida tasvirlar chizish, mustaqil ravishda tasviriy va amaliy mavzularga kompozitsiyalar ishlash, loy va plastilindan har xil narsalar haykalchalarini yasash, rang xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, tasviriy san’at tarixi asoslarini o’rganish hamda umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida tasviriy san’at o’qitish metodikasiga oid materiallarni o’z ichiga oladi.

Rasm chiza bilish va hamma masalalarga ijodiy yondashish barcha sohalarda zarurdir. Ijodiy yondashish butunlay yangi g’oyalar va iasawurlarni vujudga keltiradi, shaxsni badiiy rivojlantirishda muhim o’rinni egallaydi. Metodika ta’lim-tarbiya jarayonida o’qituvchining o’quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunining xususiyatlariga qarab chiqadi. Ma’lumki, maktabda o’qitishning xilma-xil metodlari qo‘llaniladi. Bu yerda ta’lim usuli, o’quv materiallarining joylashishi (o’quv, reja, dastur), ta’lim prinsiplari va yana (so‘ngida), o’quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir. «Metod» so‘zi grekcha bo‘lib, «Tadqiqot yo‘li» «bilish usuli» ra‘nosini anglatadi. Pedagogik o’qitish metodlari deganda, maktab o’quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o’qituvchilarning qo‘llagan ish usullari tushuniladi.

Metod – grekcha Metodos so‘zidan olingan bo‘lib, izlanish yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nosini anglatadi.

Tasviriy san’at fanini o’qitishda zamonaviy metodlardan biri **“Namoyish qilish (demonstratsiya) metodining tavsifi”** metodidan foydalanish o’quvchilarning qo‘l mehnatidan ko‘proq foydalanishlari sababli ularning berilgan topshiriqlarni bajarishda maqsadga muvofiq.

Avval ushbu metod haqida ma’lumot berib o’taman. Metodning umumiy tavsifi quyidagicha:

Namoyish qilish (demonstratsiya) metodining tavsifi.

Har qanday ish o’quvchilar turlariga mos holda va tez o’zlashtirish mumkin bo‘lgan topshiriq sifatida berilishi maqsadga muvofiq. Agar topshiriq sifatida

berilayotgan ish ko'proq qo'l mehnatini talab etsa, uni o'rgatish va egallash mumkin bo'lgan kichik elementlarga ajratish lozim. Ayrim o'quvchilar ishni ehtiyotkorlik va mufassal ko'rsatib berishni talab qilishlari mumkin.

O'quvchi duch kelayotgan qiyinchiliklarini topa olish va bu qiyinchiliklarni yengishning turlicha yo'llarini topish orqali o'quvchining topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishiga erishish bu o'qituvchining san'ati hisoblanadi. O'z navbatida bu san'at o'quvchining duch kelayotgan qiyinchiliklari orqali o'rganishni ham o'z ichiga oladi, qaysiki, o'qituvchi tomonidan namoyish etish jarayonida tushunishga qiyin bo'lgan nuqtalar o'quvchi tomonidan topshiriqni bajara ololmaslik ehtimolini keltirib chiqaradi.

Boshqa so'z bilan aytganda, o'qituvchi o'quvchilarda to'g'ri taassurotni keltirib chiqarish uchun topshiriqqa mos bo'lgan so'zlarni va tayanch nuqtalarni topa olishi kerak. Odatda asosiy nuqtalar sezish, ko'rish yoki eshitish qobiliyatlariga aloqador bo'lsa ularni so'z bilan ifodalash qiyin bo'ladi. Shu sababdan namoyish etish jarayonida ta'riflar keltirilganda ehtiyotkor bo'lish zarur.

Namoyish etish usulini qo'llashga doir ko'rsatmalar:

Ma'lum bir topshiriqni qanday bajarish kerakligini namoyish etish san'atiga quyidagi bosqichlarni amalga oshirmasdan turib erishish ehtimoldan yiroq.

Namoyish etish uchun o'z materiallaringizni tayyorlang.

Siz uchun kerak bo'lgan barcha jihozlar, asbob-uskunalar va boshqa narsalar avvaldan tayyor holga keltirilishi lozim.

O'quvchilarni namoyish etish jarayoni bilan tanishtiring.

O'quvchilarga topshiriq nimadan iborat ekanini ayting va ularning qiziqishlarini e'tiborga olishga harakat qiling. Ularni mashg'ulot boshlashga va tinglashga tayyor ekanliklariga amin bo'lish maqsadida ularning onglariga kirib borishga harakat qiling. O'qituvchi uchun sodda bo'lgan narsa o'quvchi uchun o'ta murakkab bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni sizning namoyishingizni oson ko'ra olishlari uchun ularni to'g'ri joylashtiring.

Umuman olganda, o'quvchilar murabbiyning orqasidan kuzatishlari maqsadga muvofiq, bu o'z navbatida ular topshiriqni o'zlari bajarayotgan vaqtlarida qanday holatda bo'lishlarini kuzatishga sharoit yaratadi.

Toshiriqni bajarishni muvofiq tezlikda namoyish eting.

O'quvchilarga topshiriq nimalardan iborat ekanini ko'rsatish maqsadida uni normal tezlikda o'rgatishga harakat qiling. Bu kabi namoyish etish jarayoni bir daqiqadan oshmasligi lozim, agar topshiriq uzoqroq cho'ziladigan bo'lsa, uni to'xtatib va bosqichma-bosqich namoyish etish kerak.

Topshiriqni sekinlik bilan takroran ko'rsating va har bir bosqichda nimalar sodir bo'lishi haqida aniq qilib ehtiyotkorlik bilan tasvirlab bering. Tayanch nuqtalarga alohida e'tibor qarating.

Sekin bajarish imkoni bo'lmagan topshiriqlar normal tezlikda lekin alohida-alohida bajarilishi lozim. Bu bilan asosiy nuqtalarga e'tibor berib o'tish imkoni yaratiladi.

Har bir o'quvchini o'qituvchi bilan birgalikda o'sha topshiriqni bajarishga majbur qiling.

Har bir o'quvchini topshiriqni bajarayotganda o'qituvchi yordami bilan o'zini «ish» jarayonidagidek his qilishlariga erishing. Har qanday savolga javob bering va har qanday xatoni o'sha zaxotiyoy to'g'irlang. O'quvchi egallashi qiyin bo'lgan har qanday nuqtalarni qaytadan ko'rsatib bering, bu jarayon qachonki o'quvchi uni to'g'ri bajarmaguncha davom etadi.

Har bir o'quvchini topshiriqni amalda bajarishiga erishing.

Har bir o'quvchini topshiriqni amalda normal tezlikda bajara olgunlariga qadar davom ettirishlariga erishing. Shu bilan bir qatorda, amaliy faoliyat davomida o'quvchilarni to'g'ri usuldan foydalanayotganlariga amin bo'lishingiz muhimdir. Noto'g'ri uslubdan foydalanish oqibatida to'g'ri uslubdan foydalanish orqali o'rganish qiyinchiliklar bilan kechadi.

Har bir o'quvchining topshiriqni bajarish qobiliyatini tekshiring.

Har bir o'quvchi topshiriqni, uning asosiy nuqtalarini to'la tushunganiga va bajara olish qobiliyati borligiga amin bo'ling.

Metodning umumiy tavsifidan ko'rinib turibdiki tasviriy san'at fanini o'qitishda qo'llash juda samarali hisoblanadi. Ma'lumki tasviriy san'at fani boshqa fanlardan farqli jihatida o'quvchilardan ko'proq qo'l mehnati va ijodiy fikrlashni talab etadi. Asar yaratish jarayonida o'quvchining asardagi voqea-hodisalarning harakterli jihatlari, asar qahramonlarining hissiy holati, tabiatning jonli tasviri va boshqalarni aks ettirish ularning ijodiy fikrlashi va tasvirni yaratishdagi qo'l mehnati hamda ranglarni uyg'unlashini tashkil etishda ushbu metodni qo'llash mumkin.

Bu metodni tasviriy san'at fanida qo'llashning yana bir jihatida shundaki tasvir yaratish bosqichma-bosqich amalga oshirilishidadir. Oddiydan-murakkabga tomon tasvirlash ishlari olib borilishi fanda yaratiladigan asarning mazmun –mohiyatini ochib berishning asosi hisoblanadi.

Yana bir zamonaviy metodlardan biri **«Skarabey» texnologiyasi** metodi bo'lib, uning afzalliklari tasviriy san'at fanida yaratilayotgan asarning o'quvchilar tomonidan idrok qilgan tasvirini chizmalar asosida ham shakllantirish mumkin.

Mazkur metoddan foydalanishda asar yaratishda narsa buyumlarni aks ettirish jarayonida shakllardan foydalanish mumkin. Tasviriy san'at fanida janrlar bo'lib, ayrim janrlarda geometrik shakllardan foydalaniladi.

Metodning umumiy tavsifi quyidagicha bo'li;

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

-boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);

-mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

-oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

o'zgalar fikriga hurmat;

jamoalar bilan ishlash mahorati;

faollik;

xushmuomalalik;

ishga ijodiy yondashish;

imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;

o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;

«men»ligini ifodalashga imkon beradi;

o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limiga innovatsion (inglizcha innovation — yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga

yo`nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so`nggi yutuqlari, ilg`or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg`unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko`zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o`quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o`quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo`nalishlardan sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tasviriy san'at fanini o`qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish dars mashg`ulotlarini an'anaviy yondashuvdan noan'anaviy yangicha yondashuvga o'tishidir. O`qitishning bu uslubi o`quvchilarni dars mashg`ulotlariga bo`lgan qiziqishlarini yanda orttiradi.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg`otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turiaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Tasviriy san'at o`qitish metodikasi bo'yicha toia bilimlarga ega boiish, ayniqsa, O'zbekistonda va chet ellarda fanning o`qitish tarixi, o`quv fanning maqsad va vazifalari, ta'limning mazmuni, shakllar, usullari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish tasviriy san'at o`qituvchi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Demak, tasviriy san'at fanini o`qitishda zamonaviy metodlarning qo'llanishi dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/Список литературы/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli Ta'lim to'g'risidagi qonuni
2. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at o`qitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012
3. Хонбобоев, X. O. Tasviriy san'atni o`qitishda interfaol metodlardan foydalanish

4. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. -T.: «IlmZiyo», 2006.
5. Hasanov R.X. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. «FAN», 2004.

TALABALARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLAR

Azizbek Boltaboyev

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

E-mail: azizbekboltaboyev1994@gmail.com Tel- 943082603

Annotatsiya. Maqolada pedagogik shart-sharoitlarni asoslashdan iborat muammoning holati tahlil qilinadi talabalarda kasbiy kompetentsiyani shakllantirish (Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi misolida) ularning kasbiy tayyorgarligi kursi amalga oshiriladi. Tuzilishi, mazmuni, mezonlari va darajalari ishlab chiqilgan talabalarining kasbiy kompetentsiyalari (Pedagogika va psixologiya ixtisosligi misolida) aniqlanadi. Kasb-hunar ta'limining aniqlangan pedagogik shartlarining samaradorligini ta'minlovchi kasbiy malakani shakllantirish talabalarining malakasi (Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi misolida) tekshiriladi. Pedagogika va psixologiya talabalarining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish modelining samaradorligi kasb-hunar ta'limi jarayonida mutaxassislik eksperimental tarzda tekshiriladi.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishning pedagogik shartlari, talabalarining kasbiy kompetensiyasi (Pedagogika va psixologiya ixtisosligiga misolida).

Kirish

O'qituvchi-psixologning kasbiy faoliyatining yetarli darajada tayyorlanmaganligi bilan tavsiflanadi maqomi va kasbiy vazifalari. Ko'rinmas tadqiqotchi-o'qituvchilar va metodistlar bor edi targ'ib qiluvchi pedagogik shart-

sharoitlar muammosida professional kompetentsiyani samarali shakllantirish talabalar bo'lajak o'qituvchi-psixologlar sifatida.

Nazariy bunday turdagi tayyorgarlik asoslari ishlab chiqilmagan, samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar talabalarda kasbiy malakani shakllantirish chunki bo'lajak o'qituvchi-psixologlar oshkor etilmaydi.

Bundan tashqari, Nikolayning ilmiy tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtlarida institutlarning ilmiy darajasi yetarli emas o'quv jarayonini oqilona tashkil etish va shakllanishiga yordam beruvchi pedagogik shart-sharoitlar talabalarining kasbiy malakasi Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi kelajak sifatida o'qituvchilar-psixologlar bu yo'nalishda bo'lsa-da ishlab chiqish mavjud, ammo ularning natijalari yo'q umumlashtirilgan va tizimlashtirilmagan.

Shunday qilib, tayyorlashda zamonaviy vaziyat o'qituvchi-psixolog quyidagilarni ajratishga imkon beradida shakllanish ehtiyoji o'rtasidagi ziddiyat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi kursipsixologlarning kasbiy kompetentsiyalari va anning pedagogik sharoitlariga yetarli darajada tayyor emasligi kasbiy kompetentsiya va ta'limni shakllantirish va bu jarayonni uslubiy ta'minlash. Ajratilgan qarama-qarshilik shoshilinchlikni belgilaydi asoslashdan iborat muammoni tadqiq etish shakllantirishning pedagogik shartlari talabalarda kasbiy malakaga (an Pedagogika va psixologiya ixtisosligiga misol) kasbiy ta'lim jarayonida.

Belgilangan qarama-qarshiliklar, a.ning dolzarbligi tanlangan muammo, uning nazariy jihatdan yetarli emasligi va amaliy tayyorgarlik tadqiqot uchun asos bo'ldi ob'ektiv ta'rif: nazariy asoslash va pedagogik shartlarni amaliy amalga oshirish bo'yicha malakali mutaxassislarni shakllantirishni ta'minlaydi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi talabalari bo'lajak o'qituvchi-psixologlar sifatida. Shakllanish zarurati talabalarining kasbiy kompetensiyasi Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi kelajak sifatida ularning tarkibiy qismi bo'lgan o'qituvchilar-psixologlar professional tayyorgarlik, hozir juda aniq, lekin uning pedagogik shartlarining asossizligi pedagogikaning o'quv jarayonida shakllanishi oliy ta'lim muassasasi spetsifikatsiyasini talab qiladi kontseptsianing mazmuni va

tuzilishi. Talabalarning kasbiy malaka Pedagogika va psixologiya ixtisosligi asosiy, shaxsiy fazilatlarining yaxlit xarakteristikasi talaba, kelajakda o'qituvchi-psixolog, shu jumladan professional kompetentsiyalari, samarali ta'minlash va o'qituvchi-psixolog tomonidan turli sohalarida kasbiy faoliyatni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir ta'lim sohalar va segmentlarini tavsiflovchi tashkilotchilik qobiliyatlari, malakalarining mavjudligi natijalarini psixologik tahlil qilish va prognozlash kasbiy faoliyat, eng samarali bilim uni amalga oshirish usullari. Professional kompetentsiya Pedagogika va psixologiya fakulteti talabalarida shaxsiy, kognitiv va birligi bo'yicha mutaxassislik Bo'lajak o'qituvchining deyatelnostlik partiyalari psixolog ko'rsatiladi.

Materiallar va usullar

Belgilangan maqsadlarni hal qilish uchun va dastlabki taxminlarni tekshirish: tadqiqot usullaridan foydalanilgan: nazariy – tahlil ilmiy adabiyotlarda o'rganilayotgan muammo, empirik - kuzatish, suhbatlar, so'rovlar; muhokamalar, intervyu, eng yaxshilarni tahlil qilish pedagogik amaliyotlar, ijodiy ishlarini tahlil qilish talabalar, o'rta maktab hujjatlarini o'rganish (davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, standart dasturlari, o'quv-uslubiy majmualari tanlov fanlari) tajribalar, modellashtirish.

Asosiy qism

Kasbiy kompetentsiyani saqlash Pedagogika va psixologiya ixtisosligi talabalarining asosiy, yaxlit belgisi bilan belgilanadio'quvchining shaxsiy fazilatlar, kelajak sifatida o'qituvchi-psixolog, shu jumladan professional samarali va maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi vakolatlar o'qituvchi-psixolog tomonidan amalga oshirish turli sohalaridagi kasbiy faoliyat va mavjudligini tavsiflovchi ta'lim segmentlari tashkiliy qobiliyatlari, psixologik ko'nikmalari kasbiy faoliyat natijalarini tahlil qilish va prognozlash faoliyati, uning eng samarali usullarini bilish amalga oshirish. Talabalarda kasbiy kompetentsiya orqali Pedagogika va psixologiya ixtisosligi asos qilib olgan kasbiy vazifalarni hal etish ularning kasbiy faoliyati, masalan: psixologik diagnostika, tuzatish tadbirlari; faollikni rivojlantirish, psixologik maslahat, ijtimoiy rehabilitatsiya, psixologik jihozlar.

Talabalarda kasbiy kompetentsiya Pedagogika va psixologiya ixtisosligi murakkab, kasbiy va ularning shaxsiy xususiyatlari kabi kelajakda shakllanayotgan o'qituvchi-psixologlar kasbiy tayyorgarlik kursi, tayyorlikni ko'rsatish Pedagogika va psixologiya fakulteti talabalar kasbiy muammolarni samarali hal qilish uchun mutaxassislik va shu jumladan: muhim modul (bilim pedagogika mutaxassisining kasbiy faoliyati va psixologiya), motivatsion modul (mavjudligi kasbiy faoliyatni amalga oshirishga qiziqish va talab pedagogika va psixologiya mutaxassisi faoliyati), faoliyat moduli (kasbiy ko'nikmalar kasbiy faoliyatini malakali bajarish pedagogika va psixologiya mutaxassisi).

Shakllanishning pedagogik shartlari talabalarining kasbiy kompetensiyasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi quyidagilardir:

- fan kursida o'zlashtirish va bo'lajak o'qituvchilarni amaliy tayyorlash barcha kasbiy fanlar tsikllari bo'yicha psixologlar tomonidan fanlarni tayyorlash fanlari tegishli nazariy bilimlar, amaliy kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar faoliyat;

- imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishni ta'minlash kasbiy ta'limning nazariy va amaliy yo'nalishlari ta'lim harakati mantiqiga ko'ra o'qitish kasbiy faoliyatning asosiy shakllarida talabalar, fanlari bo'yicha innovatsion pedagogik texnologiyalar Psixologik-pedagogik amaliy ishni o'tishda, kompleks kursida mavzuni tayyorlash talabalarining psixologik-pedagogik amaliyoti kasb-hunarni shakllantirish jarayonida o'qitish kelajagi o'qituvchi-psixologlarning malakasi;

- faol, innovatsionning optimal ulanishi shakllantirish jarayonida o'qitish texnologiyalari talabalarining kasbiy kompetensiyalari Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi;

- Pedagogika talabalarida shakllantirish va bilan qimmatli munosabatda bo'lgan psixologiya mutaxassisligi kelajakdagi kasbni egallash.

Shakllanish mezonlari va ko'rsatkichlari talabalarining kasbiy kompetensiyalari Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi: informatsion (bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy daraja savodxonlik, tushunchalar majmuasini

o'zlashtirish, toifalar, qonunlar); motivatsion (sifatlar va shaxsning xususiyatlari, bag'rikenglik, psixologik tayyorlik); amaliy (bo'lgan harakatlar orqali o'zlashtirish kasbiy yo'nalish, qobiliyatlarning mavjudligi ishni oqilona tashkil etish, bilimlardan foydalanish nostandart vaziyatlar, dizayn ko'nikmalari, kasbiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish faoliyat.

Kasbiy shaxsni shakllantirish darajalari Pedagogika fakulteti talabalarida kompetensiyalar va psixologiya ixtisosligi: yuqori, o'rtacha, past.

Shunday qilib, shakllanish modelini loyihalashda talabalarining kasbiy malakasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi talablari quyidagi tarkibiy qismlarni taqsimlash:

1. Tashkiliy: maqsadlarni belgilash va kasbiy harakatlarni taqsimlash usullari talab qilinadigan professional malaka, vazifalarni ishlab chiqish, mezonlarini ishlab chiqish topshiriqning bajarilishini baholash, tayyorlash o'quv qo'llanmalari, ishchi guruhlarini tashkil etish talabalar va vazifalarni taqsimlash.

2. Motivatsion: vazifalarni taqdim etish.

3. Faoliyat: talabalar tomonidan yechim loyihasi psixologiya va pedagogik vazifaning va natijalarni taqdim etish, taqdim etish, baholash, qarorlarni tekshirish.


4. Shakllanish mezonlari va ko'rsatkichlari Talabalarning kasbiy kompetentsiyalari Pedagogika va psixologiya ixtisosligi.

5. Kasbiy shakllanish darajalari Pedagogika fakulteti talabalarining malakalari va psixologiya mutaxassisligi.

6. Shakllanishning pedagogik shartlari talabalarining kasbiy malakasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi.

Shunday qilib, shakllanish jarayonini tashkil etish talabalarining kasbiy kompetensiyasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligini nazarda tutadi Kasbiy shakllanish modelini ishlab chiqish Pedagogika talabalarining kompetentsiyalari va psixologiya mutaxassisligi, zarur shaxsiyatni aks ettiradi va talabaning kasbiy fazilatlari. Modeli talabalarining kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish Pedagogika va psixologiya ixtisosligidagi to'liq, o'zaro bog'langan jarayonni

ifodalaydi qaysi barcha komponentlar va komponentlar yo'naltirilgan yakuniy maqsadga erishish – shakllantirish talabalarida professionaldan kompetentsiyaga Pedagogika va psixologiya ixtisosligi (1-chizma).




Chizma 1. Kasbiy shakllanish modeli Pedagogika talabalarining kompetentsiyalari va psixologiya ixtisosligi

Pedagogik eksperiment amalga oshirishdan iborat edi shakllantirishning rivojlangan pedagogik shartlaridan talabalarining kasbiy kompetensiyasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi Modelga kiritilgan talabalarining kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish Pedagogika va psixologiya ixtisosligi kasbiy tayyorgarlik kursi va ularni tekshirish samaradorlik. Kasbiy rivojlanish dinamikasi

Pedagogika fakulteti talabalarining malakasi va nazorat va eksperimental psixologiya ixtisosligi mashg'ulotlarning butun davri uchun guruhlar kuzatildi. Tadqiqotlar Psixologiya fakulteti va PSPIda o'tkazildi pedagogika. Pedagogika ixtisosligi talabalari unda ishtirok etdi va psixologiya (91 kishi).

Aniqlash natijalarining eksperimental diagnostikasida kasbiy kompetentsiyani shakllantirish darajasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi talabalari, to'p va reyting monitoringi yordamida amalga oshiriladining o'sish

tendentsiyasini aniqlashga imkon berdida kasbiy kompetentsiyani shakllantirish darajasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi talabalari qanday tadqiqot natijalariga eksperimental va 2-chizmadagi tajribadan oldin nazorat guruhlari guvohlik berish. Shakllanish darajalarining diagnostikasi talabalarining kasbiy kompetensiyasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi.



Chizma 2. Shakllanish darajalarining diagnostikasi talabalarining kasbiy kompetensiyasi

Shunday qilib, eksperimental guruhlarda soni shakllanish darajasi yuqori bo'lgan talabalar tajribadan so'ng professional kompetentsiya oshdi 38% ga, yetib kelgan talabalar soni o'rta bosqich - 8% uchun, talabalar soni past darajaga ega - 46% ga kamaydi.

Nazorat guruhlaridagi natijalar ortib borayotganidan dalolat beradi shakllanish darajasi yuqori bo'lgan talabalar soni kasbiy kompetentsiya 1%, o'rtacha daraja – uchun 0 %, qatlamning past darajasini 1 % ga kamaytirish.

Qabul qilingan ko'rsatkichlar qo'shimchadan dalolat beradi taklif etilayotgan professional shakllantirish modelining samaradorligi Pedagogika talabalarining kompetensiyalari va psixologiya mutaxassisligi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar nimani isbotladi ajratilgan pedagogikaning aniq amalga oshirilishining ishlab chiqilgan modeli shartlari va qo'llanilishi talabalarining kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish Pedagogika va psixologiya ixtisosligi ta'sir qiladi kasbiy shakllanish darajalarining o'zgarishi Pedagogika talabalarining kompetentsiyalari va psixologiya ixtisosligi.

Xulosa

Pedagogikani shakllantirishning ishlab chiqilgan modeli talabalarining kasbiy kompetensiyasi oliy ta'lim muassasasiga tavsiya etiladi oliy ta'lim muassasalarida amaliy qo'llash.

Shakllarning o'rnatilgan o'zaro aloqasi va bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash usullari standart tomonidan taqdim etilgan fanlar, bir vaqtning o'zida professionalning alohida tarkibiy qismlarini shakllantirish malakasi vositasi sifatida tavsiya etilishi mumkin pedagogik jarayon samaradorligini oshirish oliy ta'lim muassasasi.

Mutaxassisni shakllantirishning oqilona vositalari pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida kompetentsiya ta'lim muassasasi uzoq muddatda o'zgarishi mumkin va qo'shiladi.

A ning asosli mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish pedagogika oliy ta'lim muassasasi belgilashi mumkin oliy maktabning innovatsion rivojlanishi.

Tadqiqot davomida pedagogik shart-sharoitlar talabalarda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish (o'n Pedagogika va psixologiyaga misol mutaxassisligi) kasbiy tayyorgarlik jarayonida isbotlangan.

Tuzilishi, mazmuni, mezonlari ishlab chiqilgan va talabalarda kasbiy kompetentsiyalarni (o'n Pedagogika va psixologiyaga misol mutaxassisligi) aniqlanadi. Shakllanishning ishlab chiqilgan modelining samaradorligi talabalarining kasbiy kompetensiyasi Pedagogika va psixologiya ixtisosligi va kasb-hunar ta'limining pedagogik shartlari bo'yicha malakali mutaxassislarni shakllantirishni ta'minlaydi talabalar unga qo'yadilar (Pedagogika misolida va psixologiya mutaxassisligi) tekshiriladi va isbotlanadi.

Keyingi nazariyaning ustuvor yo'nalishi sifatida va amaliy ilmiy ishlarni ko'rib chiqamiz kasbiy shaxsni shakllantirish tushunchalarini ishlab chiqish Pedagogika fakulteti talabalarining malakasi va psixologiya mutaxassisligi va boshqa mutaxassisliklar va bakalavrlar va magistrLAR tayyorlash yo'nalishlari.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boltaboyev Azizbek Xasanboy o'g'li, & Ahmedov Davlatbek Saloxiddin o'g'li. (2022). Psychological Features of Adolescence. Eurasian Research Bulletin, 25 27. Retrieved .25-27 pp.
2. Boltaboev Azizbek Hasanboy ugli, HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY: 2 pp. 12-17 (2).
3. Boltabayev Azizbek Khasanboy. (2021). In Painting Natyurmort It'sWorking Methods And Peculiarities. The American Journal of Applied Sciences, 3(01), 123-127.
4. Boltaboyev Azizbek Xasanboy O'g'li "Экономика и социум" METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONALPEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS.

TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIRNING O'RNI

Ibrohimova Iqboloy Tohirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

“Amaliy, jismoniy tarbiya va sport fanlarini o'qitish metodikasi” kafedrası

stajyor o'qituvchisi

Mamadjanova Munisa Madaminjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qalamtasvir fanini o'rganishdan maqsad kelajakda tasviriy san'at o'qituvchisini qalamtasvir fanining nazariyasi va amaliy ko'nikmalarini chuqur egallash, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirish, qalamtasvir fani bo'yicha olgan bilim va malakalariga asoslangan holda o'zining kuzatishlari, badiiy tasvir yaratish oldidan qilinadigan izlanishlarida, ayniqsa eskizlar, ular asosida katta ko'lamdagi san'at asarlarini yaratishda qalamtasvirning o'rne beqiyosligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, qalamtasvir, rassom, ta'lim, san'at.*

Аннотация: *В данной статье цель изучения науки рисования карандашом - помочь будущему учителю изобразительного искусства овладеть теорией и практическими навыками науки рисунка карандашом, сформировать свои творческие способности на основе полученных знаний и умений. в науке о карандашном рисунке, свои наблюдения, художественные образы, сведения о несравненной роли карандашного рисунка в создании масштабных произведений искусства на основе их предварительных исследований, особенно эскизов.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, рисунок карандашом, художник, образование, искусство.*

Annotation *In this article, the purpose of studying the science of pencil drawing is to help the future fine art teacher to master the theory and practical skills of the science of pencil drawing, to form their creative abilities, based on the knowledge and skills they have acquired in the science of pencil drawing, their observations, artistic images information about the incomparable role of pencil drawing in the creation of large-scale works of art based on their preliminary research, especially sketches.*

Key words: *visual arts, pencil drawing, artist, education, art.*

Insoniyatning mehnat faoliyati, e’tiqodlari, diniy qarashlari zaminida Tasviriy san’at paydo bo’lgan va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichidayoq inson o’z ehtiyoji uchun zarur bo’lgan buyumlarni yaratish, libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marhumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marxumlar qabriga turli buyumlar qo’yish odatlarida Tasviriy san’atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak, keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, g’or devorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o’y-xayollari, o’zga dunyo to’g’risidagi tasavvurlari mujassamlashgan.

Yoshlarni tasviriy san’at sohasida barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san’atga oid fanlar, xususan “Qalamtasvir” fani alohida ahamiyatga ega. Bu esa, o’z navbatida, oliy o’quv yurtlarida o’qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo’lishini taqozo etadi. Jamiyat va davlat o’zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg’usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma’suliyatli, ilmiy bilim, mehnat va kasb-kor ko’nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruhiy sog’lom, jismonan yetuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor normalarini o’z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma’naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdordir.

San’at insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo’lib xizmat qiladi. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san’ati kabi ko’plab san’at turlarini o’z ichiga oladi. San’atning har bir turi o’z oldiga qo’yilgan vazifaiarga ko’ra turli vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot — so’zdan, musiqa — tovushlardan, tasviriy san’at — rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san’at turi vana bir necha xil va janrlarga bo’linadi.

Tasviriy san’atning barcha turlarining asosi qalamtasvir hisoblanadi. «Qalamtasvir» XVI asrdan boshlab chiziqlar yordamida obraz yaratish sifatida tasvirni belgilovchi atama bo’lib kelgan. U buvumning barcha san’at turlaridagi shakli, o’lchami, tuzilishi va xarakterini belgilab beruvchi muhim xususiyatlari

bilan tanishtiradi. Tasviriy san'at turlarining asosi — qalamtasvirni chizmachilik bilan taqqoslasak, uning xususiyatlari yanada yaqqol ayon bo'ladi. Birinchidan, rassom tasvirni ko'z bilan chamalab, o'z qo'li bilan qisqa vaqtda tasvirlab ko'rsata oladi. Ikkinchidan, rassom tasvirda buyumning tashqi asosiy belgilari, uning materialligi, hajmi, yorug'ligi, fazoviy joylashuvi va hokazolarni ko'rsatadi. Uchinchidan, qalamtasvirda nafaqat buyumning tashqi turli belgilari tasvirlanadi, balki buyumning ichki mazmuni ham ifodalanib, kuzatuvchida muayyan fikr va hissiyot uyg'otadi.

Qalamtasvir xususiyatlarini chuqurroq o'rganish uchun tasvirlash shartli ravishda bir necha turga bo'linadi. Qalamtasvirning tasvirlash vositalari ishlatilishi bo'yicha tasvir chiziqli va tusli bo'ladi. Chiziqli rasm qoidaga ko'ra och rangli va umumlashtirilgan bo'ladi. Chiziqlar orqali badiiy obraz yaratiladi. Jadvallar, shartli chizmalar, doskadagi tasvirlar shular jumlasidandir. Tusli tasvirlar muhitdagi buyumning hajmliligi, yorug'ligi, fakturasi va fazoviy munosabatlarining to'liq ta'rifini beradi. Bunday rasmlar yorug'-soyali va tusli rasmlar deb ataladi. Ayrim buyumlar sharpasi va tashqi ko'rinishi orqali xarakterlidir. Shuning uchun bunday ko'rinishlarni tasvirlashda ayrim hollarda tusli tasvirning oddiy turi tanlanadi, bu esa siluet deb nom lanadi, ya'ni bir xil tekis tus bilan qoplanib, tashqi ko'rinish chizig'i orqali bajariladigan tasvir

«Qalamtasvir» dastlab XVIII asr boshlarida chiziqlar yordamida obraz yaratishda tasvirni belgilovchi atama hisoblanib, barcha san'at turlaridagi buyumning shakli, o'lchami, tuzilishi va xarakterini belgilab beruvchi muhim xususiyatlari bilan tanishtiruvchi soha sifatida kirib kelgan. Suningdek, qalamtasvir fikrni, har qanday kompozitsiya va loyihalashda his-tuyg'u hamda tasavvurni aks ettirish vositasidir. Uyg'onish davrining buyuk rassom va haykaltaroshi B. Mikelandjelo «Qalamtasvir bu rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikning eng yuqori nuqtasi, barcha fanlarning ildizi va manbayidir» – deb bejizga aytmagan. Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom yoki dizayner eskiz, loyiha va shu kabi ishlarni rejalashtirar ekan o'z ijodi jarayonida qalamtasvirga murojaat qiladi va asoslanadi. U o'zining

kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilari bilan tasvirlaydi va ifodalaydi. San'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Qog'oz yoki sathida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan to'g'ri tasvirlash uchun tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo'llash naturaga, shuningdek, xotira va tasavvurga asoslanib, rasm chizishni o'rganish zarur. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun inson rassomchilik qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z ustida uzluksiz, betinim ishlashi hamda ushbu iqtidorni rivojlantirib borish talab etiladi. Qalamtasvirning asosiy vazifalaridan biri bu yoshlarda tasvirlash mahoratini, o'z iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirib borishi natijasida yuzaga kelgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. U talabadan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan to'g'ri foydalana olishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda qalamtasvir mashg'ulotlarning amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi - perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi. Rassom ijodiy asar yaratishni qalamdan boshlaydi. Keyingi bosqichlarda ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi yoki qalamning o'zida tugallaydi. Boshqacha aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvirda yetuk malakaga erishish ko'p jihatdan narsani o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq. Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o'tmasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bir necha yetuk

shogirdlar tarbiyalagan rassom va murabbiy P.P.Chistyakov aytganidek, talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatishi zarur, so’ngra naturani o’ziga “bo’ysundirishi ” kerak Rassom qanday yetuklikka erishmasin, narsani o’ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, rassomning xayoli uni o’rab turgan borliq bilan har doim bog’liq bo’lishi lozim. Ijodkor-rassom bironbir san’at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo, kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini xayolan tiklab, tahlil qiladi, so’ngra ularni juda ko’p marta amaliy mashqlar bajarish orqali olgan bilim va tajribalari asosida tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Qalamtasvir” M. B. Ahmedov, M. Z. Xasanova TOSHKENT “IJOD-PRINT” 2021
2. “Tasviriy san’at” S.Abdirasilov , B.Boymetov, N.Tolipov *Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa iiodiv uyi Toshkent – 2006.*
3. “Qalamtasvir” Botir Boymetov “MUSIQA’ nashriyoti TOSHKENT j; 2006
4. “Qalamtasvir” X.X. Muratov TOSHKENT IJOD-PRINT 2020
5. tdpu.library.uz
6. www.ziyonet.uz

TA’LIM JARAYONIDA KOGNITIV USLUB RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Badritdinova Madina Baxromovna

*Namangan davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi, psixologiya fanlari
bo’yicha falsafa doktori (PhD) Tel: + 998911865453*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida kognitiv uslub rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlari, o’smirlarda kognitiv uslublarning o’zaro aloqadorligi va ularga ta’sir etuvchi omillar, uni diagnostika qilish usullari,

kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiruvchi dastur va uning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Maqola talabalar, pedagoglar, kognitiv uslub muammosi bilan shug’ullanuvchi mutaxassislar uchun mo’ljallangan.

***Tayanch so’z va tushunchalar:** kognitiv uslub, kognitiv nazorat, kognitiv temp.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО СТИЛЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Бадритдинова Мадина Бахромовна

Старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института, доктор философских наук в области психологии (PhD)

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности развития когнитивного стиля в образовательном процессе, взаимообусловленность когнитивных стилей у подростков и факторов, влияющих на них, методы его диагностики, программа, развивающая познавательные способности, и ее эффективность. Статья предназначена для студентов, преподавателей, специалистов, занимающихся проблемой когнитивного стиля.*

***Ключевые слова и понятия:** когнитивный стиль, когнитивный контроль, когнитивный скорость.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COGNITIVE STYLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Badritdinova Madina Bakhromovna

Senior teacher of Namangan State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)

Abstract: This article discusses the specific features of the development of cognitive style in the educational process, the interrelationship of cognitive styles in adolescents and the factors affecting them, the methods of its diagnosis, the program that develops cognitive abilities and its effectiveness. The article is intended for students, pedagogues, specialists dealing with the problem of cognitive style.

Key words and concepts: *kognitiv style, kognitiv control, kognitiv temp.*

KIRISH

Respublikamizda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri mustaqil qaror qabul qila oladigan va ijodiy fikrlaydigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashdir. Istiqlool sharofati bilan Respublika xalq ta'limi, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarida o'qitish hamda tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishga oid bir qancha qarorlar, nizomlar, qonunlar, konseptsiyalar ishlab chiqildi. Bu hujjatlar barcha o'quv yurtlarida uzluksiz ta'lim – tarbiya berishda uyg'unlikni ta'minlashda ham nazariy, ham amaliy dastur vazifasini o'taydi. Bugungi islohotlar davri o'qitishning samarali metodlarini yaratishni, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim – tarbiyaning yetakchiligini ta'minlashni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his – tuyg'ulari, kognitiv uslubga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'limiy – tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan bir xil ta'lim – tarbiya beriladi. Lekin o'quvchilarning o'zlashtirishlari va o'quv faoliyatini qabul qilishlari har xil. O'quvchining ta'lim jarayoniga munosabati o'quv faoliyatida diqqatini to'g'ri yo'naltira olishi, qiziqishi va qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun iroda kuchini sarflashga tayyor ekanligida namoyon bo'ladi. O'quvchilar tomonidan bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi ular diqqatining barqarorligi, tez va oson zarur ob'ektlar ustida to'planishi, to'g'ri taqsimlanishi, idrok qilishning aniqligi, tafakkur qilishning tezligi, izchilligi, mazmundorligi, mustaqilligi, chuqurligi, esda saqlashning mustahkamligi, qayta esga tushirishning aniqligi, axborotlarni qabul

qilish, ularni qayta ishlash jarayonining o'ziga xosligi va boshqa xususiyatlarga bog'liq. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilar kognitiv uslubini o'rganish va diagnostika qilish dolzarb vazifalardan biridir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Kognitiv uslub” tushunchasi psixologik adabiyotlarga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, “*cognitive style*” so'zi tarjima qilinganda “bilish uslubi” degan ma'noni anglatadi. Biroq, “bilish” va “kognitiv” tushunchalari sinonim emas. “Bilish” – ob'yektiv voqealikni individual ongda aks ettirish jarayoniga tegishli bo'lib, u sensor, pertseptiv, mnemik, fikrlash shaklidagi bilish obrazlaridir. “Kognitiv” – tushunchasi turli darajadagi bilish obrazlarining shakllanishida ishtirok etadigan axborotlarni qayta ishlashning psixologik mexanizmiga taalluqlidir. Oddiy qilib aytganda, borliqni o'rganishning o'ziga xos individual uslubidir [2].

Kognitiv uslub – kishining o'zini o'rab turgan olamdagi axborotlarni qayta ishlashining o'ziga xos individual uslubi bo'lib, u idrok, analiz, qayta tuzish, toifalash va baholashdagi individual farqlarda o'z aksini topadi. O'z navbatida mazkur kognitiv munosabatlar ayrim tipik shakllarni tashkil etadi, shunga ko'ra kishilar bir –biriga o'xshashi yoki farq qilishi mumkin bo'ladi(Gaiss,1978) [3].

Kognitiv uslub tushunchasi shaxs psixologiyasi va bilish psixologiyasining chegarasida shakllangan. Uslub so'zining qo'shilishi bilan u o'ziga xos tusga ega bo'lgan. Shaxs psixologiyasida uslubni individuallik namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida ta'riflansa, bilish psixologiyasida esa intellektual faoliyatning rasmiy tabiatga ega ekanligini ta'kidlagan holda, uning psixik taraqqiyotning past yoki yuqori darajasiga aloqador emasligi e'tirof etiladi.

Uslubli yondashuvning shakllanishi bilish psixologiyasining predmetini transformatsiya qilinishiga olib keldi. Agar dastlab bilish psixologiyasi bilish faoliyatining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan bo'lsa, hozirda kishilarning borliqni bilish uslubidagi individual farqlarning mexanizmlari haqidagi fanga aylandi.

Bugungi kunda zamonaviy psixologiyada kognitiv uslublarning bir necha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, Genri Uitkin tomonidan kognitiv

uslublarning ikki turi maydonga tobelik va maydondan mustaqillik tipi aniqlandi. G.Uitkinni kishining maydondagi xulq – atvor xususiyatlari, ayniqsa “figura – fon”, “qism – butun” effekti ko’proq qiziqtiradi. Bu uslub dastlab G.Uitkin tomonidan fazoviy orientatsiyalarga xos individual uslubni o’rganish natijasida tavsiflangan edi. Ma’lum muddat o’tgach, murakkab geometrik tasvirlardagi oddiy detallarni topish bilan bog’lik vazifani hal qilishdagi pertseptiv faoliyatga xos individual uslub o’rganilgan [4]. G.Uitkin ishlarida kognitiv uslub tushunchasi geshtalt psixologiyadagi maydon va maydondagi xulq – atvor haqidagi geshtalt psixologik tasavvurlar doirasida shakllandi. Har bir kishiga predmetli va ijtimoiy borliq (maydon) turlicha darajada ta’sir etadi.

1. Maydondan mustaqil tip G. Uitkin bo’yicha kognitiv uslub turlaridan biri bo’lib, xulq-atvor ichki faollikka yo’naltirilgan bo’ladi. Shuning uchun bu tipga kiruvchi shaxslar murakkab kontekstni osonlik bilan yenga oladilar, ya’ni murakkab yaxlit detalni tarkibiy qismlarga ajrata oladilar, tavsiya etilgan vaziyatni qayta hosil qila oladilar, muammoning qarama–qarshi tomonlarini tezda aniqlay oladilar, maydonga demonstrativ yondashuvni namoyon etadilar.

2. Maydonga tobe tip kognitiv uslub turlaridan biri bo’lib, xulq-atvor tashqi faollikka yo’naltirilgan bo’ladi. Shuning uchun bu tipga kiruvchi shaxslar murakkab kontekstni yenga olmaydilar, ya’ni ularga murakkab detaldagi qismlarni aniqlash uchun ularga ko’p vaqt kerak bo’ladi, vaziyatni tayyor holda qabul qilishadi, muammolarni har doim ham o’z vaqtida aniqlay olmaydilar, maydonga nisbatan global yondashuvni namoyon etadilar.

G.Uitkin bolada maydonga tobelik yoki maydondan mustaqillik uslubining rivojlanishi undagi tashqi muhitga moslashish jarayonida to’plangan tajribaga va psixologik xususiyatlarini ixtisoslashuviga bog’liq ekanini aniqladi. Rivojlanish jarayonida bolada maxsus tajribani shakllanishi va to’planishi tizimlashtirilmagan holatga nisbatan muayyan tuzilishga ega bo’lib boradi [10].

Psixologik differentsiatsiyaning yuqori darajasiga erishishi artikulyatsiyalangan tajribaning mavjudligini bildiradi. Uitkinning fikricha, bolada tajriba ortishi jarayonida artikulyatsiyaning ikkita jihati: tajribani tahlil qilish

darajasi va uni qayta tuzish qobiliyati rivojlanib boradi. Artikulyatsiyalangan tajribaga ega bolalar yaxlit murakkab detalni juda oson idrok qiladi, uni o'z tajribasiga, qoidalariga asoslanib qayta tuza oladi.

Rivojlanish jarayonida psixologik differentsiatsiyaning quyidagi to'rtta sohasi farqlanadi [9]:

1. Artikulyatsiyalashgan intellektual faoliyat ko'rsatish. Dastlab maydonga tobelik – maydondan mustaqillik hodisasi pertseptiv faoliyat materiallari asosida tavsiflangan bo'lib, u murakkab pertseptiv obrazdagi oddiy qismlarni ajratib olishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, maydonga tobelik – maydondan mustaqillik kognitiv uslubi individual pertseptiv tajribaning artikulyatsiya qilish me'yorini ifodalaydi. Natijada idrokdagi analitik qobiliyat boshqa intellektual faoliyat sohasidagi analiz qilish va ma'lum tartibda tuza olish qobiliyati bilan bir qatorda qaraladigan bo'ldi. Mazkur bilish faoliyati usullariga xos tafovutning umumiy o'lchovi “kognitiv uslub” tushunchasi bilan ifodalangan, maydonga tobelik – maydondan mustaqillik esa uning tarkibiy qismidir.

2. O'zining jismoniy tanasi haqidagi artikulyatsiyalangan tasavvurlar. Psixologik differentsiatsiya o'z tanasi haqidagi nisbiy global sub'yektiv qarashdan uning tarkibiy qismlari, o'zaro munosabati hamda chegaralarini aniq anglashgacha rivojlanib boradi.

3. Shaxsiy mansublik hissi (ijtimoiy muhitdan o'zining “Men” obrazini ajratib olish mezon). Uitkinning fikricha, “Men” obrazining differentsiatsiya darajasi shaxslararo o'zaro ta'sir vaziyatida mustaqil va o'zini qanoatlantira oladigan darajada harakat qilishda ifodalanadi.

4. Shikast yetkazuvchi tajribadan maxsus himoyalash va affektiv reaksiyalarni nazorat qilish. Psixologik mexanizmlar ixtisoslashmagan (global tarzda tajribadan foydalanish) yoki ixtisoslashgan (tajriba dastlabki differentsiatsiya asosida jalb qilinadi) bo'lishi mumkin [5].

Psixologik differentsiatsiya jarayonida bolada kognitiv nazorat shakllanib boradi. Kognitiv nazorat tushunchasi psixoanalitik yo'nalishdagi olimlar – J.Kleyn, P.Xolzman, R.Gardner, G.Shlezinger va boshqalarning ishlarida rivojlantirilgan[6].

Fenomenologiyasiga ko’ra kognitiv nazorat sodir bo’layotgan voqea – hodisalarni individual o’ziga xos tarzda analiz qilish, tushunish va baholashdan iborat. Kognitiv nazorat – bu, birinchidan, affektiv qo’zg’atuvchilarga nisbatan “tuzilmali to’xtatish” (insonlar bir – birlaridan idrok qilinayotgan vaziyatni turlicha munosabatda bo’ladilar, unga nisbatan turli ehtiyoj va affektiv ta’sirlarni namoyon etadilar); ikkinchidan, individning psixik omillarni koordinatsiya qilish imkoniyati, vaziyat talablari ta’sirida adaptiv (moslashuvchanlik) tabiatiga ega xulq – atvor shakllanadi. R.Gardnerning fikricha, biror kognitiv nazorat tipiga ko’ra shaxs xususiyatlari haqida xulosa chiqarib bo’lmaydi. Asosiy e’tiborni “kognitiv uslub” deb nomlangan kognitiv nazorat kompleksiga qaratish lozim. Kognitiv uslub, birinchidan, mazkur shaxsning kognitiv uslubi kognitiv nazorat qiluvchi tamoyillarning o’ziga xos birikuvi (kombinatsiyasi)dan iborat bo’lganligi sababli, u turli maxsus vaziyat talablaridan xolidir; ikkinchidan, kognitiv uslubni tashkil etuvchi nazorat tamoyillari bir – biriga bog’liq bo’lmagan holda turli – tuman individual – ixtisoslashgan birikmalar shaklida namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham kognitiv uslubga asoslangan holda insonlarning muayyan vaziyatdagi xulq – atvorini oldindan bashorat qilish mumkin.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida kognitiv uslub rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlari, o’smirlarda kognitiv uslublarning o’zaro aloqadorligi va ularga ta’sir etuvchi omillar, uni diagnostika qilish usullari, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiruvchi dastur va uning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Maqola talabalar, pedagoglar, kognitiv uslub muammosi bilan shug’ullanuvchi mutaxassislar uchun mo’ljallangan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'smirlar kognitiv sohasining geterexronligini o'rganishda kognitiv uslublarni tadqiq etish zaruriy sharoitdir. Bu har bir insonning o'z maqsadiga erishishi o'ziga xos hayot yo'lini bosib o'tishi bilan bog'liqdir. Kognitiv uslublarni o'rganishda turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramay, uning tabiati oxirigacha o'rganilmagan, bu intellekt rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lishi ehtimol. Turli maktablar tomonidan kognitiv uslublarning tadqiq etilishini tizimli tahlil etish natijasida kognitiv uslublar turli ijtimoiy omillar ta'sirida hayot davomida shakllanadi deb taxmin qilish mumkin. O'smirning kognitiv uslubini rivojlanayotgan shaxsning integral tizimi, o'z maqsadiga erishish uchun vosita va usullardan foydalanish tartibi sifatida qarab chiqish zarur. Bunda ma'lumotlarni olish, ijtimoiy pertseptsiya, axborotni qayta ishlash jarayonini idora qilishga javob beradigan psixik mexanizmlarni differentsiyallash, nazorat qilishning o'ziga xosligi, shuningdek intellektual faoliyat xususiyatlari, intellektual faollik shakllari nazarda tutiladi [7].

Biz katta va kichik yoshdagi o'smirlarda kognitiv uslublar qanday namoyon bo'lishini aniqlash uchun Gotshal'd shakllari metodikasini o'smir yoshidagi o'quvchilarda o'tkazdik, diagnostik tadqiqot natijalarini quyidagi 1-rasmda keltiramiz. Quyidagi 1-rasmda ko'rinib turganidek, 7-sinf o'quvchilarida maydonga tobe kognitiv uslub o'rta arifmetik qiymati 0,95 ga teng, 9-sinf o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 1,12 ga teng.



1-rasm. 7-sinf va 9-sinf o’quvchilarida maydonga tobe va maydondan mustaqil kognitiv uslub ko’rsatkichlari.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, 9-sinf o’quvchilari 7-sinf o’quvchilariga qaraganda ko’proq maydonga tobe, ya’ni ular ko’proq borliqni, tevarak-atrofni idrok qilishda nafaqat asosiy ob’ektga, balki fonga ham e’tibor berishadi. Buni katta o’smirlarning kichik o’smirlarga nisbatan ulg’ayganligi, borliqni idrok qilishda ko’p predmetlarga e’tibor qaratish, diqqatliroq bo’lishlari bilan tushuntirish mumkin. Maydondan mustaqil kognitiv uslub o’rta arifmetik qiymati 7-sinf o’quvchilarida 0,72 ga teng, 9-sinf o’quvchilarida esa bu ko’rsatkich 0,75 ga teng.

O’tkazilgan tadqiqotlarimizda o’smirlarda axborotni qayta ishlash jarayonini boshqarishning psixik mexanizmlarini differentsiyallashuvi ijtimoiy pertsepsiya, noaniqlikka nisbatan tolerantlik, tafakkur va faoliyat mahsulдорligini semantik tuzilmalardagi individual farqlar orqali kuchaytirilishi natijasida kognitiv uslubni konstruktiv rivojlanishiga ta’sir etish mumkinligi isbotlandi.

O’smir yoshdagi o’quvchilarning aksariyati ko’rinib turgan ochiq maydonga asoslanishadi, ular tashqi muhit ta’sirini qiyinchilik bilan yengishadi, kichik detalni ko’rish uchun ko’p vaqt sarflashadi. Ayrim ospirin yoshdagi o’quvchilar esa

ichki mezonlar asosida tashqi ko’ruv taassurotlarining ta’sirini yengib, murakkab geometrik tasvirdagi detallarni osongina topa olishadi.

O’tkazilgan tajriba natijalariga ko’ra, o’smir yoshdagi o’quvchilarga voqea – hodisalarni maydonga tobe tarzda idrok qilish xos bo’lib, asta – sekin ulg’aygani sayin ularning idroki mustaqil shaklga ega bo’lib boradi. Maydonga tobelik yoki mustaqillik yoshga bog’liq hodisa ekan, maydondan mustaqil idrok qilish psixologik taraqqiyotning yuqori bosqichidir. Psixik taraqqiyotning eng muhim jihati sifatida tajribaning turli shakllarini psixologik differentsiatsiya qilish darajasi namoyon bo’ladi.

XULOSALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa shakllantirish mumkin;

Shunday qilib kognitiv uslubning asosiy vazifasi tashqi olamdan kelayotgan axborotlarni shunchaki qabul qilish va qayta ishlashdan iborat emas, balki tayanch bilish jarayonlarini koordinatsiya qilish va boshqarishdan iboratdir. Kognitiv uslub borliq va sub’yekt o’rtasidagi vositachi bo’lib, u bevosita individual moslashuvchan jarayonlarning kechishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Kognitiv uslublar bevosita intellektual faoliyatning mahsuldorligiga javob bermaydi, topshiriqlarni to’g’ri va tez bajarilishiga aloqador emasligi tufayli ham u qobiliyat emas. Biroq, kognitiv uslublar axborotlarni qayta ishlash jarayonini tashkil etish uchun mas’ul bo’lganligi sababli, ularni metakognitiv qobiliyat deb atash mumkin. Metakognitiv qobiliyat intellektual o’zini – o’zi boshqarish va intellektual faoliyat samaradorligiga aloqadordir.

O’quvchilarning kognitiv uslubiga xos bo’lgan xususiyatlarini samarali diagnostika qilishni ta’minlash va ularni rivojlantirish maqsadida pedagoglar, amaliy psixologlar uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin;

1. Har bir ta’lim muassasasi amaliy psixologlari tomonidan o’quvchilarning bilish jarayonlari, xulq – atvori va o’zaro munosabatlaridagi individual xususiyatlarni diagnostika qilishning psixodiagnostik metodlari bazasini yaratish;

2. O’quvchilar bilan olib boriladigan mashg’ulotlarning rivojlantiruvchilik rolini yanada kuchaytirishga erishish;

3. O’quv faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilish orqali ularning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlariga xos individual xususiyatlar va kognitiv uslubni rivojlantirishga imkoniyat beruvchi vaziyatlarni yaratish;

4. Individual munosabatlarni tashkil etish orqali o’quvchilar faoliyatidagi yutuqlarini vaqtida aniqlash va rag’batlantirib borish;

5. O’quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatuvchanlikka, atrof – muhitdagi har qanday yangiliklarga qiziqish bilan munosabatda bo’lishga, ijodkorlik va muloqotchanlikka o’rgatib borish;

6. Ta’lim muassasalaridagi o’quv mashg’ulotlari sifatini yaxshilash orqali kognitiv uslubni rivojlantirishga erishish lozim.

Bu tavsiyalarga amal qilish jismoniy va aqliy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi, barcha xususiyatlariga ko’ra boshqalardan ajralib turuvchi shaxsni tarbiyalash imkonini beradi. Taqdim etilgan ilmiy – uslubiy tavsiyalar ijtimoiy faol, yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini yaratish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бадритдинова, М. (2019). КОГНИТИВ УСЛУБ БИЛАН БОҒЛИҚ МЕТАУСЛУБЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Ilmiy axborotnoma.
2. Бадритдинова, М. Б. (2020). Различия между базовой, дидактической и когнитивными структурами личности. Oriental Art and Culture, (II), 158-161.
3. Бадритдинова, М. (2015). ТАЛАБАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШГА НИСБАТАН СИСТЕМАЛИ ЁНДАШУВ. Илмий ахборотнома.
4. Turg’unboyeva, A., Badritdinova, M., G’aniyeva, N., & Qayumov, B. (2021, May). DESCRIPTION OF THE METHODS OF DIAGNOSING THE COGNITIVE STYLE OF PUPILS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In E-Conference Globe (pp. 306-308).

5. Badritdinova, M. B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.
6. Badritdinova, M., Mo'Minova, D., & G'Aniyeva, N. (2021). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR RIVOJLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue), 433-436.
7. Badriddinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DIQQATINI BARQARORLASHTIRISH USUL VA VOSITALARI. TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to'plami.
8. Badritdinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR USLUBINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to'plami.
9. Badritdinova, M. B., & Rustamova, T. N. (2021). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Science and Education, 2(2), 331-337.
10. Badritdinova, M. (2015). TA'LIM JARAYONIDA IDROKGA XOS KOGNITIV USLUB SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. Ilmiy axborotnoma.
11. Asranbaeva, M. X. (2020). IMPROVING MECHANISMS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL LIFE IN DISABLED FAMILIES. Theoretical & Applied Science, (12), 125-129.
12. Asranbaeva, M. H. (2020). CHARACTERISTICS OF FORMING MOTIVES OF LABOUR ACTIVITIES IN AN INCOMPLETE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 121-123.

TA'LIM MUASSASALARIDA TEXNOLOGIK XAVFSIZLIK QOIDALARI

Mamadjanov Muhammadali

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Texnologik ta'lim yonalishi talabasi

Annotatsiya: *Mavzuda asosan talabaga kerak boladigan havfsizlik qoidalari mavjud bolib, aynan talaba lar uchun zarur chunki, ular foydalanayot gan metal va yog'och jismlar otkir tig'li uchlarga ega bolib, bu foydalanayotgan vaqtda kesish yoki sanchilish ehtimoli mavjud, bu yerda talaba ehtiyot boladigan va shu vaqtda foydalanadigan asbob anjomlar jamlanmasi haqda so'z boradi.*

Аннотация: *Тема в основном содержит правила техники безопасности, которые необходимы школьнику, а ученикам она необходима потому, что металлические и деревянные предметы, которыми они пользуются, имеют острые края, и при их использовании существует вероятность порезаться или поскользнуться. инструменты, использовавшиеся в то время*

Annotation: *The subject mainly contains safety rules that the student needs, especially for students, because the metal and wooden objects they use have sharp edges, and there is a possibility of cutting or stabbing when using them, so the student should be careful and here It talks about the total number of tools used at the time*

Kalit so'zlar: *Me'yoriy hujjat, standartlar, ishlab chiqarish, korhona, ustaxona, ish o'rne, xavfsiz ish o'rne, yorug'lik, versta, ishchi asboblari, texnika xavfsizligi.*

Ключевые слова: *Нормативный документ, стандарты, производство, предприятие, цех, рабочее место, безопасное рабочее место, освещение, верстак, рабочие инструменты, безопасность оборудования.*

Key words: *Normative document, standards, production, enterprise, workshop, workplace, safe workplace, light, workbench, working tools, equipment safety.*

Mubolag'a emaski bugungi kunda dunyo turli hil sir-sinoatlarga boydir, Insoniyat esa uni har javhada organishga intilayotgan davrda hayot kechirmoqdamiz. Bu esa o'z navbatida har bir ishni qilishdan oldin bizni hushyorlikka chorlaydi chunki bizga tarkibi zararlilik darajasi nomalum bolgan elementlar va hom-ashyolar turi ko'paumoqda bu bizga ozimiznizarar dan himoyalash uchun ma'lum bir qoidalarga amal qilishga chorlaydi.

Fan va texnika rivojlangan sari mexatronika va robototexnikalarga talab tobora yuqorilashib borayotgani hechkimga sir emas. Shu borada ushbu texnikalarni sinovda sinash va nuqsonlarsiz aholi qatlamiga yetkazib berish bugungi kunni dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Shu o'rinda takidlab otish joizki texnika hech qachon benuqson ishlamaydi. Shuning uchun, biz avvalo texnologik havfsizlik qoidalarini joriy etishni yanada takomillash tirishimmiz va ularni osib borayotgan yosh qatlamga esa benuqson yetkazib berish bizni oldimizdagi mukammal vazifammizdir.

Hozirgi kunda maktab yoshigacha, maktabda taxsil olayotgan o'quvchilar yoki oliy ta'lim muassasa talabalari uchun qoidalarni bekami ko'st yetkazib berish harakatlari amalga oshirilmoqda. Maktab gacha bolgan MTT tashkilotlarida deyarli bu qoidalar oz aksini topib ulgurgan chunki tarbiyachi opa singillarimiz bu ishni deyarli mukammal bajarish yapti desak mubolag'a bolmaydi. Bu borada maktabda endigina qadam tashlayotgan yosh sinflar uchun ham qoidalar borligi, hafsizlikka yanada yaxshiroq etibor berish va orgatishni talab etadi. Yosh tadqiqotchilarni ham o'z ichiga qamrab oladi va quyidagicha qoidalr mavjud.

Texnologiya fani o'quv ustaxonasida xatti-harakatlarga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilar.

Ish jarayoni ruxsatnoma bilan boshlanishi kerak.

iz qo'lingizda asboblarning va asboblarning bilan aylanmay olasiz.

Armatura va asboblarning ishlatishidan oldin siz ular bilan ishlash jarayonining mezonlarini o'rganishingiz kerak.

Qurilmalar va asboblarning faqat o'z maqsadlari uchun ishlatilishi mumkin.

Qaychi yoki qalam bilan teshik ochmang. Nosoz qurilmalar bilan ishlash taqiqlanadi:

Jarayon uchun barcha qurilmalar va materiallar maxsus joyda saqlanishi kerak.

Joyingizni tartib va tozalikni saqlashga ishonch hosil qiling, bu sifatli jarayonning kalitidir.

Qurilmalar va vositalarning o'qituvchi tomonidan qat'iy belgilangan tartibda tanlash va joylashtirish talab qilinadi.

Jarayon davomida siz gaplashmay olasiz va chalg'itishingiz mumkin.

Ishga diqqatni jamlash va barcha harakatlarning ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilingan holda ehtiyotkorlik bilan bajarish talab etiladi.

Asboblarning va asboblarning zerikarli bo'lsa, jarayonni davom ettirish taqiqlanadi.

Tozalangan ish joyi sinfda xavfsiz ishlashning kalitidir, shuning uchun ish joyiga bir qator talablar ham qo'yiladi. Barcha qizlar birinchi navbatda sochlarini shikastlamaslik va ularni buzmaslik uchun ro'molda bo'lishi kerak. Barcha bolalar formasiga dog' va shikastlanishdan himoya qilish uchun fartuk kiyishlari kerak. O'qituvchi qurilmalar va vositalarning xizmatga yaroqliligini tekshiradi. Ehtiyotkorlik bilan olib kelingan barcha materiallarning olib tashlang, qurilmani olib tashlash va stolga himoya moyli yoki taxta ustiga qo'yish bo'yicha ishlarga qarab qoidalar va xususiyatlar mavjud. Jarayon oldidan ish uchun zarur bo'lgan barcha materiallarning tayyorlash va o'qituvchining ular bilan qanday qilib to'g'ri va xavfsiz munosabatda bo'lish bo'yicha ko'rsatmalarini tinglash kerak. O'quvchilarning bilan doimo mato va salfetkalar to'plami bo'lishi kerak. Ishchi asboblarning va ishchi materiallarning bilan

ishlash qoidalari. Bundan tashqari, ish asboblari va materiallariniboshqarish qobiliyatiga ega bo'lishingiz kerak. Garchi bolalarning aksariyati yelim turli sirtlarni yopishtirish uchun mo'ljallanganligini va o'quvchilarni igna bilan tikishi kerakligini bilishsa ham, biz har xilasoblar va materiallar bilan ishlash algoritmlarini beramiz. tikuv ignasibilan: Igna igna to'shagida qat'iy ravishda saqlanishi kerak, aks holdaxavfli asboblari va asboblarni yo'qotish xavfi yuqori. Stolda ignani uzun ipsiz qoldirish taqiqlanadi, bu faqat maxsus igna to'shagida alohida mumkin. O'quvchilar ignani sinfdoshlariga faqat bunday qurilmada va qat'iy ravishda ip bilan topshirishingiz mumkin. Igna bilan o'ynash, uni og'ziga olish, yalash, jang qilish, o'rtoqlariga tahdid qilish taqiqlanadi. Sinfdoshlar shaklida igna yopishtirilmaysiz va uni tahdid qila olmaysiz. Jarayon tugagach, ignalar sonini bilish va har safar qayta hisoblash talab qilinadi. Agar igna yo'qolsa, barcha bolalarni sinfdan olib tashlash va sinchkovlik bilan qidirish kerak. Shkafdagi maxsus mo'ljallangan javonda igna novdasini yopiq qutida saqlash talab qilinadi. Igna bilan ishlaganda burilish, chalg'itish, gapirish taqiqlanadi. Texnologiya xonasida ko'rsatmalar asosida xavfsizlik choralari rioya qilinadi.

Unda texnologiya darslarida o'quvchilarga shikast yetkazmaslik qoidalari mavjud. Texnologiya xonasida xavfsizlik bo'yicha yo'riqnoma odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- umumiy qoidalar - yo'riqnomaning maqsadini ochib beruvchima'lumotlar;
- ishdan oldin, ish vaqtida va keyin talablar va qoidalar;
- favqulodda vaziyatlarda o'zini tutish qoidalari.

Xulosa qilib aytganda texnologiya darslarida texnika xavfsizligi qoidalari maktab o'quvchilarining shikastlanish xavfini oldini olish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilarining xatti-harakatlarini doimiy nazoratda ushlab turishi, nomaqbul va xavfli xatti-harakatlarning oldini olishi, maktab jihozlarining ishlashi va xavfsizligini nazorat qilishi nihoyatda muhimdir. Har bir talaba o'quv topshiriqlarini bajarishga kirishishdan oldin asboblari bilan xavfsiz ishlash texnikasi bilan tanishishi kerak.

O'quv ustaxonalarda barcha mehnat topshiriqlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini yaxshi bilib olish va ularga to'liq rioya etish lozim. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

-Ish kiyimi to'g'ri kiyilganini tekshirish (xalatning qo'l va old tugmalari qadalgan bo'lishi kerak), bo'yinbog' uchlarini qistirish.

-Ish o'rnini, asboblarni ko'zdan kechirish va ishlatishga tayyorligini tekshirish.

-Kesuvchi asboblarning tig'i o'tkir yoki o'tmasligini tekshirish. Ular bilan ishlaganda gaplashmasdan, hushyorlik bilan ishlash.

-Elektr asboblaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish. 5. Asboblarning va xomashyolarning ehtiyotkorlik bilan ishlatish.

-Faqat ishga yaroqli asboblardan foydalanish, ularni o'z o'rnida ishlatish, asboblarni ish o'rniga ulardan foydalanish uchun qulay holatda joylashtirish.

-O'qituvchining ruxsatisiz ish o'rtidan uzoqlashmaslik.

-Har bir ish turi uchun belgilangan xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilish.

-Ish joylarini almashtirib ko'chib yurmaslik, boshqa ish o'rinlaridagi asbob-uskunalaridan ruxsatsiz foydalanmaslik.

-Ish o'rnini payraha va qipiqlardan maxsus cho'tka bilan tozalash.

-Ishdan keyin qolgan materiallar va tugatilmagan ishlarni navbatchiga topshirish.

-Ish yakunlangandan keyin ish qurollarini ko'zdan kechirish, belgilangan joylarga qo'yish, nosoz asboblarning to'g'risida o'qituvchini ogohlantirish.

-Ish oxirida kiyimni almashtirish, qo'lni yuvish.

-Mashg'ulot jarayonida xavfsizlik texnikasi qoidalari buzilgan va jarohatlanish yuz bergan hollarda yoki o'zingizni yomon his qilsangiz darrov o'qituvchiga xabar qilish.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, savol-javob tarzida muhokama qiladilar, berilgan

topshiriqlarni bajaradilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifasi sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi. Hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy tugarak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va maruzalar tayyorlash kabilar talabaning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish. tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish. avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash. yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish. faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari. masofaviy (distantion) ta'lim.

Inson hayotining xavfsizligini ta'minlash muammosi har bir jamiyat uchun dolzarb masala bo'lib, u davlatning iqtisodiy rivojlanganligi va barqarorligiga bog'liq. Bu hozirgi vaqtda ilmiy–texnik taraqqiyot keltirib chiqargan murakkab muammolarni har tomonlama yechishni, katta miqdorda mablag' va ishlab

chiqarishning yuqori madaniyatini talab qiladigan muammodir. Bu esa faqat iqtisodiy qudratli, kuchli ilmiy–texnik va intellektual imkoniyatlarga ega boʻlgan davlatning qoʻlidan keladi. Boshqa tomondan xavfsizlik muammolarining yechimi jamiyatning barcha aʼzolarining faol ishtirokini, yuqori fuqarolik ongini, ayrim hollarda jamiyat, kelajak avlod manfaati uchun, shaxsiy manfaatlardan kechishini talab qiladi. Bu esa jamiyat aʼzolaridan yuksak madaniyatli va kuchli maʼnaviyatlikni talab qiladi. Bu tamoyillarning yechimi chuqur tahlil qilingan va tashkil qilingan uzluksiz, yaʼni taʼlimning barcha oʻtimlarini qamrab olgan taʼlim va tarbiya tizimlaridagina mumkin. Xavfsizlikni taʼminlash ruhida oʻqitish va tarbiyalash ayniqsa texnik oʻquv yurtlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yangi texnika va texnologiyalarni boʻlgʻusi yaratuvchilarini va ishlab chiqarish rahbarlarini shu ruhda tarbiyalash ushbu muammoni samarali boʻlishida katta rol oʻynaydi. Boʻlgʻusi mutaxassislarni shakllantirishdan asosiy maqsad har qanday muhandislik masalasini hal qilishda, bu ilmiy izlanish boʻladimi, loyiha–konstruktorlik ishi boʻladimi, ishlab chiqarishning tashkiliy va boshqaruv masalasi boʻladimi asosiy tamoyil–inson salomatligi va hayotini muhofaza qilish ekanligini unutmaslikdir. Inson xavfsizligini taʼminlash ayniqsa uni ish jarayonida bevosita ishlab chiqarishda oʻz dolzarbligini koʻrsatadi. Chunki zamonaviy korxonalarning xarakterli tomoni shundaki, unda bir korxonaning oʻzida turli–tuman va tez oʻzgaruvchan texnologik jarayonlarda materiallar, yuqori darajali mexanizasiyalashgan va avtomatlashtirilgan elektr hisoblash texnikasi bilan jihozlangan zamonaviy potok tizimlar qoʻllanilmoqda. Bular albatta bir tomondan jarayonlarni qisqartirishga maxsulot sifatini yaxshilashga va mehnat sharoitini xavfsizlantirishga qaratilgan, lekin ikkinchi tomonidan ularda ishlovchi ishchilardan katta diqqat, sezuvchanlik va butun ish kuni davomida aqliy zoʻriqish talab qiladi. Bu esa asablarning taranglashuviga va pirovard natijada kasbiy kasallik va jarohatlarga sabab boʻlishi mumkin. Texnologik jarayonning murakkabligi, texnologik rejimlarga boʻlgan talablarning yuqoriligi mehnat muhofazasi tadbirlariga boʻlgan talablarining ortib borishini talab qilmoqda. Ishlab chiqarish xavfsizligi muammolarini oʻrganish uslubiy jihatdan murakkablashib,

aktuallashib boryapti. —Mehnat muhofazasi kursi ijtimoiy–huquqiy–maqsadlarni o‘z ichiga olgan muxandislik fani bo‘lib, klassik fanlar bo‘lmish fizika, kimyo va matematika bilan birga amaliy–mehnat gigiyenasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, mehnat psixologiyasi, ergonomika, muhandislik, sanoat estetikasi va boshqa fanlardan tashkil topgandir. Bu fanning metodologik asosi–mehnat sharoitini, texnologik jarayonni, ajralib chiqadigan zararli moddalarni va foydalanish vaqtida paydo bo‘ladigan xavfli vaziyatlarni ilmiy tahlil qilishdir. Bu tahlil asosida ishlab chiqarishdagi xavfli joylar, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatlar aniqlanadi, 14 ularni oldini olish va yo‘qotish choralari ishlab chiqiladi. Bu masalalarni hammasi o‘zaro bog‘langan holda, kelajak rejalarni hisobga olgan holda ko‘riladi.

Xavfsizlik tushunchasi. Xavf mehnat muhofazasi fanining markaziy tushunchasidir. Bunda bevosita va bilvosita kishi sog‘lig‘iga salbiy tasir qiladigan yoki ko‘ngilsiz oqibatlarga olib keladigan voqyea, hodisa, jarayon va obyektlar tushuniladi. Analiz maqsadiga qarab xavfni xarakterlovchi belgilar miqdorini oshirish yoki kamaytirish mumkin. Energiyasi mavjud kimyoviy yoki biologik aktiv moddalarda xavf har doim yashirishgandir. Xavflar taksonomiyasi. Taksonomiya - bu murakkab xodisalarni, tushunchalarni kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni, turkumlash va sistemalash haqidagi fandir. U faoliyat xavfsizligi sohasida nazariy bilimlarni uyushtirishda, xavflarni tartibini yanada chuqurroq o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Taksonomiya bu yangi fan bo‘lib, xali to‘la ishlab chiqilmagan, shuning uchun hozirgi ishlab chiqilgan qismlarni ko‘rib chiqamiz.

Xavflar ro‘yxati /nomenklaturasi Bu xavflarning malum xususiyatlari bo‘yicha tartibga solingan sistemalashtirilgan ro‘yxatidir. Masalan, spirtli ichimlik, havoning nomaqbul namligi, harakat tezligi, bosimi, xarorati, ion tarkibi, nomaqbul yoritilganlik, shovqin, titrash, vakuum, portlash, mashinalarning aylanuvchi qismlari, yuqorida ishlash, gazlar, gerbisidlar, chuqurlik, yaxmalak, qizigan gazlar, o‘yuvchi moddalar, kasalliklar, zo‘riqishlar, idishlardagi ortiqcha bosim, infratovush, ultratovush, infraqizil nurlar, uchqun, kinetik energiya, zanglash, lazer nurlari, xazonrezgilik, magnit maydonlari, dori-darmonlar, mikroorganizmlar,

yashin, ishning monotonligi, havoning tarkibiy buzilishi, toshqin, yetarli bo'lmagan mustaxkamlik, notekis yuzalar, ishchining noto'g'ri xarakati, yong'in jihatidan xavfli moddalar, alanga, 18 qurol, /miltiq, xanjar va h.k./ o'tkir narsalar/ kesuvchi, sanchiluvchi/, zaharlanish, sovuq yuzalar, yiqilib tushish, bug', mashina va mexanizmlarning zo'riqib ishlashi, pestisidlar, yong'in, psixologik nomutanosiblik, yorug'lik oqimining pulsasiyasi, chang, ish xolati, radiasiya, rezonans, sirpanchiq yuzalar, qor yog'ishi, quyosh aktivligi, oftob urishi, uyquchanlik, statik zo'riqishlar, statik elektr zaryadlari, tayfunlar, yuqori chastotali tok, tuman, zarbali to'lqin, aqliy zo'riqish, tezlanish, charchash, elektr yoyi, elektr toki, elektr maydoni, elektromagnit maydoni, ruhiy zo'riqish, zaharli moddalar va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Metrologiya, Standardlashtirish va sertifikatlashtirish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma A.A Qurbonov. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus Ta'lim vazirligi.-T.: Yangiyol poligraphservice, 2007:253-254 bet ,
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%97%D0%B0%D0%B3%D0%BB%D0%B0%D0%B2%D0%BD%D0%B0%D1%8F_%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%86%D0%B0
3. Umarov E. Materialshunoslik/E. umarov . . O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T.: Cho'lpon nomidagi NMIU,-2014: 98-99 .b
4. SamDU —Boshlanq'ich va maktabgacha ta'lim fakulteti —Boshlanq'ich va texnologik ta'lim kafedrasi kafedrasi dotsenti: T.Q.Ostonov
5. <https://library.samdu.uz/download/1947>

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Yusupjonova Surayyo Olimjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)

mutaxassisligi magistranti

E-mail: surayyoyusupjonova3@gmail.com Tel: +998 99 787 91 92

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik madaniyat, kompetensiyaviy yondashuv, borilgan tadqiqot ishi natijalari tahlil qilingan. Pedagogik madaniyat mazmuni, uni bo’lajak tarbiyachilarida rivojlantirish zaruriyati asoslangan. Shuningdek, maqolada bo’lajak tarbiyachilar vazifalari to’g’risida yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Bo’lajak tarbiyachi, pedagogik madaniyat, kompetensiya, o’yin kompetensiyasi, malaka talablari.*

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогическая культура, компетентностный подход, а также результаты научно-исследовательской работы. Содержание педагогической культуры основано на необходимости ее развития у будущих педагогов. Также в статье описаны обязанности будущих педагогов.*

Ключевые слова: *Будущий педагог, педагогическая культура, компетентность, игровая компетентность, квалификационные требования.*

Abstract: *In this article, pedagogical culture, competence approach, and the results of research work are analyzed. The content of pedagogical culture is based on the need to develop it in future educators. The article also describes the duties of future educators.*

Key words: *Future educator, pedagogical culture, competence, game competence, qualification requirements.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o’sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo’lgan, ahloqiy me’yor va qadriyatlarni o’zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda “men” obrazini qurish bilan bog’liq bo’lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko’zda tutadi.

Boshlang’ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirish faol

ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innavatsion bo'lishi lozimligini talab etadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. **Bolaning rivojlanish sohalar kompetensiyalari**

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish

Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo‘lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko‘rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish lozim. Xo‘sh, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo‘lishi kerak? degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvoffaqiyatli o‘qishi uchun ularni fanlar bo‘yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o‘qishga bo‘lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o‘zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma’lum darajasini shakllantirishdir.

Maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Buning uchun innovatsion usullardan biri bo‘lgan “Keys-stadi” texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotida ham

foydalanish bolalarni faol ta’lim olishga undaydi. Bu usulni qo’llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to’g’ri javob berishga o’rgatadi. Bolalarga ko’proq kitob o’qib berish yoki kitob sovg’a qilish ularni so’z boyligini oshirish bilan bir qatorda xotirasi va tafakkurini o’stiradi. Bu o’rinda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2019-yil 20-martdagi “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 muhim tashabbusning 4-chisi “Kitobxonlikni keng targ’ib qilish”ni MTTdan boshlash zarurligini ta’kidlash lozim. Tarbiyachilar vazifasi bolalar uchun qiziqarli bo’lgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan ta’lim imkoniyatlarini ta’minlashdan iborat bo’lib qoladi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan o’zaro hamkorlikdagi ishlari ham muhim sanaladi.

Bunda:

- ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o’quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashdan iborat

Ko’rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo’lsak, uni oldinroq ham boshlash mumkin. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba’zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo’lganidek, uni qisqa muddat ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga kelishishga o’rgatish ham mushkul bir vazifadir. Bu borada, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining savodxonligi muhim sanaladi.

Shuni ta’kidlash lozimki tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta’lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining rivojlanishi esa, o’z ustida tinimsiz izlanishi, ta’lim-tarbiyani uyg’unlashtirgan holda yangiliklar yarata olish, xalq pedagogikasini

chuqur bilishi bilan xorij tajribasi yangiliklarini o'zlashtirib, o'z faoliyatini boyitib borishi va ularni amaliyotda qo'llay olishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'limning poydevori sanaladi. Poydevor mustahkam bo'lsa imorat uzoq yillar qad ko'tarib turadi. Shunday ekan kelajagimiz davomchisi bo'lgan yosh avlodga har tomonlama komil inson qilib, ta'lim- tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglamog'imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan.
2. Мактабгача ёшдаги болалар илк ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.
5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'z. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.

PEDAGOGIKA PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Azizova Shaxnoza Fahriddin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich (xorijiy til) ingliz tili yo'nalishi talabasi

Anatatsiya: Ushbu maqolada Pedagogika inson tarbiyasi, fan sifatida shakillanishi, tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi va boshqa fanlar bilan aloqasi, mazmuni to’g’risidagi fikr va mulohazalar.

SUBJECT, PURPOSE OF PEDAGOGY AND DUTIES

Azizova Shakhnoza is the daughter of Fakhriddin

Namangan state pedagogical institute

Preschool and elementary school (foreign language)

English language student

Annotation: In this article, Pedagogy is human education, its formation as a science, the fact that education is a social phenomenon, and its connection with other sciences.

ПРЕДМЕТ, ЦЕЛЬ ПЕДАГОГИКИ И ОБЯЗАННОСТИ

Азизова – Шахноза дочи Фахриддина.

Наманганский государственный педагогический институт

Дошкольная и начальная школа (иностраный язык)

студент английского языка

Аннотация: В данной статье Педагогика - это образование человека, его становление как науки, тот факт, что образование является социальным явлением, и его связь с другими науками.

Malumki pedagogika fani insonlarni yetakchi omiliga shug’ullantiradigan ilmiy va amaliy faoliyatlar tizimidir. Pedagogika darsliklarida bir qancha kitoblarda pedagogikaning baxsi (predmeti) turli darajalarda ta’rif berib tushuntirilgan. Pedagogika –inson tarbiyasi kattalar va yoshlarni ta’lim tarbiyasi to’g’risidagi fan. Ta’lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari,

mazmuni, turli xil usullar, darslarni tashkil etish shakllari haqida ma’lumotlar beruvchi fanga aylangan. Pedagogika so’zi grek tilidan olingan bo’lib (paydagogik) ya’ni (bola yetaklovchi) degan ma’no anglatadi. 18-asr oxiri 19-asr boshlarida vujudga kelgan. Pedagogika tarbiya xaqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini, qonunlarini ochishni inson manfaatlari uchun tarbiya jarayoniga ta’sir etishni nazarda tutadi. Demak pedagogika fani o’sib kelayotgan yosh avlodning aqliy salohiyatini oshirish, barkamol etib tarbiyalashda va o’z huquqlarini qonuniyatlarini amalga oshirish yo’llarini o’rgatuvchi fandir. Pedagogika fanini puxta, amaliy ham nazariy o’rganish lozimdir bu fanni rivojlantirish g’oyatda mashaqqatli kechadi. Ta’lim tarbiyadan ko’zlangan maqsadni bilish, yangi bilimlar berish bolalarni to’g’ri tarbiyalashdir. Bolalarni tarbiyalash g’oyatda nozik ishlardan biridir ya’ni o’quvchi va o’qituvchi bir biriga chambarchas bog’langan bolishi, bilimga to’g’ri yo’naltira olishi, har bir o’quvchi bilan ochiq muloqotda bo’lishi lozimdir. O’qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri o’quvchining psixologiyasini bilishi zarur. O’qituvchining beg’araz mehnati bolalarni sevish va ularga jon fido etish tarbiya samaradorligini oshiradi. Tarbiyalash g’oyatda nozik san’at bo’lib yosh pedagoglarimiz ushbu fanni chuqur va puxta o’rganishlari lozimdir.

Hozirgi kunda pedagogikani (mutaxassislikdan qat’iy nazar) o’rganishi lozim bo’lgan fandir, chunki insonlar hayoti davomida ta’lim tarbiya ishlari bilan ma’lum darajada shug’ullanishlari lozimdir. Pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo’lgan. Qadimda ham inson tarbiyasiga oid bo’lgan fikrlar, qarashlar, xalq maqollari va afsonalar o’z aksini topgan. Markaziy Osiyo allomalari (Ahmad Yassaviy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn-sino, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy kabi ma’rifatparvar ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya, inson kamoloti haqidagi g’oyalar, fikr va qarashlar yozilgan asarlarida batafsil bayonet berilgan. Chex pedagog olimi (Yan Amos Komenskiy) Pedagogikani fan sifatida shakillanishiga katta hissa qo’shgan. “Buyuk Didaktika” asari pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. 18-asdan boshlab O’rta Osiyoda ham Pedagogik fikrlar rivojlana

boshlagan. Asrimizning boshlarida vatandoshlarimizdan (M. Bexbudiy, H.H.Niyoziy, A.Avloniy, A.Fitrat, S.Siddiqiy, kabi ma’rifatparvar insonlar yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi maktablar tuzishda yangi darsliklar yaratishda, xalq o’rtasida ma’rifatni targ’ib etishda jonkuyarlik qilishdi. Hozirgi kunda pedagogikaning vazifasi (Milliy istiqlol g’oyalaridan) kelib chiqadigan ta’lim-tarbiya mazmuni, metodlar ishlab chiqarish milliy ta’lim tizimini yaratish va yosh avlodni bilmi, ma’naviy madaniyatini jahon andozalari darajasiga yetkazishdir. Pedagogika tabiat jamiyat inson tafakkuri umumiy qonuniyatlarini o’rganadigan falsafa fan tarkibidan ajralib fan sifatida taniladi. Hazirgi kunda inson faoliyati bilan qollanadigan fanlar juda ko’p. Pedagogikaning o’rganadigan fani bu inson, odam, bola, ta’lim va tarbiya shakllanishi haqida tadqiq etadi, fan sifatida qabul qilindi va rivojlanib bormoqda. Qadimgi davrda inson zotini qo’llab quvvatlashda va saqlab qolish ehtiyojida kelib chiqqan holda tarbiyalash jarayoni avvalo ijtimoiy-tarixiy tajriba jarayonida va to’planayotgan ijtimoiy tajribani bir-birining o’rniga kelib turadigan avlodlarga yetkazib beradi. Yangi avlodlar o’zidan avvalgi yashab o’tgan ajdodning turmushidagi tajribasini (fan, san’at, axloq, xulq, atvor sohalarini o’zlashtirib boyita boradi. Bu haqda buyuk alloma (Abu Rayxon Beruniy “Jamlangan tajribani har bir avlod o’zidan keying kelayotgan, o’zidan keyin taraqqiy etib rivojlantiradigan, boyitadigan bilim va yo’nalishlarni keying avlodga yetkazib beradi, deb o’rinli ta’kidlagan. Ma’lumki mustaqillik davrida vujudga kelgan ma’naviy-ma’rifiy va ta’lim sohasidagi yangilanish markazida milliy go’ya, milliy mafkura, kadrlar tayorlash milliy modeli va milliy tarbiya asosiy o’rinni egallaydi. O’zbekistan Respublikasining birinchi Prezidenti o’zining “jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin” asarida g’oya, mafkura, milliy g’oya, milliy mafkura, har kungi hayot sharoitlaridan kelib chiqishlari bilan birga har bir fuqoroning, davlatning, millatning, istiqbolidan, kelib chiqishidan ko’rsatdi. Ma’lumki goya – insonlarga kuchli ruxiy ta’sir ko’rsatuvchi, ularni harakatga keltiruvchi fikrdir. Fikr inson miyasining mahsuli. U yoki bu pedagogik kansepsiyalar

ta’limotlarini tavsiflaganda pedagogik fikr rivojlanishini kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixi bilan uzviy aloqada davom etish lozim. Shuning uchun pedagogik fikrlar g’oyalar rivojining tarixi xamda ta’lim tarbiyani hozirgi zamon ta’lim tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirishning natijasi, mahsuli orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchan, kuchli, irodali, ishchan, g’oyaviy e’tiqodli, ma’naviyati yuksak pok vijdonli shaxsni kamol ta’limotlashdan iboratdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “aql zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo’ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi” -degan fikri zamonaviy ta’lim kansepsiyalarini asosida ta’lim tarbiya jarayonini yuksaltirish, milliy g’oyani ro’yobga chiqaradigan barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan ekanligini ko’rsatadi. Hozirgi zamon pedagogik fikrlar va ta’lim-tarbiya kansepsiyasi haqida so’z yuritadigan bo’lsak, u yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda, bu “Ta’lim to’g’risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da (1997-yil 29-avgust) ko’rsatib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul bo‘lishiga qator omillar sabab bo‘ldi; birinchidan biz yashayotgan muhitda, ya’ni mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ijtimoiy tuzumda o‘zgarish bo‘lsa, ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka bo‘lgan munosabat o‘zgardi, uchinchidan, eski mafkuraviy qarashlar yangi sharoitga javob bermay qoydi, to‘rtinchidan, ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilishni, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga his-tuyg‘ularini singdirib, ularni har tomonlama barkamol, c huqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etdi. Ma’lumki ta’lim to‘g‘risidagi qonun 5ta bo‘lim, 34 moddadan iborat. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarida; ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinadi, demak, ta’lim-tarbiya ishlari davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, bo‘lajak o‘qituvchilarning faoliyatida kreativlik, innavatsion yondashuv, kasbiy va umumiy kompetentlik muhim o‘rin tutadi. Har bir pedagog qanday qobiliyatlarga ega bo‘lishi, kamunikativligi, tashkilotchilik malakalarini egallashda pedagog faoliyati muhim kasb etadi. Albatta shuni ham aytish zarurki o‘qituvchilarning o‘quv davri mobaynida egallagan kasbiy ko‘nikma va malakalarni qo‘llash uchun qulay fursat pedagogik faoliyat hisoblanadi. O‘qituvchining dars o‘tish texnikasi, va aqliy darajasi yetarli bo‘lishi lozim. Har darsda foydalanishi va muvoffaqiyatli yekunlanishi, bolalarni to‘g‘ri tarbiyalamog‘i lozimdir.

MUSIQA PEDAGOGIKASI FANINING TALABANING MUSTAQIL TA’LIM OLISH JARAYONIDAGI O’RNI

Toshmatov G‘ulomjon Olimjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti,

*Amaliy, jismoniy tarbiya va sport fanlarini o’qitish
metodikasi kafedrası o’qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda musiqa ta’limi va tarbiyasi sohasini rivojlanishida musiqa pedagogikasi fanining asosiy maqsad va vazifalari hamda talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonidagi fanning o’rni, va ahamiyati, haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Pedagogika, Musiqa pedagogikasi, tarbiya, ta’lim, ma’lumot, rivojlanish, ruhiy tayyorgarlik, mustaqil tarbiya, mustaqil ta’lim, bilim, ko’nikma, malaka, pedagogik mahorat, didaktika.

Аннотация: В статье представлены сведения об основных целях и задачах науки музыкальной педагогики в развитии сферы музыкального образования и обучения в нашей стране, а также о роли и значении науки в процессе самостоятельного образования детей. студенты.

Ключевые слова: Педагогика, Музыкальная педагогика, воспитание, образование, информация, развитие, психическая подготовка, самостоятельное образование, самостоятельное образование, знания, умения, компетентность, педагогическое мастерство, дидактика.

Abstract: The article provides information about the main goals and tasks of the science of music pedagogy in the development of the field of music education and training in our country, as well as the role and importance of the science in the process of independent education of students.

Key words: Pedagogy, Music pedagogy, upbringing, education, information, development, mental preparation, independent education, independent education, knowledge, skills, competence, pedagogical skills, didactics.

XXI asrda mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy sohalarda bo’lgani kabi musiqa ta’limi sohasida ham islohotlar tobora keng quloq yoydi. Hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida ham hukumat tomonidan har qachongidek e’tibor yanada kuchaytirildi. Xalqimizning tarixi, o’tmish madaniyatimiz va ma’naviyatimizni qayta tiklash,

merosimizni yanada boyitish borasidagi harakatlar, yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga berilayotgan katta e'tibor, ayniqsa, kadrlar tayyorlash borasidagi tub o'zgarishlar shular jumlasidandir. Bu kabi ishlarni amalga oshirishdan maqsad mamlakatimizning dunyo jamiyati orasida o'z o'rne va mavqeini tarkib toptirish, O'zbekistonning o'z qadr-qimmatini va uning dunyo madaniyati va sivilizatsiyasida qilgan xizmatini, o'z o'rnini belgilashdan iboratdir. Albatta, har qanday mamlakatning unda yashayotgan halqlarning o'qimishlilik, bilimdonlik saviyasi uning ma'naviy-mafkuraviy darajasiga bog'liq. Bu borada mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning "Kelajigi buyuk davlat eng birinchi navbatda bo'lajak fuqarolarining madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur" degan fikrlari aynan yuqoridagi fikrimizning tasdig'idir.

Mamlakatimizda musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasini rivojlantirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazavvordir. Ko'rinib turibdiki musiqa sohasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi har qachongidan ham ahamiyat kasb etmoqda. Bunda albatta Musiqa pedagogikasi fanining ahamiyati katta. Shu bois ham mazkur sohada tayyorlanayotgan kadrlarning oldiga qo'yiladigan talablar ham oshib bormoqda. Bugungi musiqa pedagogi faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lmasdan, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson, o'z bilimi, namunali xulqi va odobi bilan ta'lim va tarbiya bera oladigan pedagog bo'lishi zarur.

Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrida odamlar tabiat inom etgan tayyor mahsulotlardan juda unumli foydalanishgan. Dastlab, turli meva va sabzavotlarni iste'mol qilib kun ko'rishgan bo'lsada, keyinchalik go'sht mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyoji ortib bordi. Bu yashash uchun kurash odamlarga ovchilik, keyinchalik esa dehqonchilik, chorvachilik, undan keyin esa hunarmandchilikning turli-tuman ko'rinishlarini rivojlanishiga olib keldi. Mazkur rivojlanishlar odamlarning mehnat tajribasini shakllantirdi, rivojlantirdi. Oxir-oqibat ularning kundalik hayotiga aylanib qoldi. Odamlar mehnat tufayli o'zlarining orzu va

istaklariga erishdi. Mehnat faoliyati borgan sari murakkablasha borib, odamlarning aqlan rivojlanishiga olib keldi. Endi ular asta-sekin shaxs sifatida shakllana bordi. Bora-bora kishilik jamiyatining rivojlantirishni yangi-yangi qirralarini zabt etib, ularning hayotiga muhim rol o'ynay boshladi. Insoniyat o'ziga yangi-yangi an'ana va amal qilishi lozim bo'lgan kundalik odatiy faoliyatni – tarbiyani tarkib toptirdi. Bu o'z o'rnida mehnat tufayli yuzaga keldi. Mehnat esa odamlarning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatib, tarbiyani hayotiy zaruriyat qilib qo'ydi. Odamlarning bu mehnat ko'nikmalari uning yosh avlodiga meros qoldi. Endi tarbiya mehnat faoliyatining, mehnat tajribasining mahsuliga bevosita bog'liq bo'lib qoldi. Odamlarning hayotiy tajriba ortirishida yana bir faoliyat ta'lim muhim rol o'ynay boshladi. U turli bilim va ko'nikmalarni ta'lim jarayonida amalga oshirib, shu tariqa ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o'rgatish ehtiyojini sezdi va o'zini faravon hayoti uchun amalga oshirib keldi. Tajribalarning to'planishi natijasida ta'lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida ma'lum bilimlar majmui paydo bo'ldi va u kun sayin to'planib boyib bordi.

Oldiniga bola tarbiyasi kattalar tomonidan bevosita mehnat faoliyatida amalga oshirilgan bo'lsa, jamiyat rivojlana borgan sari bunday yo'l talabga javob bermay qo'ydi. Endi tarbiya bilan bilimdon, tajribasi yetarli zamonasining donishmand odamlari shug'ullana boshladi. Ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilar kasb-hunar homiylari sifatida ajralib chiqib boshladilar. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi. Mashg'ulotlar tobora tashkiliy shakllarga, ko'rinishlarga ega bo'lib bordi. Shu asnoda dastlabki maktab ko'rinishidagi muassasalar vujudga keldi, taraqqiy etdi. Shunday qilib, pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqidagi ma'lumot beruvchi fanga aylandi.

"Pedagogika" atamasi haqida ko'pgina manbalarda ma'lumot berilgan. Pedagogika - qadimgi yunon tilidan kirib kelgan bo'lib, bola yetaklovchi mazmunini

bildiradi. Eramizdan olding III-I asrlarda qadimgi Yunonistonda quldorlarning bolasini ovqatlantiradigan, sayr qildiradigan, maktabga olib boradigan va qaytarib eson-omon olib keladigan tarbiyachi - qullar "pedagog"lar deb atalgan.

Kishilik jamiyatida ta'lim va tarbiyaning roli va o'rne tobora oshib borgani sari odamlar ongida bu tushunchaga bo'lgan ehtiyoj va talab kun sayin oshib bordi. Natijada bu atama xususida odamlarning qarashlari ijobiy tomonga o'zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko'rgan va ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanadigan shaxslar "pedagog" deb atala boshladi. Ko'p vaqtlar mobaynida pedagogika fan sifatida faqat o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o'rganadi, deb qarab kelindi. Ammo hayot amaliyoti tarbiyaning umumiy prinsiplari faqat bolalar tarbiyasiga emas, balki katta yoshdagilar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikaga yosh avlod va katta yoshdagi odamlarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida qaraldi. Bu ayni haqiqat.

Bugungi kunda kelib, pedagogika alohida fan sifatida taraqqiy etgan bo'lib, o'zining bir necha mustaqil tarmoqlariga ega bo'ladi. Jumladan, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, umumiy ta'lim pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, pedagogika tarixi, kasb pedagogikasi, maxsus pedagogika - defektologiya (surdopedagogika - kar va soqov bolalarni o'qitish va tarbiyalash, tiflopedagogika - ko'zi ojiz bolalarni o'qitish, oligofrenopedagogika - aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash, logopediya - nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarni o'qitish), Musiqa pedagogikasi - musiqa sohasi pedagoglarini o'qitish va kasbiy qayta tayyorlash tayyorlash va boshqalar.

Hozirgi kunda "Musiqa pedagogikasi" fanning alohida tarmog'i sifatida boshqa fanlar bilan hamkorlikda taraqqiy etib kelmoqda. Musiqa pedagogikasi o'sib kelayotgan yoshlarga va musiqa ta'limi sohasi mutaxassislariga, katta va kichik guruhli ansamblarga yuksak ma'naviy, axloqiy va estetik xislatlarni, musiqa ijrochilik mahoratini shakllantirish, aqliy va ijodkorlik iqtidor kuchlarini rivojlantirish, m'naviy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida taraqqiy etib kelmoqda.

Musiqqa pedagogikasining ob'ekti - musiqqa sohasida malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonidan iborat. Uning predmeti (mazmuni) sifatida yosh avlodni jismonan sog'lom va baqquvat, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi jarayonining pedagogik qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Boshqa fanlari qat'ori musiqqa pedagogikasi fanining ham o'ziga xos asosiy tushunchalari mavjud bo'lib, ular musiqqa pedagogikasi tili nuqtai nazaridan quyidagilar hisoblanadi;

Ta'lim - maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'quvchi yoshlarni musiqiy qobiliyatini shakllantirish, o'stirish, rivojlantirish va ruhan, ma'naviy va ma'rifiy xislatlarini tarbiyalash uchun, kelajakda malakali mutaxassis kadr sifatida zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan maqsadli va belgilangan tizim asosida qurollantirish jarayonidir.

Tarbiya - ilmiy dunyoqarash, ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar, ahloqiy munosabatlar, jismoniy va kasbiy xislatlar, borliqqa estetik munosabat, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, musiqqa tinglash, musiqqa savodi, biror bir cholg'u asbobda ijrochilik mahoratini oshirish maqsadida o'quvchi yoshlarning ongi, ruhiyati, irodasiga maqsadli, belgilangan tizim asosida to'g'ri pedagogik ta'sir ko'rsatishdir.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida egallangan va tizimga solingan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda yuksak saviyada shakllangan dunyoqarashlar majmui bo'lib, musiqqa ta'limi asosida yuksak ijrochilik (kuylash, cholg'u asbobida chalish) mahoratini egallashdir.

Rivojlanish - o'quvchi yoshlarning aqliy va musiqiy ijodkorlik imkoniyatlarining bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar xususiyatlari va musiqqa xizmat sharoitlariga muvofiq maqsadli takomillashuvi jarayonidir.

Ruhiy tayyorgarlik – musiqqa ijrochisi o'z oldiga qo'yg'an maqsadga erishish yo'lida o'z kuchini, irodasini, jasoratini, tafakurini tayyorlashi. O'z oldiga qo'yg'an maqsadga erishish yo'lida turli sharoitlarda belgilangan vazifalarni ado etish uchun o'zining doimiy ichki tayyorligi va yuksak hissiy-irodaviy turg'unligini ta'minlash bo'yicha maqsadli ravishda unda ruhiy xislatlarni shakllantirish jarayonidir.

Mustaqil tarbiya – o'quvchi yoshlarning musiqiy ijrochilik tayyorgarligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli ado etishi uchun zarur bo'lgan xislatlarni o'zida shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan maqsadli, ongli mustaqil faoliyatidir. Yoki boshqacha qilib aytganda mustaqil ta'lim bo'lajak mutaxassis kadrlarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari, chuqurlashtirishlari va takomillashtirishlari yuzasidan maqsadli mustaqil ishi yoki ta'lim olishidir.

Bilim - borliq, voqea va hodisalar, musiqiy ijodkorlik va ijrochilik qobiliyatlari, ularning o'zaro aloqa va munosabatlarining inson ongida namoyon bo'lishidir.

Ko'nikma - ish-harakatlarning puxta egallaganligi, avtomatlashgan tarzda bajarilishidir.

Malaka - ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarning o'z vazifalarini yuksak tarzda bajarishi hamda ularning egallagan bilim va ko'nikmalaridan, ish tajribalaridan samarali foydalanishda, shuningdek, yangi va turli sharoitlarda to'g'ri va oqilona qo'llay olishidir.

Bugungi kunda musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash va o'quvchi yoshlar va tarbiyachilarnuvchilarning musiqiy-pedagogik bilimlari darajasiga qo'yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida Musiqa pedagogikasi fanining vazifalar doirasini kengayishiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, Musiqa pedagogikasi fani o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- musiqa pedagogikasi jarayonining mohiyati, xususiyatlari va qonuniyatlarini, uning tarkibiy qismlari bo'lmish ta'lim, tarbiya, ruhiy ijodkorlik, ijrochilik mahorati, mustaqil ijrochilik mahoratini oshirish, mustaqil ta'lim olish jarayonlarini o'rganish;
- jamiyatda va ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar asosida musiqa faoliyatini rivojlanishi va takomillashuvi, shuningdek, ularning ijtimoiy bo'g'inning barcha jabhalariga kirib borish ta'lim va tarbiya prinsiplarini aniqlash;

- musiqa pedagogikasining shakllarini tarkib toptirish, metodlarini rivojlantirib, zamon talablari asosida takomillashtirish;
 - turli toifadagi musiqa ijrochilari bilan har xil sharoitlarda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta’lim va tarbiya prinsiplari talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirish;
 - musiqa janrlarining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta’lim va tarbiya metodlari tizimini ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;
 - ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish shakllarini takomillashtirish, rivolantirish, musiqa ijrochisi va uning musiqa jamoalari orasida ta’lim va tarbiya darajasini aniqlash, tekshirish hamda baholashning samarali yo’llarini tadqiq qilish;
 - musiqa pedagogik jarayonning rivojini ta’minlovchi uslubiy ta’minotni yaratish va uni davr talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish;
 - didaktik tadqiqotlarning markaziy muammosi sifatida o’quvchi yoshlarning bilish faoliyatini faollashtirish, alohida olingan musiqa ijrochi jamoalarning yuksak professional ijrochilik darajasiga ega bo’lish yo’llarini, usullarini, vositalarini izlash hamda amaliyotda qo’llash;
 - musiqa ijrochilarining o’ziga xos xususiyatlarini, mahoratini o’rganish va ta’lim-tarbiya jarayonida ularni hisobga olish;
 - musiqa ijrochilarning musiqiy mahorat intizomini va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma’naviy-axloqiy kamolotga erishish yo’llarini o’rgatishni izlab topish;
 - mohir musiqa ijrochilari va musiqa jamoalar o’rtasida musobaqa tashkil etishning pedagogik shartlarini aniqlash;
 - musiqa ijrochilarini jamoaviy birlikda jipslashtirish, unda intizom talablariga xos o’zaro munosabatlarni, sog’lom ruhiy muhit va ijtimoiy fikrni shakllantirish metodlarini o’rganish va uni amaliyotda qo’llay olish;
- Musiqa ijodiyotida ijrochilarni tarbiyalashda ularga rahbarlik, o’qituvchilik va ustozlik qilish faoliyatidan kelib chiqib, musiqa pedagogikasi fani uchun quyidagi asosiy vazifalar ham muhim o’rin egallaydi:

- musiqa-pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilarning o'rnini aniqlash;
- o'quvchi-yoshlarda pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni shakllantirish yo'llarini izlab topish hamda ularga ta'lim va tarbiya berish mazmuni va uslublarini tushuntirish;
- ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish, musiqa-pedagogiksi bo'yicha tadqiqotlar olib borish uslublarini ishlab chiqish.

Musiqa pedagogi oldida turgan vazifalardan eng muhimlaridan biri bu mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamalashda, uning bunyodkorlik mehnati va tinch hayotini ta'minlashda, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularni sog'lom va baquvvat, ma'naviy va axloqiy pok bo'lishi, yuqori malakali mutaxassis sifatida yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan musiqa kadrlarini tayyorlashdan iboratdir. Bu ishni amalga oshirishda boshqa fanlar qatori Musiqa pedagogikasining ham xizmati beqiyosdir. Chunki, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda zamon talablariga javob beradigan musiqa ta'limi mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim olish jarayonida mustaqil ishlashni oz-ozdan boshlab, muntazam ravishda ko'paytirib borish lozim. Ma'lum bir me'yorda ish bajarish odamni charchatmaydi va faoliyatning turg'unligini ta'minlaydi. Rejalashtirilgan va amalga oshirish yo'llarining belgilab olinishi tashkilotchilik qobiliyatini uyg'otadi, iroda, sabot-matonat, ijodiy fikrlash, mustaqillik kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Kundalik hayotda vaqtni to'g'ri taqsimlash va mustaqil ishlashni oqilona tashkil etish, mustaqil ishlashning forma va metodlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa pedagogikasida fani mustaqil ta'lim olish va mustaqil ishlashni namunali tashkil qilish uchun ko'p ilmiy-nazariy materiallarni o'zlashtirish, bilimdon bo'lish va yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 y. PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. “Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish” Metodik qo’llanma. Toshkent 2023.
3. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tashkilotlarida ECTS kredit modul tizimi Asosiy tushunchalar va qoidalar V. O’rinov, M. Sultonov, A.Umarov Toshkent: “Ma’naviyat”, 2020. 96 bet.
4. Sh.I.Yo’ldashev. Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy o’quv jarayonida ahamiyati va o’rni. Uslubiy qo’llanma. T.: O’zMU, 2022. — 41 b.
5. D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim. Uslubiy qo’llanma. Toshkent: OOO “Complex Print”, 2021. 126 bet.
6. N.O.Jo’raeva. Ta’lim jarayonida mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etish bo’yicha ayrim ko’rsatmalar Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021. 172 b.
7. International Journal of Formal Education Volume: 2 Issue: 6 | June – 2023 ISSN: 2720-6874 <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe> Musiqiy ta’lim jarayonida talabalar mustaqil ishlarining o’rni va ahamiyati.
8. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> 1 ISSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 9, September, 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699 Oliy ta’lim jarayonida ECTS kredit-modul tizimi va uning joriy etish faoliyati - Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process.

MAXSUS PEDAGOGIKA:

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING INKLYUZIV KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Kuchkarova Nilufar Tajimatovna

*Namangan davlat pedagogika instituti Ta’lim tarbiya nazariyasi metodikasi
(maktabgacha ta’lim) yo’nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarning inklyuziv kompetentsiyasini takomillashtirish haqida yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Inklyuziv ta’lim, tarbiyalanuvchilar, MTT tarbiyachisi.

Annotation: preschool educational organizations are covered about improving the inclusive competence of educators.

Keywords: inclusive education, educators, MTT educator.

Аннотация: дошкольные образовательные организации освещают вопросы совершенствования инклюзивной компетентности воспитателей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагоги, MTT educator.

Inklyuziv ta’lim. Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak.

UNICEF inklyuziv ta’limni O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga

o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat.

Har qanday yangilik kabi, inklyuziv ta’limda ham yuqori sifatli natijalarga erishish uchun ta’lim munosabatlari ishtirokchilari tomonidan maxsus malaka va shu bilan birga ijodiy yondashuv talab qilinadi. Avvalo, maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati pedagog tarbiyachilarning inklyuziv ta’lim muammolarini hal qilishga tayyorgarlik darajasiga, psixolog, pedagog-tarbiyachi defektologlarning mavjudligiga, shuningdek, ota-onalar va MTT pedagoglari o’rtasidagi hamkorlikning to’g’ri yo’lga qo’yilganligiga bog’liq bo’ladi. Shularni inobatga oladigan bo’lsak, mamlakatimizdagi MTT pedagog-tarbiyachilarining inklyuziv kompetensiyasini takomillashtirish dalzarb muammo hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundan iboratki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlardan oq sog’lom bolalar qatoriga qo’shib sifatli ta’lim olishini ta’minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Inklyuziv ta’limni shakllantirish tamoyilining mazmuni shundaki, o’quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo’lishi kerak. Bolaning maxsus ta’limga bo’lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak hisoblanadi. Ma’lumki inklyuziv ta’limda maxsus ta’lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma’lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiradi. Maxsus ta’lim o’qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o’qitilsa, inklyuziv ta’lim bolaga yo’naltirilgan va moslashtirilgan, yo’riqnomali, barchaga mo’ljallangan o’quv dasturi asosida o’qitiladi. Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo’lagi bo’lish huquqiga ega ekanligini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. 2020-yil oktabr oyida qabul qilingan Prezidentimizning “alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” gi qarori bunga yaqqol misol buladi.unga ko’ra tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va

Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim joriy qilinadi.

MTT tarbiyachisining inklyuziv kompetensiyasi borasida dunyoning ko’plab olimlari tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Xorijlik olimlardan N.S. Demakova, A.A. Dmitriev, N.M. Nazarovalar inklyuziv ta’lim tarixi borasidagi tadqiqotlarida ushbu ta’lim dastlab Germaniyada qo’llanilganligi va undagi muvaffaqiyatlar asoslab berilgan bo’lsa, X. Daniels, S. Zemelman, A. Xidlarning tadqiqotlarida ommaviy inklyuziv ta’limni rivojlantirish an’analari va qonuniyatlari haqidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Ushbu yo’nalishning amaliyotga tatbiqi va inklyuziv ta’limni amalga oshirish metod va usullari yuzasidan N.N.Malofeev, N.M.Nazarova, N.D. Shmatkovalarning ilmiymetodik izlanishlari diqqatga sazovordir. A.D. Barbitova, B.V. Belyavskiy, E.N. Jukovaqalarning ilmiy asarlarida integratsiyaga asoslangan inklyuziv ta’limning asosiy yo’nalishlari va nogiron bolalar bilan pedagogik munosabatlarni farqlashda individual xususiyatlarni hisobga olgan holda sog’liqni saqlash masalalari hamda inklyuziv ta’lim jarayoni qonun-qoidalarini ishlab chiqilgan⁶. Pastorova, E.E. Petrova, A.S. Suntsovalar inklyuziv ta’limni tashkil etishning umumiy modellari va nogiron bolalarning rivojlanish jarayonini tahlil qilganlar. Tahlil qilayotganda ilmiy ta’limot mazmuniga doir turli modellari L.I.Aksenova, A.V. Butenko, B.V.Puzanovlar tomonidan ham ishlab chiqilgan bo’lib, bu modellarda nogiron bolalarning integratsiyalashuviga yordam berish masalalari tahlil qilingan. M.V.Boguslavskiy, G.B. Kornetova, I.D. Lelchitskiy, Z.I. Ravkinlarning pedagogika tarixiga oid asarlarida hamda S.F. Egorovanning monografiyasida inklyuziv ta’lim tarmoqlari va ularni shakllantirish, rivojlantirish jarayonlari ko’rsatib o’tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori PQ-4312 13.10.2019

- 2.D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o’quv va metodik qo’llanma 2014-yil
3. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
4. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.

BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH VA UNING TURLARI

Usmonova Laylo Zafar qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

E-mail: zafar.zafarturayev1979@gmail.com Tel: +998-97-699-30-35

Annotatsiya: Mazkur maqolada boalarga psixologik yordam ko‘rsatish va ularni ruxiy xolatdan qanday qilib olib chiqish yo‘llari haqida, psixologik yordam turlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘z: psixolog, makataba, psixologik yordam, psixayerapiya, psixologik maslahat.

Аннотация: В данной статье представлена информация о способах оказания психологической помощи удавам и о том, как вывести их из психического состояния, о видах психологической помощи.

Ключевое слово: психолог, макатаба, психологическая помощь, психотерапия, психологическое консультирование.

Annotation: this article provides information about ways to provide psychological assistance to boas and how to get them out of the state of Roxy, about the types of psychological assistance.

Keyword: psychologist, macataba, psychological help, psychotherapy, psychological counseling.

Bugungi kunda har bir sohada psixologning yordami va ko'nikmasi juda ham zarur bo'lmoqda.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan.

Ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasalar, maktab, universitetlar va institutlarida hattoki ofislar do'konlarga ham psixologlar ishga olinmoqda.[1]

Psixologik yordam — bu psixologiyaning amaliy qo'llanilishi sohasi bo'lib, u odamlarning ijtimoiy psixologik kompetentsiyasini oshirishga va shaxsga ham, guruhga yoki tashkilotga psixologik yordam ko'rsatishga qaratilgan. Bu shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar bilan bog'liq turli xil psixologik muammolarni, shuningdek, chuqur shaxsiy muammolarni hal qilishga qaratilgan odamlar bilan bevosita ishlash.

PSIXOLOGIK YORDAM TURLARI

- Psixoprofilaktika (ogohlantirish).
- Psixologik ta'lim (maslahatda, psixoprofilaktikada — ma'ruzalar, seminarlar).
- Psixodiagnostika (muammolarni aniqlash va boshqalar) psixologik ko'rsatkichlar).
- Psixologik maslahat (moslashuv, rivojlanish va shaxsiy potentsialni kengaytirishda psixologik norma doirasida bo'lgan odamlarga psixologik yordam).
- Psixoterapiya (chuqur shaxsiy muammolarni hal qilishga va shaxsni chuqur o'zgartirishga qaratilgan) klinik va klinik bo'lmagan bo'lishi mumkin.
- Psixiatriya (yordamning tibbiy shakli, dori vositalaridan foydalanish yoki insonni bemor sifatida emas, balki boshqa dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs deb hisoblaydigan, dori vositalaridan cheklangan darajada foydalanadi, shuning uchun psixoterapevtik yo'ldan boradi).
- Psixokorreksiya (emotsional holat nuqtai nazaridan ham, shaxsiy xususiyatlar nuqtai nazaridan ham normani tiklash).
- Psixologik yordam — bu mijozga psixologik muammolarni mustaqil ravishda hal qilish imkonini beradigan va yordam beradigan o'ziga xos o'zaro ta'sir.

Shuningdek, psixologik yordam turlarini quyidagilarga bo‘lish mumkin: psixologik maslahat; psixologik tuzatish; inqirozga aralashuv; psixologik reabilitatsiya; psixologik trening, psixoterapiya; Psixologik yordam turlarini qat’iy ravishda suv istemol qilish mumkin emas. Kesishadigan joylar mavjud. [2]

Mezon — kim yordam beradi (ta’limdagi farq), mutaxassis mijoz yoki bemor bilan kim ishlaydi (moslashish – bu me’yor mezon), nima yordam beradi (dorilar, psixoterapevtik, maslahat usullari).[3]

Psixolog yordami bog‘cha yoshidagi bolalarga, o‘quvchi va talabalarga ham juda zarur bo‘lgan yordamdir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolani qanday holatda ekaniga qarab unga muamla qilishi tushgun kayfiyatda bo‘lsa uni shu holatdan olib chiqish yo‘llari bilan shug‘ullanilmoqda, maktabga kelayotganda o‘quvchini psixolog ishik oldida turib o‘quvchi qay holatda ekanini bilib u bilan shug‘ullanadilar, chunki bolani uyida yoki boshqa o‘zini shaxsiy qanaqadir muammosi bo‘lsa u shu muammo kunini bilan o‘ralashib qoladi, psixolog esa uni shu holatdan olib chiqishga harakat qiladi. Oliy ta’lim muassasida ham albatta talaba bilan psixologning uchrashuvi ro‘y beradi. Talabada har xil holat bo‘ldi, bu holat esa albatta o‘qish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qish vaqtida psixolog va talabani o‘zaro suxbat jarayonlari ko‘zatiladi. Bu jarayonda psixolog talabaga o‘zing psixologik yordamini ko‘rsatadi, bolani tushkun xolatdan chiqarib ketishga xarakat qiladi, bunga bitta psixolog emas o’sha talabani o‘zi ham albatta kurashishi kerak bo‘ladi.

Masalan, Oliy ta’lim muassasalarida birida psixologning talabani o‘zgartirgani misol bo‘la oladi. Bizni institutimizda bitta qiz bor edi. Lekin u qizni o‘zini juda ham muammolari ko‘p edi oilaviy va shaxsiy muammo edi. Bu qizaloq odamlarga qo‘ldan kelgancha yaxshilik qilishga intilar edi, lekin har doim qilgan yaxshiligi uni qalbini juda ham parchalar odamlar unga ba’zan shunaqangi azob berib qo‘yar ediki u qiz bunga o‘rganib qolgan edi. Odamlarga kulib turgani bilan qalban yig‘ar edi, insonlariga soxta kulishdan charchamas edi. Ichidagi dardlarini hech kimga aytsam o‘zi qobigiga o‘zi o‘ralgan edi. O’sha muammolarni o‘ylagan sayin u muammoni uni tark etmas edi. O‘zi ham bilar edi bir kunmas bir kun

kingadir aytishini. O'qishga kirib ham bu muammo u qizni tar etmadi. O'z muammolariga o'zi o'ralgan qizini oxiri hamma narsani kimgadir aytishga u muammoni echimini topish uchun psixolog yordamiga juda muxtoj bo'lib psixologga o'chradi. U qizaloq psixologga hayotida nima bo'lgan bo'lsa hammasini aytishga juda ham majbur edi, chunki uni xotiralar kun sayin ezib borar va o'z qobig'iga o'zi o'ralashib borardi. U qizaloqni psixolog hammasini ishirdi va unga yordam berishni boshladi. U qizga avvalo shu muammolarni o'ylamaslik aga qancha ushalarni o'ylasa ular u tomonga kelishini aytdi va o'zini psixologik yordamini ayamadi u qizdan. U qizaloqni psixolog eng yaqin insoniday yordam berar qizaloq esa muammolarni unutishga qiynalar edi, har doim u qiz bilan psixolog shug'ullanib boraverdi, qizaloq ham hayotga bo'lgan qarashi sekin asta o'zgarib bordi va hamma narsani yaxshi taraflarini o'ylaydigan bo'ldi. Psixologning tinimsiz izlanishlari va u qizga psixologik trening va seminarlarni, har xil psixologik mashqlarni bajarar edi. Shu tariqa sekin asta qizaloqda o'zgarish ro'y bera boshladi shu tariqa ikki oylik psixolog yordami bilan qizaloq yaxshi tarafga o'zgaridi, o'z o'stida o'zi ishlay boshladi shu ikki oy ichida qizaloq shunaqangi o'zgardiki hamma hayron va ba'zilar ishonmadilar ham lekin u qizaloq rostdan ham o'zgardi. Qizaloqni hozirgi kunda maqola va ilmiy ishlari ham institutda keng tarqalgan desa ham bo'ladi. Bugungi kunda 2-kurs talabasi usha qiz ham o'qib ham ishlab o'zini o'stida bilim, malaka, ko'nikmasini oshirib bormoqda. Albatta shu qizaloqni shu darajaga etib kelishiga psixologni xizmati juda ham katta agar shu paytda psixolog unga yordam qo'lini chuzmaganda u qiz o'zini qobig'iga o'zi o'ralab bu hayotda faqat tushkunlik bilan yashar ekan. Shu qiz shunday tariflaydiki „ Agar manga Namagan davlat pedagogika instituti psixologi Nazira Dadaboyeva psixologik yordam bermaganda man shu darajada bo'lmas edim va hayotni go'zalligini bilmagan bo'lar ekanman" deya javob berdi. Ustoziga shunday dedi har bir qilgan mehnatizni oqlayman va bundanda ulug' inson bo'lishga harakat qilaman deya aytadi. Mana bir insonni hayotga qarashini o'zgartirishga psixolog juda ham katta ta'sir ko'rsatdi. Har bir shunday holatdagi insonga psixolog yordam albatta zarur bo'ladi. Insonni o'zgaroshiga man bitta inson

sababchi bo‘ladi. Har bir insonni qo‘lidan kelar ekan insonlarni hayotdan zavqli yaxshi uchun yordam qo‘lini cho‘zaylik. Man har joyda psixolik yordami kerka bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent-2009
2. Л.М. Мардахаев. Сотсиональная педагогика Москва, “Просвещение”,2006
3. Ф.А.Мустафаева, Сотсиональная педагогика Москва, “Просвещение”,2003
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Psixologik_yordam
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Psixologiya>

MAXSUS PEDAGOGIKA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O‘QITISH VA TARBIYALASHDA MAXSUS PEDAGOGLARNING O‘RNI

Karimova Muxtasar Alisher qizi

Pedagogika Fakulteti maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Ilmiy Rahbar: Siddiqov Azamat Muhammadjon o‘g‘li

Namangan Davlat Pedagogika Instituti o‘qituvchisi.

Annotatsiya:*Ushbu maqolada maxsus pedagogika (Defektalogiya) fanining tarixi, maqsadi, fanning predmeti, vazifalari, ularning kelib chiqish sabablari va tarmoqlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar:*Korreksiya, nuqsoni bo‘lgan bolalar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy adaptatsiya, kompentatsiya, integratsiyalashgan inklyuziv ta’lim tushunchasi, integratsiya, jismoniy integratsiya, ijtimoiy integratsiya, ulgurmuvchi o‘quvchilar.*

Davlatimiz kelajagi bugungi kun yoshlaridir. Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar, amalga oshirilayotgan dasturlarning barchasida yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga

qaratilmoqda. Kelajagimiz egalari har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib rivojlanishida hukumatimiz tomonidan “Ta’lim to’g’risidagi qonun” qabul qilinishi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Maxsus ta’lim konsepsiyasi”, ular asosida vujudga kelgan “Bolajon” tayanch dasturi fikrimiz dalilidir.

Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda ma'suliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ko'payishiga ham sabab bo'ladi. Bu sayyoramiz aholisining birdan o'n qismini tashkil etadi. Umumjahon sog'liqni saqlash tashkilotlari ma'lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13%ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi bo'lgan bolalar, 10% turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir. Mustaqil O'zbekistonimizda nogironlar bolalikdan ijtimoiy himoya qilib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, unga muvofiq ravishda qurilayotgan yuzlab bolalar bog'chalari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, yoshlar muassasalari aynan sog'lom avlod va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgandir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim samaradorligiga erishish ustuvor vazifa qilib qo'yilmoqda. Uzluksiz ta'limni amalga oshiishga qaratilgan davlat hujjatlari qabul qilindi va ular hayotga tadbiq etilmoqda. Xalq ta'limining barkamol shaxs tarbiyasini, malakali mutaxassislar tayyorlashni yuqori va jahon talablari darajasiga mos ravishda amalga oshirish maqsad va vazifalari belgilandi. Bu jarayon “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ro'yobga chiqarishdagi zamonaviy bosqichda Oliy ta'lim muassasalari mukammal ta'lim standartlari, o'quv metodik qo'llanmalar va darsliklarni yaratish kabi muammolarni hal etishni talab etilmoqda. Xususan, “Maxsus pedagogika” (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya) fanni o'qitishdan maqsad-maxsus pedagogika yo'nalishi talabalarida ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus muassasalarda korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari hamda

usullari bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. “Maxsus pedagogika” fani darsligi ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni maxsus ta'lim tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning xususiyatlari, ularni rivojlantirish, korreksiya vositalarini yaratish, qo'llash, o'rganish masalalarini qamrab oladi.

Pedagogika Oliy o'quv yurtlari Defektologiya yo'nalishi talabalari maxsus pedagogikaning metodologik asoslari, xalq ta'limi hamda pedagogika fanining hozirgi zamon holati bilan tanishib borishadi. Bunda “Maxsus pedagogika” fani yetakchi o'rin egallaydi.

Tarixda, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan muassasalar tarmoqlari sobiq sho'ro hududida, ayniqsa, 1920-yillardan keyin jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'rlar, karlar, aqli zaiflar, nutqi buzilganlar uchun maxsus, alohida maktablar ochila boshlandi. Maxsus o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar uslubiy adabiyotlar yaratildi. Aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ishga joylashtirish haqidagi qarordan keyin nuqsonli bolalarga bo'lgan munosabat birmuncha kuchaydi. Lekin 1920-yillarga qadar bizning o'lkalarda defektologiya sohasida aytarli ishlar qilinmagan. Shu bois bu sohada ma'lum yutuqlarga erishgan rus va chet el defektologlarining maxsus ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlaridan foydalanardik va foydalanishga o'zimizda ehtiyoj sezdik. Markaziy Osiyoda 1920-yillarda birorta turdagi maxsus muassasalar yo'q edi. Chor Rossiyasi davrida esa nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan xususiy sinflar, xayriya jamiyatlari mavjud bo'lib 5-6 foizgina nuqsonli bolalar davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus ta'lim tarbiyaga jalb etilgan. Mamlakatda avj olib ketgan yuqumli kasalliklar, ochlik, tozalikka rioya qilmaslik, har xil shikastlanishlar va boshqa bir qancha sabablar keltirib chiqargan bolalardagi nuqsonlilik yuqori darajada edi.

1929-yilda O'zbekiston Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkentda alohida maktab ochildi. Ko'r bolalar uchun mo'ljallangan bu binoda dastlab maktab yoshidan o'tgan 20 bola ta'lim oldi. Undan so'ng bu maktabda maktabgacha yoshdagi bolalar qabul

qilindi. 1931-yildan e’tiboran Y.Oxunboboyev nomli maktabda maktabgacha tarbiya guruhi ishlay boshladiki, bu bolalar orasida uchraydigan nuqsonlilikka qarshi olib borilgan kurash samarasi edi. 1930-31 o’quv yilida ta’lim o’zbek tilida olib boriladigan ko’r bolalar 1-sinfining ochilishi muhim siyosiy ahamiyat kasb etgan voqea bo’ldi. 30-yillarning oxirlariga kelib Qo’qon va Buxoroda ham xuddi shunday maktablar ochildi. 1931-yilda nuqsonli bolalarni majburiy ta’limga jalb etish haqida qaror qabul qilindi. Moskva va Leningrad pedagogika Oliy o’quv yurtlarida hamda Toshkentdagi 3-pedagogika bilim yurtida o’zbek tilida maxsus mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Maxsus maktablar uchun oily ma’lumotli defektologlar tayyorlash ishi Markaziy Osiyoda birinchi bo’lin 1967-yilda boshlangan edi. Dastlab, Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutining pedagogika psixologiya fakulteti qoshida, 2005-yilda boshlang’ich ta’lim va defektologiya fakulteti sifatida faoliyat ko’rsatgan.

O’zbekiston aholisining aksariyatini 14 yoshgacha bo’lgan yoshlar tashkil qiladi. Shular ichidagi nogiron va alohida yordamga muhtoj bolalarning hammasi hisobda. Nogiron va kasalmand bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilingan. Yosh avlodni har tomonlama sog’lom kamol toptirish ishi davlatimiz g’amxo’rligi va nazoratida bo’lib kelmoqda. Bu vazifaga “maxsus pedagoglarimiz ham o’z hissalarini qo’shishmoqda.

Maxsus pedagogika- jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarini o’rganadigan, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug’ullanadigan fandır. Har qanday fanning o’z predmeti, maqsadi, vazifalari mavjud. Maxsus pedagogika fanining predmeti jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalardir. Maxsus pedagogika fanining vazifasi- nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, turlarini, rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o’rganish, shular asosida inklyuziv sharoitda ta’limni tashkil etish, ularning ta’lim-tarbiyasi, ijtimoiy adaptatsiya(moslashuvi) realibitatsiyasi, ijtimoiylashuvi bilan shug’ullanishdir. Maxsus pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

- surdopedagogika-(lotincha surdus-kar, gung) eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarning ta’lim tarbiyasi bilan shug’ullanadigan fan;
- tiflopedagogika-(yunoncha tiflos-ko’r, so’qir) ko’zi ojiz bolalarning ta’lim tarbiyasi bilan shug’ullanadigan fan;
- oligofrenopedagogika-(yunoncha oligos-kam, fren-aql) aqliy tomondan zaif bolalarning ta’lim tarbiyasi bilan shug’ullanadigan fan;
- logopediya-(yunoncha logos-so’z, padeo-tarbiya) og’ir nutqiy nuqsonlarni o’rganish, oldini olish, bartaraf etish yo’llari, usullarini o’rganadigan fan;

Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta’lim barcha yo’nalishlar bo’yicha jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Butun jahon bolalariga xos bo’lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, “O’zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” kabi va boshqa me’yoriy hujjatlarda keltirilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor alohida yordamga muhtoj bolalar ham mehnat qilish, ta’lim olish, hayotda o’z o’rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi qonunga rioya etilishini ta’minlash uchun uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar alohida yordamga muxtoj kishilar haqida tushunchaga ega bo’lib, ularga ta’lim-tarbiya jarayonida qulay shart-sharoitlar yaratib, kerak bo’lsa, individuallashtirilgan dasturlar asosida integratsiyalashgan inklyuziv sharoitda me’yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori ta’lim olish imkoniyatlarini yoki maxsus muassasalarda ta’lim olishiga yordam berishi zarur.

Inklyuziv ta’lim bu davlat siyosati bo’lib nogiron va sog’lom bolalar o’rtasidagi to’siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar integratsiyalanadi. “Integratsiya” tushunchasi o’zi ingliz tilidan olingan bo’lib, integrative-qo’shiluvchi, birlashuvchi, integration- qo’shilish, birlashish degan ma’noni bildiradi. Volferen Bergerning yozishicha:”Integratsion ta’lim bu- segregos ta’limning aksi bo’lib, bunda maxsus ehtiyojga ega bolalar umumta’lim muassasalari tizimiga kiritiladi”. Integratsiya keng ma’noda ijtimoiy integratsiya,

jamiyatga integratsiya, pedagogik integratsiya va ta'limga integratsiyani o'z ichiga oladi.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya va ta'lim natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga, ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lsada biz bunday bolani alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bo'lmasin biror organik yoki funksional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan. Ota, ona, tarbiyachi va pedagoglar bunday bolalarni alohida yordamga muhtoj bolalardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday nuqsonli rivojlanish tug'ma yoki turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin. Tug'ma nuqsonlar ko'p jihatdan homilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Onq qornidagi homilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksatsiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi, bolaning nuqsonli bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ota-onalarning alkogolizmi, narkomoniya ham bolaning nuqsonli bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin. Bolaning ilk yoshligida turli kasalliklar bilan og'rishi markaziy nerv sistemasining shikastlanishi ham nuqson rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Mamlakatimizda bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bola rivojlanishidagi nuqsonlar har doim ham har bir xil bo'lavermaydi, ularni iloji boricha tezroq bartaraf etish yoki bilinmaydigan holga keltirish, masalan, bola nutqida og'ir nuqson bo'lsa, ilk yoshligida to'g'ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta'sirida uni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy sistemasidagi organik

kamchiliklar natijasida paydo bo’lgan bo’sa, ya’ni aqli zaiflik va boshqa nuqsonlar, uni to’liq bartaraf etib bo’lmaydi, biroq uni kamaytirish, ko’zga ko’rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amaliyotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzatiladiki, ulardagi nuqsonni kuzatib ham, korreksilar ham bo’lmaydi, masalan to’g’gma ko’rlik yoki karlikning ayrim turlari shub jumlasiga kiradi. Bunda ko’rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko’rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o’rnini bosish mumkin. Ko’rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlovchi pedagoglar asosan ta’lim va tarbiya shakllarini mohiyatini, maqsad va mazmunini, usul hamda vositalarini, tamoyillarini yaxshi egallab, ularni amalda qo’llay olishlari kerak. Ta’lim tarbiya jarayonida bolalarni o’z kuchiga ishontirish, mashg’ulotlarga havasini uyg’ota bilish, material bayoni vaqtida ularning diqqatini to’la jalb qila olish, materilni esda saqlab qolish yo’llarini, masalan mashq, ko’rgazmali qurollardan foydalanish, mustaqil ish, suhbat, didaktik o’yin kabi vositalarni qo’llanishi, o’qitish samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.U.Xamidova “Maxsus pedagogika” T:”Fan va texnologiyalar” nashriyoti 2018
- 2.Po’latova P.M “Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika” T:”G’.G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi” nashriyoti 2005
- 3.Shamuratova Zarofat “Logopediya :meyoriy talaffuzga o’rgatish” T:”Niso Poligraf” nashriyoti 2012
4. www.lex.uz

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA:

SOG'LOM BOLA MA'NAVIYATINI SHAKLLANISHIGA OILA MUHITINING TA'SIRI

Asranboyeva Munajat Halimjanovna

NamDPI dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog'lom bola ma'naviyatini shakllanishiga oila muhitining ta'siri haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, oilaviy vaziyatni, bola shaxsiga nisbatan ota-ona munosabatini o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, tadqiqot natijalari bayon etilgan. Maqola pedagoglar, psixologlar, ota-onalarga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: adekvatlik, mikroijtimoiy, kompleks, ustanovka, taraqqiyot

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОГО ОКРУЖЕНИЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЗДОРОВОГО РЕБЕНКА

Асранбоева Муножат Халимжоновна

доцент НамДПИ, доктор философских педагогических наук (PhD)

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние семейной среды на формирование духовности здорового ребенка. Также с целью изучения семейной ситуации, отношения родителей к личности ребенка была организована экспериментальная работа и представлены результаты исследования. Статья предназначена педагогам, психологам и родителям.

Ключевые слова: адекватность, микросоциальный, комплекс, становление, развитие

INFLUENCE OF THE FAMILY ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF A HEALTHY CHILD'S SPIRITUALITY

Asranbayeva Munajat Halimzhanovna.

Associate Professor of NamDPI, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract: This article discusses the influence of the family environment on the formation of a healthy child's spirituality. Also, in order to study the family situation, parents' attitude towards the personality of the child, experimental work was organized and the results of the research were presented. The article is intended for pedagogues, psychologists, and parents.

Keywords: adequacy, microsocial, complex, establishment, development

KIRISH

Barkamol inson tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. SHu bois, mamlakatimizda ma'naviy-axloqiy

qadriyatlarning ahamiyati tobora o’sib borayotganligi ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashni muhim masala sifatida kun tartibiga qo’ymoqda.

O’zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug’larimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da’vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchaning asosiy vazifasi bo’lib qoladi. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar muammolari instituti, iste’dodlarni tanlash markazlarining tashkil etilishi yoshlarni ma’naviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, rag’batlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning namunasidir.

Yoshlar jamiyatda sodir bo’ladigan har qanday voqealarga o’zgacha, ruhiy his-kechinmalar doirasida munosabat bildiradilar, qiyinchiliklar vujudga kelganda esa ehtirolarga beriladilar. SHuning uchun bizning oldimizda turgan muhim masala – yoshlarni to’g’ri yo’lga boshlash, bunda oiladagi tarbiya bilan birgalikda jamoatchilikning uzviy hamkorligini ta’minlash taqozo etiladi.

Oilalardagi psixologik muhitni sog’lamlashtirish, ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini rivojlantirish ertangi kunimizning davomchilari bo’lgan sog’lom avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani samarali amalga oshirishning eng asosiy omilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oilaviy qadriyatlarning bir-biriga mos kelishi, funktsional-rolli o’zaro muvofiqlik, ijtimoiy – rolli adekvatlik, mikroijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanlik, emotsional to’yinganlik, oilaviy munosabatlarni uzoq muddat davom etishiga intilish va boshqalar oilaning psixologik salomatligini kompleks tarzda baholash mezonlari hisoblanadi [1].

Oiladagi muhim masalalardan biri bo’lmish emotsional qo’llab-quvvatlashning muvaffaqiyatli kechishi eng avvalo, oila a’zolarining yaqinlari bilan shaxslararo munosabatlari hamda ulardagi emotsional fonning qulayligini saqlab

qolishiga intilishlariga bog’liqdir. Oilaviy munosabatlarga moslashish oilaning kattalarni ish kunidan so’ng oilani ijtimoiy-psixologik muhitiga moslasha olishi bilan tavsiflanadi.

Har qanday sog’lom oilaning ajralmas qismi – bu oilaviy maqsadlarning yagonaligidir. Maqsadga erishish usullarini tanlash va uning shakllanishi hamda kutilayotgan natijalarda har bir oila a’zosining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istak-xoxishlari va ustanovkalari namoyon bo’ladi. Uzoq umr birga bo’lishga intilish doimo oilaviy maqsadlarga qiziqish, ularni aqlan rejalashtirish va maqsadga erishishi uchun butun oila a’zolari faolligining ta’minlashni o’zida mujassamlashtiradi.

Yakdillik shaxsning o’z-o’zini anglashi bilan bog’liq va “Biz”ga qarshi “Men”ni namoyon qilishi mumkin. Oilaning barqarorligi “o’zgarishlardagi o’zini saqlab qolish” bilan bir xil bo’lib, keyinchalik taraqqiy etish uchun oilaviy nizolarni nazorat qilish va hayotiy o’zgarishlarga moslasha olishi, oilaviy yakdillikni saqlay olishi bilan tavsiflanadi [2].

Zardushtiylikning qadimgi kitobi–“Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er-xotinning farzand tarbiyasi to’g’risidagi bir qator fikrlar bayon etilgan [3].

XI asr buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o’zining “Qutadg’u bilig”– “Saodatga boshlovchi bilim” kitobida farzand ko’rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir. Lekin, bu narsa ota–onaga juda katta mas’uliyat yuklaydi, uning uddasidan chiqmoq har bir ota–ona uchun ham farz, ham qarzdir – deydi [4]. Olim oilaviy tarbiya bola axloqiy taraqqiyotining asosi deb hisoblagan.

Rus psixologi V.I.Silevanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o’rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onaning o’z bolalariga g’amxo’rligining samarisidir degan xulosaga keladi [5].

A.Y.Varga va V.V.Stolinning fikriga ko’ra, “ota-ona munosabati”-bu bolaga bo’lgan rang-barang tuyg’ular tizimi, xulq-atvor streotiplari, ular bilan muloqot ular bilan muloqot qilish amaliyoti bola shaxsi uning xulqi xarakterini tushunish va qabul qilish xususiyatidir[6].

Hozirgi kunda psixologlar sotsiologlar va keng jamoatchilik tomonidan oila va oilaviy tarbiya muammosi dolzarb masala sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Jumladan E.G’oziev, V.M.Karimova, B.K.Qodirov, N.Sog’inov G’.Shoumarov singari psixologlar tomonidan o’zbek oilalarining ijtimoiy-psixologik masalalariga doir tadqiqotlar olib borilgan [7].

Psixolog M.M.Raximova va L.S.Luchanskaya oilaviy munosabatlarning bolalar soni va ota-ona bilan bolalar muloqotiga bog’liqligini tahlil qiladilar [8].

V.M.Karimovanning “Yoshlarda o’zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlar” deb nomlangan ilmiy ishida o’zbek oilasidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruhlarda namoyon bo’lishini empirik jihatlariga asoslanib tadqiq etiladi va oila to’g’risidagi ijtimoiy tasavvurlar shaxsning oilaviy munosabatlar doirasidagi xulq-atvorni boshqaruvchi va aniq sharoitlarga moslashtiruvchi vazifalarni bajarishini ilmiy asoslab berishga harakat qiladi [8]. Shuningdek, empirik tadqiqot jarayonida oilaviy ijtimoiy tasavvurlarning turli yosh va jins guruhlarida o’ziga xos tarzda namoyon bo’lishi, hamda ularning shaxs va guruhlarining hayot tarzi, ma’lumot darajasi, kasb-kori va hayotiy tajribasiga bog’liqligi isbot qilinadi. Unda birinchi marta o’zbek ayoli va erkakning oiladagi psixologik mavqei, er-xotin munosabatlarining bolalar tarbiyasi va oilada tutgan o’rinlari taqsimotiga ta’siri, yoshlarda to’g’ri maqbul oilaviy ijtimoiy tasavvurlarning shakllanish shart-sharoitlari va psixologik omillari yoritildi.

Professor E.G’oziev boshchiligidagi Toshkent Davlat Universitetida o’tkazilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari oilada bola tarbiyasining etnopsixologik muammolariga bag’ishlangan [9]. O’zbek oilasida tarbiya mohiyati mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqbol rejalarga bolalarga ta’sir o’tkazish vositalarini tanlash va undan unumli foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Chunki uning asosida xalq an’analari yotadi-deb yozadi muallif o’zbek xalqining etnopsixologiyasidan unumli foydalanishdan iborat. Har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o’ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada o sog’lom bola ma’naviyatini shakllanishiga oila muhitining ta’siri haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, oilaviy vaziyatni, bola shaxsiga nisbatan ota-onaga munosabatini o’rganish maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, tadqiqot natijalari bayon etilgan. Oilada bola shaxsida o’z-o’zini anglashni rivojlantirish maqsadida ota-onalar va o’qituvchilarga tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Biz yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasida oilaning ta’sirini ular ongida aks etganlik darajasini o’rganish maqsadida “Qanday oilalarda ma’naviy sog’lom farzandlar tarbiyalanadilar?” degan savolnoma bilan oliygohda tahsil olayotgan talabalarga murojaat qildik. O’tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda ko’rsatilgan.

Qanday oilalarda ma’naviy sog’lom farzandlar tarbiyalanadilar?

(% da)

Javoblar:	%
Mehnatkash va halol oilalarda	50,7
Inoq va tinch oilalarda	38,9
Ma’naviy sog’lom oilalarda	37,8
Ziyoli oilalarda	21,3
Ko’p bolali oilalarda	3,9
Dindor oilalarda	3,3
Boshqa javob	1,0

Jadvalda kuzatiladigandek, aksariyat yoshlarimiz mehnatkash, halol, inoq, tinch, ma’naviy sog’lom oilalarda ma’naviy yetuk farzandlarning voyaga yetishi va tarbiyalanishini ma’qul deb olganlar. Biz yoshlarning yaxshi oilaga nisbatan psixologik ustanovkalari yuqori ekanligini bilib oldik. SHuningdek qaysi ijtimoiy ta’sir shaxsning ma’naviyatiga ta’siri qanday bo’lishini ham qay darajada o’rganilganligi bilan qiziqqanimizda shunday tadqiqotlarga duch keldik. Talabaiyoshlarga psixolog olimlarimiz tomonidan “Sizning fikringizcha, bizning jamiyatda

inson ma’naviyatiga nima eng ko’p darajada ta’sir ko’rsatadi?” savolini berilgan. Unga ko’ra olingan javoblarda oila barcha ijtimoiy maskanlar orasida eng yuqori darajada shaxs ma’naviyatiga ta’sir etishi tan olingan. SHuning uchun oila maskani, uning ma’naviy muhiti, unda voyaga yetayotgan farzandning jismoniy sog’lom bo’lishi, ma’nan yuksak bo’lishi, aqlan kamolga yetishi masalalari doimo jamiyat miqyosida eng muhim masalalardan biri ekanligini ham angladik. O’tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda ko’rsatilgan.

“Sizning fikringizcha, bizning jamiyatda inson ma’naviyatiga nima eng ko’p darajada ta’sir ko’rsatadi?” (% da)

Javoblar:	%	Televidenie	28,1
Oila	77,1	Matbuot	7,2
Mahalla	43,2	Din	6,8
Ta’lim muassasasi	43,1	Adabiyot	3,4
Ijtimoiy muhit	36,9	Kino, teatr	2,2

Demak, shaxs ma’naviyatini shakllantiradigan omillar orasida oila va oilaviy tarbiya, mahalla, ta’lim-tarbiya tizimi maskanlari hamda ijtimoiy muhit ta’siri yuqori ekan-da.

O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev barkamol shaxsni shakllantirish ishining hayotiy zarurati va dolzarbligi haqida gapirar ekan, “Inson shaxsini, uning yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e’tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo’ymoqda”, deb alohida ta’kidlaydilar. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo’lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo’lib o’z yurti va halqiga sitqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o’rgatishni nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoiy, o’z Vatani

manfaatlariga g’oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi-deydi [9].

XULOSALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozimligi tavsiya etiladi. Jumladan;

-Yoshlarda ijobiy xulq-atvor va xarakter xislatlarini shakllantirishga yo’naltirilgan tarbiyaviy jarayonni tashkil etish.

-Psixolog yoshlardagi eng yaxshi insoniy fazilatlarni ko’ra olishi va ularda o’ziga ishonish, o’z xulqini o’zi yaxshilash motivlarini shakllantirishi zarur.

-Yoshlarni o’zlaridagi ijobiy xarakter hislatlarini anglashini rag’batlantirish.

-Yoshlarni o’z xulq-atvorini o’zi baholashga o’rgatib borish.

-Yoshlar oldiga qo’yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag’batlantirish.

-Yoshlarni kasbga bo’lgan qiziqishlarini oshirish.

-Yoshlarni bo’sh vaqtlarini to’g’ri tashkil etishlarini nazorat qilish.

-Yoshlarga tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash.

-Yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama: psixologik, huquqiy, tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va ma’rifiy jihatdan tayyorlab borish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акрамова Ф.А. “Оилада муомалани ташкил этиш психологияси” Т.: “Шамс АСА” 2006. 90-бет.
2. Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси Т.: 2006 172 бет
3. Салаева М.С. “Ўзбек оилаларида ота-она ўзаро муносабатларининг ижтимоий психологик хусусиятлари” Автореферат Т-2005
4. Файзиева М, Жабборов А “Оилавий муносабатлар психологияси” Т.: “Янги аср авлоди” 2007.
5. Xalimjanovna, A. M. (2022). MANIFESTATIONS OF STRESS IN PROFESSIONAL ACTIVITY AND WAYS TO ELIMINATE IT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 841-844.

6. АСРАНБАЕВА, М. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 43-45.
7. Asranbaeva, M. X. (2020). IMPROVING MECHANISMS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL LIFE IN DISABLED FAMILIES. Theoretical & Applied Science, (12), 125-129.
8. Асранбаева, М. Х. (2015). МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ТРЕВОЖНЫМИ ДЕТЬМИ. In СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ТРАНСФОРМАЦИИ КОНЦЕПЦИЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ (pp. 43-47).
9. Asranbaeva, M. H. (2020). CHARACTERISTICS OF FORMING MOTIVES OF LABOUR ACTIVITIES IN AN INCOMPLETE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 121-123.
10. Badritdinova, M. B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.
11. Badritdinova, M. B. (2019). COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECULIARITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(10), 380-386.

O'ZBEK ALLALARIDA QO'LLANILGAN BADIY TASVIR OSITALARINING LISONIY TAHLILI

Shamsiya Egamberdiyeva Mamajonovna

NamDPI "Tillarni o'qitish

metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

[*shamsiyaegamberdiyeva@gmail.com*](mailto:shamsiyaegamberdiyeva@gmail.com)

Annotatsiya: O'zbek xalq og'zaki ijodining salmoqli qismini bolalar bolklori tashkil etadi. Bolalar tomonidan yaratilgan namunalar bilan birgalikda, kattalar tomonidan bolalar uchun atalgan ijod mahsullari ham bolalar folklori tarkibiga kiradi. Allalar ana shunday namunalardir. Biz alla matnlarining qiymatini oshiruvchi badiiy tasvir vositalari haqida to'xtalishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: latoyif, did, saviya, "Poetik vosita", tajohuli orifona, alliteratsiya, tashbeh, tazod

Аннотация: Детский фольклор составляет значительную часть узбекского фольклора. Детский фольклор включает в себя детский фольклор наряду с образцами, созданными детьми. Аллах является таким примером. Мы постарались остановиться на средствах художественного изображения, повышающих ценность текстов Аллаха.

Ключевые слова: латойф, дид, савия, «Поэтический инструмент», таджхули орифона, аллитерация, аллюзия, тазад.

Annotation: Children's folklore is a significant part of Uzbek folklore. Children's folklore includes children's folklore along with examples created by children. Allah is such an example. We tried to dwell on the means of artistic representation that increase the value of Allah's texts.

Key words: latoyif, did, saviya, "Poetic tool", Tajhouli orifona, alliteration, allusion, tazad

KIRISH

Millatning millat sifatidagi o'tmishi, an'analari, urf-odatlar u yaratgan xalq og'zaki ijodi namunalarida uzoq vaqt yashab qoladi. Bolalar ulg'ayish jarayonida o'zlari uchun sodda, ta'sirchan ijod namunalari o'ylab topadilar. Bu ularning tafakkur va tasavvur olamiga ilk qadam qo'yanlaridan dalolat beradi. Ona allasi esa bolaning bu olamni anglashi uchun ochilgan ilk eshikdir. Alla va erkalamalarni onalar ijodi mahsuli deb bilsak-da, ularning bolalarga bag'ishlangani "Bolalar folklori" deb atashimizga asos bo'ladi. Bolalar folklori bolalarga atalgan sodda tushunchalar, dil izhorlaridan tashkil topilgan bo'lsa ham, allalar onalarning buyuk

ijodkorlik qobiliyatlarini, soʻzga, latoyifga munosabatlari namunasi oʻlaroq badiiy did va saviya mahsulidir. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his –uygʻu va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qilivchi vositalar umumlashtirib *“badiiy tasvir va ifoda vositalari”* deb yuritiladi. Bu tushuncha adabiyotshunoslikda *“poetic vositalar”*, *“stilistik figuralar”* kaʼbi nomlar bilan ham ishlatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Onalar ijodkorligi shundaki, onalar hech qanday badiiy uquvga ega boʻlmay turib, soʻzdan mohirona foydalana olganlar. Ular qoʻllagan badiiy tasvir vositalari allaning badiiy jozibadorligi va kuyning monoton ohangini taʼminlab turgan. Ona farzandiga alla aytar ekan, oʻz soʻzlarini bolasi tushunishiga umid qiladi. *“Tajohuli orifona”* ning mohiyati shundaki, Ayol bolaga oʻz dardlarini soʻylaydi. Savollar beradi, bu savollariga ham oʻzi javob beradi.

Qoshginangning qiygʻochi,

Qalammidi, alla.

Koʻzginangning qorasi

Gavharmidi, alla.

Xalqimizning chorvadorlik bilan bogʻliq hayoti inʼikosi sifatida allalardagi tasvirlangan toldan tayoq, el podasini boqish va shu orqali elatga xizmat qilish bolaga singdirilgan. Oʻz navbatida soʻroq mazmuni parchadagi gʻoyani yorqinroq ochib berishga xizmat qilgan.

Alla aytsam boqarmisan, alla

Tol tayogʻin taqarmisan, alla

Elning qoʻyin boqarmisan, alla

Elatingga yoqarmisan, alla.

Badiiy adabiyotda tashbehning ikki turi farqlanadi.

1. Haqiqiy tashbeh.

2. Majoziy tashbeh.

Odatda , tashbehdan o‘z g‘oyalari, fikr va istaklarini badiiy ta’sirchan ifodalashda foydalanadilar. Tashbehning o‘z qismlari bo‘lib, allalarda ham bu poetik vositalardan unumli foydalanadilar.

Chopinganing bo‘riday,
Bo‘rilarning zo‘riday,
Yigit bo‘lar chirog‘im,
O‘zi urning eriday.

Chorvador xalqlar orasida bo‘ri obrazi chopqir, keskir, o‘z prinsipiga ega jonivor sifatida gavdalantiriladi. Shu jumladan turkiy xalqlarning kelib chiqishini ona bo‘riga taqalishini tasvirlovchi afsonalar ham mavjud. Turkiy xalqlarda “bo‘ri” totemi kuch –qudrat va iroda ramzi hisoblangan. Ona bolasini aynan bo‘riga, bo‘ri bo‘lganda ham eng kuchli, bo‘rilar sardoriga mengzashni xohlaydi. Bola – *mushabbih* bo‘lsa, bo‘ri – *mushabbihu bihi*, chopqirlik esa – *vajhi shabih*, -day qo‘shimchasi *vositayi tashbihdir*. Bunday tashbih “*tashbihi mufassal*” hisoblanadi. Ba’zan esa “*Vajhi shabih*” tushib qolib, “*Tashbihi mujmal*” ni hosil qiladi. Quyidagi allada Bolaning ko‘zlari, so‘zlari xuddi otasiniki ka’biligi ta’kidlansa-da, aynan qaysi xususiyati bilan otasinikiga o‘xshashi aytilmaydi.

Ko‘zlari xuddi otajoni ko‘zi, alla-yo alla,
Yuzlari xuddi otajoni yuzi, alla-yo alla.
Tillaring chiqsa aziz erkatoiy, alla-yo alla,
So‘zlagan so‘zing bo‘larmi tuzi, alla-yo alla.

Bolaning tug‘ilishi uyga nur, yorug‘lik olib kiradi. Buvijonlar nabirasining ko‘zlarini shamchiroqqa tashbehlab, har bir so‘zidan hayot suvi tomishini ta’kidlaydilar.

O‘rgilayin o‘zingdan, alla,
Shamchiroqday ko‘zingdan, alla.
Obi navvot tomchilar, alla,
Buvi degan so‘zingdan, alla.

Yuqoridagi allada *vajhi shabih* keltirilmagan bo‘lsa-da, ko‘zlarning porloqligini munosabat sifatida qabul qilishimiz mumkin. Bu “*Tashbihi mujmal*”

ekanligini ko’rsatadi. Ba’zan esa matnda “*Vajhi shabih*” ham “*Vositayi tashbih*” ham berilmasligi mumkin.

Oqro’mol beozorim, alla

Oq shoyidan ro’molim, alla

Oq yuzingni artayin, alla

Cho’lpon ko’zingni yum qo’zim, alla

Bu alla matnida bolaning ko’zlari tong yulduzi cho’lponga mengzaladi. Takrorlanayotgan oq so’zi poklik, tiniqlik, musaffolik ramzi bo’lsa, tong yulduzi umid timsolini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Allalarda bolaning bulbulga o’xshatish, bulbuldek xushovoz bo’lishiga umid bog’lash yetakchi o’rin tutadi. Ona arzandasini bulbul bola qiyofasida ko’rib hayolan uning taqdirini o’ylab qoladi, nogohoniy seldan havotirlanib, o’z holatini tasavvur qila boshlaydi. Shu zahoti bolasini bulbul qiyofasida ko’ra boshlaydi. Bulbul xushxon, mitti qush, ovozi bilan hammani maftun etgan, barchaga zavq ulashganidan e’zozda; u sayragan chaman mudom obod, uni cho’chitmaslik lozim. O’limdan qo’rqmaydigan kishi yo’q, lekin “bulbul sayrasa, o’lim ham yo’lidan qochadi”. Demak men bulbul farzandimda davom etaman. Ana shu hayotbaxsh ruh ona qalbining tasallisiga aylanadi va ona armonlarining nafis ifodasi bo’lib kuy bo’lib taraladi.”

Bulbul uchar qo’limdan, alla-yo alla

Har kim qo’rqar olimdan, alla-yo alla

Shu bulbulim sayrasa, alla-yo alla

O’lim qochar yo’limdan, alla-yo alla.

Erkalayman yayratib, alla,

Vatanimning bog’ida, alla.

Bulbul qushdek sayratib, alla,

Ko’chalarda o’ynab yursin, alla.

Bulbul obrazi ko’pgina allalarda hayotsevarlik, yashashga tashnalik talqini sifatida keng uchraydi. Bulbul faqat tinch, osoyishta, baxt ufurib turgan

chamandagina sayraydi. G'am, alamli vayronalarda boyo'g'li ovozini eshitish mumkin. Shuning uchun ona farzandini doimo tinch va baxtli go'shada yashashini istab, bulbul qushdek sayrab yurishini niyat qiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Gul, chechak obrazi ham allardagi yetakchi obrazlardan bo'lib onalar farzandini to'gridan to'g'ri gulga, ba'zan esa rayhonga, nargizga, lolaga qiyoslaydilar. Bolani gulga, g'unchaga o'xshatilishida ham bir ramziylik bordek. Chunki gul hayot davomiyligi timsoli. Folklorshunos M. Yoqubbekova ta'kidlaganidek, "gulning semantic jihatdan farzand tushunchasini anglatishida undagi go'zallik, noziklik, xushbo'ylik mutanosiblik xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Muhim moslik shundaki, go'dak ham gul ham o'sish, o'zgarish, taraqqiyot va yetilish jarayonining boshlang'ich nuqtasidir".

U yonimga qo'yayin alla

Bu yonimga qo'yayin alla

Guldek shirin isingni, alla

Hidlab – hidlab to'yayin, alla

Allalarda nur bilan bog'liq istioralardan ham unumli foydalanilgan. Bolani yulduzim, oyim, shamim, shamchirog'im deb erkalash keng tarqalgan.

Allasi kelsin, uxlasin, alla

Jonginam shunga mixlansin, alla

Batta toyim, alla,

Yulduz, oyim, alla.

Yulduz ham orzu, ham umid timsoli hisoblanadi. Uning uzoqda nur sochishi yetib bo'lmas orzuni ifodalasa, osmonlarda uchib yurishi erkinlikni, hur fikrlilikni ifodalaydi. Bu allada ona farzandini zulmatni o'z nuri bilan munavvar etgan yulduz, oyga mengzamoqda. Bola ham onaning qorong'u hayotini mana shu oy, yulduz singari munavvar etadi.

Tazod – fikr ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardan biri. O'zaro zid ma'noli so'zlarni keltirish orqali onalar badiiy maqsadini chuqurroq tasvirlaganlar.

Alla aytay tong otguncha

Uyqu kelmas kun botguncha,

Nuri diydam, alla

Qo’zichog’im, alla

Alla-yo alla

Ona farzandini uyg’aytirar ekan, kelakakda o’ziga suyanchiq, tirkak bo’lishini juda xohlaydi. Uni yomon ko’zlardan asrar ekan, o’zi uchun bir qo’rg’on qurayotganini his qiladi.

Yaxshi –yomon kunimda

Menga juda keraklim

Alla , bolam, alla-yo

Ko’pincha mumtoz adabiyot namunalarida ham Tong va tunni o’zaro zidlash holatlari ko’plab uchraydi. Xalq og’zaki ijodida esa shom va sahar zidligi orqali tazodning go’zal namunasi yaratiladi.

Farzand degan bir gul bo’lar,

Shom-u sahar bulbul bo’lar,

Ota –onaga qul bo’lar,

Shunda bolam ko’nglim to’lar, alla.

Onalar allalarning ta’sir doirasini oshirish uchun o’zaro bir–biriga yaqin so’zlardan unumli foydalanganlar. Bu tanosub san’atini yuzaga keltirgan.

Alamlarimning ko’pligi –yo, alla

Peshonamning sho’rligi-yo, alla

Hasratimning ko’pligi-yo, alla

Dadajoningning yo’qligi -yo, alla

Alam, hasrat, peshonasining sho’rligi barchasiga sabab turmush o’rtog’ining yonida emasligi etib ko’rsatiladi. Bolaga ona xuddi o’z darddoshi, dardkashiday qalb kechinmalarini bayon qiladi. Dardini aytib yengillaydi.

Oyni olib beraymi, alla?

Kunni olib beraymi, alla?

Baliq bo’lib sho’ng’isang, alla

Daryo bo’lib oqaman, alla.

Ona farzandi uchun har nega tayyor. Dunyoning butun boyliklarinigina emas, oy kun, jamiki yaratilarni unga hadya etadi. Bolaga yaxshi sharoit, qulay muhit yaratish uchun baliq farzandiga daryoday oqishga hozir.

Badiiy takrorlar she'ning ohang jihatdan musiqiyiligini ta'minlab, nutqqa intonatsion butunlik bag'ishlaydi. She'riyatda so'zlarning takroriga asoslangan bir nechta badiiy tasvir vositalari mavjud. *Mukarrar* san'ati aynan so'zni takror so'z holatida bir joyda takrorlashdir.

1) Qalam- qalam qoshingdan, alla

Qalandarlar aylansin, alla

Xumor – xumor ko'zingdan

Xumoralar aylansin, alla

2) Qizil gul tizim –tizim , alla

Ikkiga kirsin qizim alla

3) Alla aytsam, yayraysan, alla

Kulib- kulib qaraysan, alla

4) Qizil gul xona –xona, alla-ya alla

Tishlari dona-dona, alla-ya alla

Istasang topilar yor, alla-ya alla

Topilmas ota –ona, alla-ya alla

Misra boshida bir xil so'zlarning keltirilishi Anaforani yuzaga keltiradi. Oq so'ziga urg'u berilishi va har misra boshida bu so'zning takrori onaning oppoq ko'ngli hamda oq niyatini ham ifodalaydi.

Oq ro'mol beozorim, alla

Oq shoyidan ro'molim, alla

Oq yuzingni artayin, alla

Cho'lpon ko'zingni yum qo'zim, alla

So'z takroriga asoslangan vositalardan biri tasbe'dir. Birinchi misra ohiridagi so'zning ikkinchi misra boshida qaytarilib kelishiga *tasbe'* deyiladi. Bunda diqqat mana shu takrorlanayotgan so'zning qanday ma'no tashishiga qaratiladi.

Allaning oti Haqdir

Haqdan tilaklar ko’pdir.

Ishtiyoq san’ati- so’zdan so’zni ajratmoq ma’nosini beradi. Nutqda o’zakdosh so’zlarning keltirilishi ishtiyoq hisoblanadi. Bu ham ohang jihatdan barqarorlikni ta’minlab, ham asosiy diqqatni shu mazmun tashigan pafosga qaratiladi.

Farzandlik uyga yog’ar rahmat, alla

Farzandsizlar chekar zahmat, alla

Farzandsizning uyin ko’rsang guliston, alla

Befarzandning uyin ko’rsang go’riston, alla

She’riy nutqda musiqiylikni ta’minlovchi, ohangdorlikni oshiruvchi vositalardan biri alliteratsiyadir.” Tovushlar zamiridagi bu musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she’riyatida keng qo’llanib kelingan. Ko’hna badiyatshunoslikda (ilmi bade’)da alliteratsiya “Tavzi’ san’ati” deb yuritilgan Xalq og’zaki ijodida esa bu unsur keng tarqalgan vositalardan biridir.

1. Tut yog’ochdan beshiging, alla

Termulib o’tsin onang, alla

2. Jiydalardan beshigi, alla,

Jirkanmasin opasi, alla.

3. Babalaki bo’ppisi bor, alla,

Boshchasida do’ppisi bor, alla

“Assonans- badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag’ishlash maqsadida qo’llaniladigan fonetik usullardan biri. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo’ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan”

1) O’riklardan beshigi, alla, O’ynatadi akasi, alla.

2) O’rik yog’och beshiging, alla, O’rgilib ketsin onang, alla

3) Angishvonadek og’zingdan, alla, Aravonliklar aylansin, alla

4) Olmalardan beshigi, alla, Olib qo’ysin otasi, alla

Tashxis–shaxslantirish san’ati bo’lib, jonsiz narsa-buyumlarga insonlargadi qobiliyatlar va xususiyatlar ko’chirib o’tkaziladi. Quyidagi allada ko’kdagi oyning xuddi insondek derazadan mo’ralab qarashi jonlantirilgan. Shu bilan birgalikda

bolaning “qo’zim” deb erkalanishi chorvadorlik bilan bog’liq istiorani yuzaga keltirgan.

Ko’kda oy yarqiraydi, alla
Derazadan qaraydi, alla
Ko’zlaringni yum qo’zim ,alla
Yot quvonchim, qunduzim, alla

XULOSALAR

Allalar janr xususiyatlari, radif, qofiya, turoq, vazn jihatdan mukammal san’at asarlaridir. Ularning yaratuvchisi xalqning onalar qatlami. Onalarning farzandlari uchun yaratgan eng buyuk ixtirolaridir. Bu ixtiro mehrdan, muhabbatdan, samimiyatdan va sadoqatdan yaratilganligi uchun ham asrlar osha avlodlarga yetib keldi. Yana ming yillar davomida mangu “hayot qo’shig’i” bo’lib kuylanishda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Safarov O. O’zbek bolalar folklori . – Toshkent – 2007. 17 – bet
2. O’zbek folklori 1- kitob . Toshkent , 1939
3. Gulyor . Farg’ona xalq qo’shiqlari. Toshkent, 1967
4. Jahongirov G’. O’zbek bolalar folklori. Toshkent, 1975
5. M. Jo’rayev. “Oy oldida bir yulduz”
6. Â m il Çelebioğlu, T ü rk Ninnileri Hazînesi, İstanbul 1982
7. Eng sara allalar. Toshkent , Adabiyot uchqunlari, 2017
8. M. Yo’ldoshev . Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent-2008, 49-50 betlar

O’ZBEK XALQ FOLKLORIDA MAYNA OBRAZI

Mehmonjonova Madina

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi fakulteti

o’zbek tili yo’nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Xalq ogʻzaki ijodida insonlarga xos xususiyatlar hayvonlar, qushlar obrazi orqali ochib berilgan. Oʻzbek xalq ertaklarida ham turli qushlar obrazlari orqali ochkoʻzlik, yolgʻonchilik, riyokorlik yoxud mehribonlik, rostgoʻylik fazilatlari tasvirlanadi. Mayna obrazi ham murakkab obrazlar sirasiga kirib, har bir namunada oʻziga xos tasvirlanadi.*

Kalit soʻzlar: *Yozma adabiyot, xalq oʻgʻzaki ijodi, obrazlar, doston, ertak*

Аннотация: *В фольклоре черты человека раскрываются через образы животных и птиц. В узбекских народных сказках качества жадности, лживости, лицемерия, доброты и честности изображены через образы различных птиц.*

Ключевые слова: *Письменная литература, фольклор, образы, эпос, сказка.*

Annotation: *In folklore, human characteristics are revealed through the image of animals and birds. In Uzbek folk tales, the qualities of greed, deceit, hypocrisy, kindness, and honesty are depicted through the images of various birds.*

Key words: *Written literature, folklore, images, epic, fairy tale*

Dunyoda qaysiki millatning tarixiga boqsangiz, unda xalq xayoti bilan uning ogʻzaki ijod namunalari tengma-teng taraqqiyot etgani, rivojlanib borganligining guvohi boʻlamiz. Yozma adabiyot xalq ogʻzaki ijodining sarchashmasi sifatida yuzaga kelgan. Xalq oʻz epik janrlarida hayvonlar, qushlar obrazi orqali ramziy maʼno ifodalab insonlardagi xususiyatlar, kamchilik va qusurlarni koʻrsatib berishga harakat qilganlar. Biz yoshlik chogʻlarimizda onalarimiz, buvilarimizdan eshitgan ertaklar orqali hayotning oʻzimizcha maʼnosini anglab borganmiz. Ertak atamasi ilk bor Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit-turk” asarida “etuk” sifatida keltiriladi. “Etuk- hikoya,ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu soʻz qoʻllanadi.Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan”

Ertaklar qalbimizni ezgu hislar bilan boyitishga, bizni olam haqidagi tasavvurlarimizni kengayishiga sababchi boʻlgan. Biz barchamiz ertaklardagi

majoziy qahramonlarni turli insonlar qiyofasiga o'xshatganmiz. Hayvonlar haqidagi ertaklarda, asosan, ijtimoiy-maishiy munosabatlar majoziy usulda o'z ifodasini topgan va tarbiyaviy maqsadni ko'zlab yaratilgan. Masalan, tulki orqali yolg'onchi, ayyor kishilarni, sher orqali esa qo'rqmas kimsalarni, bo'ri orqali johil kimsalarni qiyofasini gavdalantirishga o'rganib qolganmiz. Shuningdek, qushlar obrazi ham ba'zan donolik, ba'zan poklik, ba'zida esa vaysaqi insonlar harakterini ochib berishga ham hizmat qilgan. Bulbul- ezgulik kuychisi, qarg'a ba'zan donolik, ba'zan esa laqmalik timsoli. Mayna qushi esa- aslida "Mayina" deb atalgan ekan. Uning "Mayna" deb atalishi bilan bog'liq bir nechta ertaklar bor. Shulardan birida bu chiroyli qushning yoqimli ovozi barcha qushlarni o'ziga maftun etgani, shuning uchun, qushlar bir kuni yig'ilishib bu chiroyli qushning ovozini eshitgani borgani haqida hikoya qilinadi. To'satdan borib qolgan qushlar o'zlari sevgan qushlarini uyini iflos bo'lib yotganini ko'rishgach, shunday yoqimli ovozga ega bo'lgan qushlari uyining shunchalar iflos ekaniga hayratlanishadi va ular bu qushni masxaralashga tushib ketishadi. Shundan buyon bu qushlar Mayina emas, "mayna" qushlariga aylanib qolishgan ekan.

Boshqa bir ertakda tasvirlanishicha, polapon ochib chiqqan maynaga tulki hamla qilmoqchi bo'libdi. Maynaga do'q urib, bolalaridan yo birini yokida barini berishini so'rabdi. Mayna shunda xafa bo'lib nima qilishini bilmay qolibdi. Shu orada qarg'a paydo bo'libdi-da, tulkiga qarshi chiqib mayna bolalarini bermasligini, mayna bolalari o'rniga qarg'a o'zini yeyishini so'rabdi. Bu so'zlarga ishongan tulki maynalar oldidan ketibdi, ammo qarg'a unga hiyla ishlatib qochib qolgan ekan. Shunday qilib mayna va bolalari baxtli hayot kechirishibdi.

"Ravshan" dostonida chorasiz qolgan Zulxumoroyim xatni mahkam qilib, mayna qushining bo'yniga bog'lab, tushib qolmasday qilib, maynaga necha bir so'zlarni tayin qilib uni Ravshannning otasi Hasanxon tomon yo'llaydi.

Biror yerda mayna damin olmadi.

Borib qo'ndi bir hovlining ustiga,

Har paridan chakillab ter tomadi.

Bu kabi dostonlarda mayna qushining sadoqati, aqli-zakovati tarannum etiladi. Maynaning Xon Dallini ko'rib Ravshanjonning onasi shu ekanligini bilib, hovli boshida sayrab turadi. Xon Dalliga o'z muddatida xatni yetkazadi va Hasanson Ravshanni qutqarish uchun o'z vaqtida yetib keladi. Demak, dostonda mayna Ravshanjonning jonini qutqarishda yordamlashuvchi obraz sifatida ham namoyon bo'ladi.

"Qaldirg'och va mayna" o'zbek xalq ertagida bayon qilinishicha, Qaldirg'och va maynalar bir-biri bilan janjallashib turishar ekan. Qaldirg'ochlar o'zlarining ahilliklari bilan va halol mehnatlari orqali kun kechirar ekan. Ammo urishqoq maynalar esa doimo birovning moliga ko'z olaytirar va bir-birlari bilan doimo janjallashar ekan. Bir kuni qaldirg'ochning ukasini o'zlari tarafga og'dirmoqchi bo'lishibdi. Lekin, qaldirg'ochlar ahilliklari tufayli maynalar ustidan doimgidek g'alaba qozonishibdi. Maynalar esa ular oldidan g'oyib bo'lib qolishgan ekan.

O'zbek xalq folklorida maynalarning turli obrazlarda namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Birida xat tashuvchi sifatida, birida esa farzandlariga mehribon ona sifatida, boshqasida esa birovlar bilan janjallashib yuradigan qo'nimsiz qushlar sifatida namoyon bo'ladi.

Ammo, ahamiyat bergan bo'lsangiz bir voqeaning ko'p guvohi bo'lgan bo'lishingiz kerak. Ularni ko'p kuzatganimda ular yemaklarini talashib yeyishayotgan, bir-birlari bilan ko'p urishayotgan, hovlidagi uzumlarni yeyaverganidan bezor bo'lib, ko'p bora haydagan bo'lishingiz ham mumkin. Bu qushlarni insonlar qiyofasida ramziy o'ylab qaraydigan bo'lsak, mehnatni xushlamaydigan, dangasalikni kasb qilib olgan, birovlar molini tekidan yeyishni yoqtiradigan va xalq maqollaridan birida aytilganidek: "O'roqda yo'q, boshqada yo'q, xirmonda paydo bo'ladigan" kimsalar sifatida baho berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар яугати (Девону луғотит турк). III томлик. I -том. -Т.: Фан, 1960. - Б. 98.

2. Омонулла МАДАЕВ.ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ Университетларнинг Ўзбек филологияси ва Журналистика ҳамда педагогика институтларининг Тил ва адабиёт факультетлари учун ўқув қўлланма
3. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақда. - Т.: Фан, 1964.
4. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. - Т.: Фан, 1976.
5. Юсупов Ж. Хоразм эртаги ва ҳаёт ҳақиқати. - Т.: Фан, 1997.
6. Имомов К. Ўзбек халқ эртаклари / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981. - Б. 62-96.

O‘ZBEK MADANIYATI VA SAN’ATINING TARIXIY BOSQICHLARI

Zokirjonov Abbosbek Zokirjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti talabasi

abbosbekzokirjonov99@gmail.com

Ma’lumki, ma’naviy komillikning sarchashmasi hisoblangan o‘zbek xalqi madaniyati va san’atining noyob durdonalari xamda an’analarda ajdodlarimizning yaratuvchilik, bunyodkorlik, shuningdek, insonni ulug‘lash bilan bog‘liq ezgu g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham Sharq xalqlari tafakkuri rivojida muhim rol o‘ynagan ma’naviy qadriyatlar tizimining yaratilishida jahondagi eng qadimgi sug‘orma dexqonchilik madaniyati va shaxarsozlik an’alarini yaratgan zukko xalqimizning xissasi kata bo‘lgan.

Mustaqillik tufayli o‘z taraqqiyoti yo‘lidan dadil odim tashlab borayotgan davlatimizda yoshlarni erkin fuqarolik jamiyati uchun munosib voris qilib tayyorlash, yangi davr ruxida tarbiyalash – shu kunning eng dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda san’at va madaniyat rivojiga kata e’tibor qaratib kelinmoqda.

Asrlar mobaynida rivojlanib kelgan va jamiyat xayoti xamda inson kamolotining ajralmas qismiga aylangan san’atining noyob durdonalarisiz biz bugungi ma’naviy yuksalish jarayonini tasavvur eta olmaysiz.

San'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.[1]

Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida yaratgan buyuk asarlari, ijod namunalari, san'at va madaniyat borasida qoldirgan bebaho meroslari hozirgi kunga qadar asrab-avaylab yosh avlodga yetkazib kelinmoqda. Har bir jamiyat madaniyatsiz, san'atsiz, musiqasiz, qadriyatlarsiz yashamagan va yashay olmaydi ham.

O'zbek xalqi madaniyatining hayotiy ko'rinishi va rivojlanishining badiiy mazmuni xalqimiz merosida juda katta muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham uning muammolari san'atshunos va sharqshunos olimlarimizning diqqat-e'tiborini ko'pdan beri o'ziga jalb etib keladi va bu masala musiqiy san'atimizda juda katta tarixiy- ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq musiqa madaniyati haqida fikr yuritilganda, albatta, mustamlakachilik davridagi muammolarga to'xtalish zarur.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya mustamlakachilik va uning madaniy merosimizga salbiy ta'siri ham ijod namunalarining bir qismini yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. Ammo, shunga qaramay, milliy san'atimiz izchil rivojlanaverdi. Xususan, ijrochilikning Buxoro, Xorazm, Qo'qon yo'nalishlari saqlanib qoldi. Shuningdek, O'zbekistonning barcha hududlarida o'ziga xoslik mavjud bo'lishiga qaramasdan, o'zbek xalq musiqa madaniyati saqlanib qolindi. Barchamizga ma'lumki, toki shu kunga qadar qancha bosqinchilik, talon-taroj ishlari bo'lmasin, o'zbek xalq musiqa madaniyati davr uchun, kishilar tarbiyasi uchun kerakligicha qoldi. Mana mustaqilligimiz tufayli tarixiy madaniyatimiz adabiyot va san'atimiz tilimiz dinmizga ega bo'ldik. Milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. O'zbek xalqi milliy o'zligini anglashda faollikni egalladi. Demak, bizning oldimizda o'zbek xalq musiqa madaniyatini yosh avlod tarbiyalashda muhimligini anglagan holda, Vatanga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turibdi.

O'zbek xalq milliy san'ati xususan, musiqa o'zining serqirra va qadimiyligi bilan kishini o'ziga tortadi. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor-havaskorlik yo'nalishi shaklan va usluban bir-biriga yaqin bo'lib, to'ldirib keldi.

Hali badiiy soʻz ifodasining shakli topilmagan davrlardayoq odamlar turli harakatlarda, bir-biriga ovoz bilan, qarsak bilan munosabatda boʻlishni bilganlar. Keyinchalik qadimgi odamlar gapirishni, yozishni oʻrganganlarida oʻsha soʻzlarni ohanga solib avval soʻz xalqlarini, soʻngra kichik-kichik otishmalarni oʻrgana boshlaganlar.

Qadimiy Xorazm, Baqtriya va Soʻgʻd ellarida eramizdan bir necha asr oldin madaniyat va sanʼatning eng dastlabki koʻrinishlari mavjud boʻlgan Ayritom, Tuproq qalʼa, Afrosiyob kabi koʻhna shaharlardan topilgan tasviriy sanʼat obidalari, noyob toshga oʻyilgan turli xil tasvirlar, afsonaviy shaharlarning chiroyli koʻrinishlari, musiqa sanʼatiga molik toshdan va suyakdan yasalgan bir necha qadimiy cholgʻu sozlarining topilishi ham asosiy omil sifatida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etganligidan darak beradi. Mohir ijrochilarning qoʻllaridagi chang (arfa), udsimon, naysimon cholgʻu asboblari esa uzoq taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan mukammal sozlardir.

Qadimda, arab istilosidan oldingi davrlarda yozilgan, bevosita musiqaga oid risolalar bizgacha yetib kelmagan boʻlsa ham, soʻnggi vaqtlarda yaratilgan kitoblarda oʻtmish sanʼat tafakkuri haqida birmuncha maʼlumotlar berilgan. Ayniqsa, musiqa sanʼatiga oid Forobiyning “Katta musiqa kitobi”, Xorazmiyning “Ilmlar kaliti” nomli qomusi, Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiyning “Husrav va Shirin” dostonlari va boshqa manbalarda qadimgi zamon musiqasiga oid maʼlumotlar keltirilib, Barbod, Sarkash, Ozodvor, Nakisaga oʻxshagan zabardast cholgʻuchi, bastakor va musiqashunoslarning ijodi taʼriflanadi. Ular ijro etgan musiqa asarlarining nomlari, mazmuni hamda ichki tuzilishiga oid tushuncha va iboralar, shuningdek, ijrochilik anʼanalari tilga olinadi.

Musiqa, oʻrta asr ilmlar klassifikatsiyasiga koʻra, arifmetika, geometriya va astronomiya bilan bir qatorda matematik fanlar tarkibiga kiritilgan. Shu tufayli musiqaviy hodisalar hamda uning nazariy asoslari matematik uslublar yordamida ochib beriladi. “Musiqa- matematika ilmi boʻlib, unda kuy yaratishni bilish maqsadida nagʻmalarning oʻzaro moslashishi va moshlasmasligi jihati hamda ana shu nagʻmalar orasida oʻtadigan vaqt oʻrganiladi” –deb yozadi Ibn Sino.

Ammo musiqa ilmini mutlaqo sof matematik abstraktsiya deb tushunish ham o’rinli emas. Forobiy musiqa ilmini asoslashda: “Avvalo musiqa amaliyoti paydo bo’lib, keyin u haqidagi fikri vujudga keladi” –deb ta’kidlaydi...

XIX asrlarda Samarqand, Buxoro, Qo’qon va Xorazm kabi ilm va ma’rifat maskanlarida musiqa san’ati keng rivojlandi. Xususan, Mavlono Kavkabiy Buxoroiy va Darvesh Ali Changiylarning musiqiy-nazariy risolalari shu paytda yozilgan bo’lib, musiqa san’atida katta ahamiyat kasb etgan.[2]

Bu davrda eng katta salobatli maqomlarimizdan “Shashmaqom” turkumi mukammal shaklga kirdi. Shuningdek, dostonchilik san’ati ham yuksak rivojlandi. Binobarin, o’zbek musiqasi ikki asosiy tarmoqda – xalq ommaviy janrlari (bolalar qo’shiqlari, alla, yalla, terma, lapar, qo’shiq, lirik va raqs kuylari)ga va og’zaki an’anadagi ustozona (professional) musiqa (ashula, katta ashula, doston, maqomlar) yo’nalishlarida rivoj topib keldi.

XIX asrlarning II-yarmida Turkiston xonliklari rus chorizmi tomonidan bosib olinib boshlandi, natijada musiqa madaniyatimizga Rossiya orqali Yevropa musiqasi ta’siri jarayoni boshlandi. Sho’ro davrida musiqa madaniyatimizda turli o’zgarishlar ro’y berdi, chunonchi maktab ta’limi va musiqa o’quv yurtlarida musiqani yevropacha (fan sifatida) o’rganish joriy etildi. Shuningdek teatr, konsert muassasalari tashkil etildi. Kompozitorlik musiqa ijodiyoti uslubi vujudga keldi, natijada o’zbek kompozitorlari yetishib chiqdi.

Bizning maqsad va vazifalarimiz: bola maktabga borganda ma’lum ma’naviy xususiyatlarga ega bo’ladi, lekin haqiqiy ma’naviy fazilatlar maktabda ta’lim – tarbiya olish jarayonida paydo bo’ladi. Maktabda o’qitiladigan har bir fan, har bir mavzu o’quvchi ma’naviy – axloqiy qiyofasining boyishiga hissa qo’shib boradi.

Ayniqsa, xalq og’zaki ijodiy namunalari, shu bilan bir qatorda musiqa bolalarga kuchli ma’naviy ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ega. Musiqa tajribada sinalgan, minglab yillar davomida jamiyat a’zolarini eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi. O’quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirishda, ularni go’zal xulq egasi, komil inson sifatida tarbiyalashda musiqaning o’rni va ahamiyatini o’rganish ishimizning asosiy maqsadidir.

Xulosa qilib aytganda ulug' ajdodlarimiz yaratgan bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni bahramand etish milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni, yuksak tuyg'ularni kamol topdirishda qudratli ma'rifiy qurol vazifasini o'taydi. Shu ma'noda ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlar markazidagi tarixiy siymolar obrazlarini o'rganish, ularning insoniy qiyofasini anglash, amalga oshirgan ezgu ishlarining ahamiyatini idrok etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. "San'at va madaniyat hodimlari" kuni munosabati bilan bayram tabrigidan.
2. Karimov I.A. "Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish oliy saodatdir"
Тошкент: Ўзбекистон, 2007-Б. 85.

BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA BOLA RUHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Durdona Lutfillo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ruhiyatiga, fikrlash qobiliyatiga va estetik rivojlanishiga badiiy adabiyotning tasiri, shuningdek, bu jarayonda tabiiyachining mahorati va tutgan o'рни haqida so'z boradi bundan tashqari Maktabgacha talim muasasalarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayonidagi muammolar ham yoritilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о влиянии художественной литературы на психику, мыслительные способности и эстетическое развитие детей дошкольного возраста, а также о мастерстве и роли натуралиста в этом процессе. Кроме того, проблемы в процессе приобщения детей к художественной литературе в дошкольных образовательных учреждениях также охвачены.

Annotation: *This article talks about the influence of fiction on the psyche, thinking ability and aesthetic development of children of preschool age, as well as the skill and role of the naturalist in this process. In addition, the problems in the process of introducing children to fiction in preschool educational institutions are also covered.*

Kalit soʻzlar: *Badiiy obraz ,maktabgacha yoshdagi bolalar, tarbiyachi mahorati, Interperitatsiya, Inssenirovka, bola psixologiyasi, jargon soʻzlar .*

Malumki shaxsning fikrlash qobilyati va nutqi tashqi tasirlar natijasida shakllanadi. Badiiy adabiyot esa maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadigan bolaning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini rivojlantiruvchi vositadir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ongida adabiy asar mazmuni hamda badiiy shakl birgalikta paydo bo'ladi. Badiiy adabiyot orqali bola ruhiyatini istalgan tomonga yo'naltirish mumkin. Bu albatta u bilan shug'ullanuvchi shaxs ota- ona yoki tarbiyachaning mahoratiga bogliq.

Bola psixologiyasi shakllanishiga 3 ta omil tasir ko'rsatadi.

1. Kattalar nasihati
2. Badiiy asar (ertak,topishmoq,maqol, latifa,tez aytish,she'r,rivoyat)
3. Hayot voqeligi (turli xil o'yinlar, suhbatlar,bilimdonlar suhbatlari va hakozi)

Yuqorida ko'rsatilganidek bola psixologiyasida badiiy asarni o'rni katta. Badiiy adabiyot deganda faqatgina ertak hikoyalar bilan cheklanib qolmaslik kerak shariyat orqali ham ko'p voqeliklarni bolaga tushintirish mumkin.

Misol uchun Obid Rasulning Mehmon ulug' she'rida quyidagi satrlar keltirib o'tilgan :

Mehmon kelsa hurmat qilib ,
Assalomu alaykum ,de.
Dasturhon yoz,non ushatib,
Ol-olishib o'zing ham ye.

Shoir ushbu she'ri orqali bolaga mehmonni hurmat qilish joizligi, o'zbek xalqi azaldan mehmondo'st xalq ekanligini uqtirmoqchi bo'lgan.

Badiiy asarning tasir doirasi tarbiyachi mahorati bilan uzviy bog'liq. Tarbiyachi o'z nutqida turli xil shevaga oid so'zlar, jargon so'zlardan foydalanmasligi kerak. Tarbiyachida o'z navbatida aktyorlik mahorati, ovoz tembri, interpretasiya va insenirovka kuchli rivojlangan bo'lishi zarur. Shu bilan birga asarni bola yoshiga nisbatan to'g'ri tanlash, bolani asarga nisbatan to'g'ri xulosa chiqarishiga yordam berishi ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda ayrim tarbiyachilarda bu qobilyatlar yaxshi rivojlanmaganligi hamda o'z ustida yaxshi ishlamaganligi sababli bolalarda asarga nisbatan notog'ri xulosa chiqarish yoki badiiy adabiyotga nisbatan qiziqishning yo'qolish holatlari kelib chiqmoqda. Tarbiyachilar nafaqat asarni bolaga to'g'ri va qiziqarli yetkazib berish balki holat yuzasidan vaziyatga muvofiq o'z tasavvurlaridan foydalangan holda hikoya yoxud ertak tuzishlari ham mumkin.

Bolalarning e'tiborini nafaqat mazmuniga balki undagi so'zlarga ham jalb qilish zarur buning natijasida ularning nutq boyligini oshadi. Badiiy adabiyotning tarbiyaviy kognetiv va estetik ahamiyati yuqoridir. Bu orqali bolalarda milliyligimiz urf-odatlarimizga nisbatan mehr muhabbat shakllantirish mumkin. Asar bilan tanishtirish jarayonida bolalarga mos sodda tushinish oson bo'lgan so'zlardan foydalanish kerak.

A.A.Makarenko bolalar uchun yozayotganda nima haqida yozish emas, balki qanday qilib yozishning muhimligi haqida deb takidlagan edi yani badiiy asar bola ruhiyatida kutilgan natija ko'rsatishi uchun bazi talablarga ega bo'lishi lozim.

3. Badiiy obrazning ham, voqelikning ham aniq-tiniqligi ko'rimliligi. Bu xususiyat bolalar tafakkurining predmetliligi, aniqliligi va ko'rimlilikka asoslanishi natijasidir.

4. Hikoya qilishda lirik yoki komik maylning kuchliligi. V.G.Belinskiy bolalar adabiyotining asosiy xususiyati-uning emotsionalligi, deb ko'rsatib, bolalar kitobi "samimiy hislarga to'lib toshmog'i" lozimligini qayta-qayta ta'kidlagan edi.

5. Xarakter va hodisalar ifodasida, dinamikaning yorqinligi.

6. Tilning aniqligi, ravonligi, tushunarligi va emotsionalligi.

Bolalar adabiyoti ularning iymon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Faqat chinakam barcha talablarga javob bera oladigan badiiy asarlarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib psixologiyasida yorqin iz qoldira oladi.

Bolalar ulg'ayganlari sayin ularning nutq boyliklari ham oshib boradi. Ularga yangi so'zlarni o'z manosida izohlash va tushuntirish, fikrni to'g'ri yetkazish hamda badiiy did saviyalarini oshirishga ko'makchi bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar guruhlariga qarab badiiy asar bilan tanishtirish murakkablashib boraveradi. Badiiy qahromonlar orqali ularga yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, odob axloq qoidalari, milliy tariximiz haqida tushunchalar berish mumkin.

Bolalarda badiiy adabiyotga muhabbat faqatgina Maktabgacha talim tashkilotlarida rivojlanmaydi balki oila muhitida ham bu muhim o'rin egallashi lozim. Ularning psixologiyasidagi badiiy adabiyot o'rni kattalar mehnatiga bog'liq chunki maktab yoshidagi va undan yuqori yoshdagi bolalar mustaqil ravishda bu ishni amalga oshirishsa maktabgacha yoshidagi bolalar faqatgina oila azolari yoxud tarbiyachi yordamida badiiy adabiyot bilan tanishishadi.

Xar bir badiiy adabiyot turi bola ruhyatiga turlicha tasir o'tkazadi. Masalan xalq og'zaki ijodi namunalarida milliyligimiz xalqning turmush tarzi ananalari aks etgan bo'lsa jahon adabiyotida boshqa davlatlarning o'ziga xosliklari ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari maqollar tez aytish va topishmoqlar orqali ham bolaning fikrlash doirasi nutqi va xotirasi rivojlanadi. Mashg'ulot jarayonida ham badiiy adabiyoting istalgan turidan foydalanish va uning qiziqarli o'tishini taminlash mumkin. Bolalarda bu davrda atrof muhitga nisbatan qiziqish va savollar bisyor bo'ladi badiiy adabiyotda bu haqida mufassal javob berilgan. Tarbiyachi mashg'ulot boshlashdan avval bolalar bilan qiziqishlariga doir qisqa savol javob o'tkazishishi va bu orqali ularning qiziqishlariga mos badiiy asar tanlashi mumkin.

Turli asarlarni saxnalashtrish orqali ham bolalarni aynan u muhitga tushirish hamda vaziyat yuzasidan o'z xulosalarini chiqarishga yordam berishi

mumkin. Badiiy asar ruhiyatida tarbiyalangan avlodning fikrlash doirasi hamda dunyo qarashi jamiyatni yangi bir davrga olib chiqadi. Bolalar adabiyoti soʻz sanʼati va tarbiya vositasidir. Undan toʻgʻri foydalanish va bolaga singdirish xar bir bola tarbiyalayotgan shaxsning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. – T.; Oʻqtuvchi nashriyoti, 2008
2. Jamilova Bashorat Sattorovna Oʻzbek bolalar adabiyoti /oʻquv qoʻllanma / Toshkent; [Innavatsiya Ziya], 2020
3. D.R. Babayeva "Nutq oʻstirish nazriyasi va metodikasi" -T.: "Barkamol avlod fayz", 2018.
4. Z.Mashrapova T.Matyokubova oʻzbek yozma adabiyotida folklore anʼanalari Toshkent- 2011

OʻZBEK XALQ MAQOLLARIDA DEHQON OBRAZI

Abdullajonova Mahliyo

Namangan davlat pedagogika instituti
Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi talabasi

Annotatsiya: *Oʻzbek folklorida xalq maqollari oʻzining taʼsir kuchining yuqoriligi, tarbiyaviy ahamiyati va qisqa, ixcham fikr ifodalashi bilan koʻzga tashlanadi. Maqollarda turli kasb egalarining sifati, xalqqa foydasi ham shunday tasvirlanadiki, bu yosh avlodda mehnatsevarlik, kasbiga sadoqat tuygʻularini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit soʻzlar: *maqol. Obraz, taʼsirchanlik, zargar, choʻpon, ovchi, qofiya*

Аннотация: *В узбекском фольклоре народные пословицы отличаются высоким влиянием, воспитательной ценностью, кратким, лаконичным выражением мысли. В пословицах качества различных профессий и их польза для народа описываются так, что это служит формированию у молодого поколения чувства трудолюбия и верности профессии.*

Ключевые слова: пословица. Образ, впечатление, ювелир, пастух, охотник, стишок

Annotation: *In Uzbek folklore, folk proverbs are notable for their high influence, educational value, and short, concise expression of thought. In the proverbs, the qualities of various professions and their benefits to the people are described in such a way that it serves to form feelings of hard work and loyalty to the profession in the young generation.*

Key words: *proverb. Image, impression, jeweler, shepherd, hunter, rhyme*

O'zbek xalqining jahon xalqlari o'rtasida tutgan o'rni, insoniyat tamaddunlariga qo'shgan munosib hissasi, avvalo xalq og'zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko'rinadi. O'zbek folklori yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o'tgan asr avvallaridan boshlangan bo'lsada, xalq og'zaki ijodini chinakam, Har tomonlama o'rganish, bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. Folklor turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondashuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Folklor atamasi keng ma'noni qamrab oladi. Chunki unga xalq tomonidan kashf qilingan qaysi san'at turi bo'lmasin, barcha-barchasini kirita olamiz. Folklor asarlarning o'ziga xos an'analaridam biri bu uning og'izdan-og'izga ko'chib kelishidir. Shundan kelib chiqqan holda uning mavzu qamrovi ham xalqning turmush tarzi bilan bevosita bog'liq. U xalqning maishiy hayotidagi voqea-hodisalarni ifodalab keladi. Chunki xalqimizda yaralgan oddiygina kichik bir topishmoq ham uning kundalik faoliyatidagi harakatini ko'rsatib beradi. Xalq maqollarining mazmun ko'lami inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo'q ekan, maqollar mazmuni chegarsini ham o'lchab bo'lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e'tiborga arzimaydigandek ko'rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o'z aksini topgan. O'zbek xalq maqollarida dehqon-xalqni to'ydiruvchi, rizqlantiruvchi, butun mavjudotga foydasi tegadigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek u bog'bon, zargar,

ovchi, cho'pon kabi kasblar bilan qiyosan tasvirlanadiki, bu dehqon obrazining ahamiyatini yanada oshiradi.

Bog'bon bog'ini tuzar,

Dehqon dalasin suzar.

Bog'bon o'z bog'ini paydo qilar ekan o'z rejasi bo'yicha o'z nihollarini ekadi, ya'ni ko'chatlar tartibini tuzadi. Dehqon kishi esa dalasidagi hosilini yil oxirida yig'ib olishi xuddi qozondan taom pishgandan so'ng uni suzib olinishiga taqqoslanadi. Xalq maqollarida qofiyadoshlik janriy belgilardan biri hisonlansa-da, bu maqolda bog'bon va dehqon so'zlarining ohangdoshligi tuzar va suzar so'zlarining qofiyadoshligi bilan mukammal kompozitsiyani hosil qilmoqda.

Bog'bon bo'lsang, sarxar qil

Dehqon bo'lsang, shudgor qil.

Bu maqoldan ko'rinib turibdiki, bog'bon insonga bog'ini eng sara ko'chatlar bilan boyitishi talabi qo'yilsa, dehqonga esa yerini shudgor qilish talabi qo'yilmoqda. Chunki yovvoyi daraxtlar o'sgan yoki sifatsiz navli mevazor bog'ning foydasi kam bo'lganidek, shudgorsiz yerdan ham kutilgan hosil olib bo'lmaydi. Maqolda sarxar va shudgor so'zlari qofiyadosh bo'lsa, qil so'zi radif vazifasini bajargan.

Ovchining zo'ri sher otar,

Dehqonning zo'ri yer ochar.

Bu jumlada ovchi va dehqon obrazlari ba'zi belgilar orqali solishtirilmoqda. Ovchining zo'ri sherni ya'ni hayvonlarning shohini ovlay olishi bu uning mohirligidan dalolat bersa, dehqonning hali o'zlashtirilmagan yerlarni gullab-yashnatishi bu uning mehnatsevarligini ko'rsatib beradi.

Zar bo'lmasa, zargar-xarob,

Yer bo'lmasa, dehqon-xarob.

Bu maqol orqali biz har bir kasb-faoliyat egasining masalan, zargarining eng asosiy quroli zar ya'ni rangli metallar ekanligi, u bu mahsulotlarsiz zargarlik bilan shug'ullana olmasligini anglasak, dehqonning mehnati obyekt-yer, usiz haqiqatan dehqon foyda ololmasligiga iqror bo'lamiz.

Dehqon odam don sochar

El-yurtiga non sochar.

Bu fikrlar orqali biz dehqon insonni rizq-u nasiba ramzi sifatida qabul qilamiz. U halol mehnati va to'kkan teri evaziga butun el-yurt to'q, shod-xurram yashaydi. Dehqon eksa, el to'yadi. Bu maqol ham yuqoridagi fikrimizning yaqqol na'munasidir.

Dehqon qorda tinar,

Cho'pon go'rda.

Dehqon faqat qishdagina o'z ona yeri bilan dam oladi va uzoq qish kechalarida faqatgina tezroq bahor kelishini kutadi. Cho'ponni bu yerda solishtirilishining sababi u hattoki qishda ham tinmasligi, ya'ni dam olmasligi kinoya orqali ifodalanadi. Dehqon va cho'pon hamda qorda va go'rda so'zlari ichki qofiyalikni hosil qilmoqda.

Dehqon obrazi barcha kasblar kabi o'zbek xalq folklorida ulug'langan va hech qaysi kasbni kamsitmagan holda boshqa kasblar bilan solishtirilganining guvohi bo'lamiz. Xalq maqollaridagi dehqon obraziga e'tibor bu kasb egalariga xalq orasida juda katta ehtiyoj borligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K.. O'zbek xalq og'zaki prozasi. – T.: Fan, 1981.
2. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010.
4. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., 2005.
5. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O'qituvchi, 1971. – B. 41-55.
6. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995. –168 b.
7. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti (qadimgi davr folklori) / O'zbek folklori ocherklari. 1-tom. – T.: Fan, – B. 25-35.
8. Sarimsoqov B., O'zbek folklorining janrlar sostavi / O'zbek folklori ocherklari. 1-tom. – T.: Fan, 1988. – B. 63-85.

9. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Musiq», 2010. – 368 b. 20. Umarov S. Rivoyat va hayot. – T.: Fan, 1988.

O'ZBEK VA INGLIZ ALLALARIDA OBRAZLAR SILSILASI

Ahmadaliyeva Mo'mina

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodida yetakchi o'rin egallaydigan, qo'shiqlaridan biri alla haqida so'z yuritiladi. Alla xalq og'zaki ijodining bir ko'rinishi va madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimiz hisoblanadi. Alla so'zining ingliz va o'zbeklarda qo'llanishi va bolaning tarbiyasi allaning o'rnini haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Alla, bola, xalq og'zaki ijodi, kuy*

Annotation: *This article talks about one of the songs, Ona Alla, which occupies a leading position in Uzbek and English folk music. Alla is a manifestation of folk creativity and our cultural heritage, spiritual wealth. The use of the word Alla in English and Uzbeks and the role of Alla in child education are discussed.*

Key words: *Lullaby, children, creative, tune*

Insoniyat tafakkurining tamal toshi bo'lmish alla qo'shiqlari Odam ato va Momo Havo davrida paydo bo'lgan degan qarashlar mavjud. Barcha xalq og'zaki ijodi janrlari kabi onalar qo'shig'i bo'lmish alla ham har davrning o'ziga xos jihatlari bilan uyg'unlashgan holda o'zgarib borgan.

"Alla"-bu beshik qo'shig'i bo'lib, ona suti bilan birga bolaning ruhiyatiga singib boradi. Onaning chin yurak to'ridan aytilgan allasida chuqur mazmunli so'zlar yordamida uning o'z bolasiga bo'lgan mehri, uning kelajagiga, umr yo'lga yaxshi niyatlar bilan ijobiy istaklarda ko'rinadi. Alla bolani uxlatish paytida kuylab aytiladigan misralardan iborat bo'lib, inson uchun eng bebaho kuydir.

Sh.Rahmutullayev "alla"so'zini qadimgi turkiy tilida tinchlanish ma'nosini bildirib va kuylanadigan misralar oxirida kelganida bu so'z undovlik xususiyatini saqlaydigan.Shimday misralarning nomi sifatida esa otga teng bo'ladi,-deb aytib o'tadi.

Jon bolam, erkatoyim,

Bulbulginam, alla.

Mehribonginam, alla.

Uxlasin oppoqqinam,

Shunqorginam, alla.

O'zbek allalarida bolani " Bulbul"ga, "qo'zichoq"qa, "Shunqor"ga istioralash holatlari ko'plab uchraydi.Erkalash pozitsiyasidagi bunday troplar "erkatoy", "mehribon", "oppoqqina" kabi sifatlashlarga ulanib ketadi.

Alla" so'zi chig'atoycha "allala" shaklida bo'lib "boshning orqasi" degan ma'noni anglatadi deb ta'rif bergan L.Z. Budakov. Bu esa bizga kelib "alla" shakliga o'zgargan bo'lib, bolani allalab, ovutib uxlatishni anglatib kelmoqda. Ingliz tilida esa "lullaby" deyilib, uni ikki qismga bo'lish mumkin: etimologik jihatdan aytilsa "lull" so'zi tinchlanib uxlamog, degan ma'noni, "aby" esa yaqin, oldida degan ma'nolarni anglatadi.

Ingliz allalarida deyarli ko'pida farishta detalini ko'ramiz va bu inglizlarda farishta xudoning yordamchilari, insonlar va xudo o'rtasida vositachi, insonlarni yovuzlardan himoya qiluvchi degan e'tiqod mavjud. Yuqoridagi misralardan ko'rinib turibdiki, farishtalar kechasi go'dakning huzuriga kelib ularni yonlarida uxlashlari mumkin degan ma'noni tushunamiz. Shuningdek ingliz va o'zbek madaniyatida "Farishta" deb insonlarni atashadi va bu yaxshi fe'l-atvorli, xulqli insonni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Angels shall come

And stand closely to keep

Watch over you, little baby

Bye-bye to sleep, little baby

Farishtalar keladi

Seni yaqinroq ushlab turish uchun

Siz ehtiyot qiling, kichkina bola

Xayr, uxla, xayr, go'dak

Professor To' ra Nafasovning fikriga ko'ra allalarning bandi miqdori turlicha. Eng kichigi ikkiliklardan iborat. To'rtliklar allalarning asosini tashkil etadi. Beshlik, oltilik, sakkizlik va undan ko'p misrali allalar ham mavjud. Hatto 20 misralik allalar ham yozib olingan. Ko'rinadiki, allalarning misralarida cheklanish, deyarli, yo'q. Allalarning miqdori allachining holati, kayfiyati, bilag'onligi, zukkoligi, donoligi, she'riyatga munosabati kabi qator omillarga bog'liqdir. To'rtliklar shaklidagi allalar tuzilish jihatidan xalq qo'shiqlariga o'xshab ketadi. O'xshash deyish albatta shartlidir, ya'ni faqat misralarning miqdorida bir xillik bor. Mazmunan tubdan fardlanadi, aytuvchilari ham, yaratuvchilari ham o'zga-o'zga shaxslar, aytilish makoni va zamoni ham farqli. To'rtliklarning 1-2-misralarida onaning falsafiy va hayotiy mulohazalari, tabiat va jamiyat haqidagi kuzatuvlari natijasi, turli-tuman fikrlari aks etgan bo'ladi. To'rtlik allalarning ana shu boshlanish qismi qo'shiqlar misralaridagi fikrga, ohangga mos. Ammo so'nggi 3-4-misra bola haqidagi fikrlar: istak, orzu, umid, niyat, tilak, xohish, kelajak rejalari va shunga o'xshash mazmundagi misralar bilan ifodalanadi. Ingliz allalari ham ikkilik, to'rtlik shakllariga ega bo'lib, onaning his-yuyg'ulari tarjimoni sifatida yuzaga keladi.

Alla xalq madaniyatining muhim elementi bo'lib, o'ziga xos madaniy ma'no va ahamiyatga ega. Ushbu madaniy element uzoq vaqtlardan beri turli xalqlar va madaniyatlarda mavjud. Ona allasi orqali o'z madaniyatini farzandiga singdiradi, lekin hozirgi zamonga kelib ba'zi onalar yoki tarbiyachilar chaqaloqqa alla aytishdan ko'ra unga telefon orqali yozib olingan kuyni qo'yib beradilar. Chaqaloqlar uchun tanish ovozlar, tanish qo'shiqlar, mehrli ovoz ohangi va tabassumli chehralar muhim, bu chaqaloqlarni mamnun qiladigan narsalardir. Haqiqatdan ham, alla ota-onalar va go'dak o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, his-tuyg'ularni almashish ham aloqadir

O'zbek allalarida bola beshigi oltindan, kumushdan tavsiflansa, ingliz allarida bolaning tòshagini atirgullar bilan bezatilgani tasvirlanadi.

Lullaby and goodnight, with roses bednight
With lilies out spread is babys wee bed
Lay thee down now and rest may thy slumber be bleased
Lay thee down now and rest may thy slumber be bleased

Tarjimasi:

Uxla va xayrli tun, tunda atirgullar
Va liliyalar Bilan yoyilgan yatog'ingda.
Endi yot va orom ol, uyqung tinchlansin

Endi yot va orom ol, uyqung tinchlansin. Ingliz onalari bolasining to'shagini go'zallik timsoli atirgullar va liliya gullari bilan bezar ekan, o'zbek onalari bolaning o'zini gulga mengzab qo'ya qolishadi.

Qizil gul tizim – tizim, alla,
Ikkiga kirsin qizim, alla
Qoshlari qunduzgina, alla
Muncha shirin bu qizgina, alla

Ona qizginasini gul-lolaga qiyoslab, qoshlarini qunduzga tashbehlaydi. Qizining yoshiga mos ravishda sifatlashlar topib uni erkalaydi.

Dunyoda alla aytmaydigan millatlar yo'q. Alla qaysi tilda jaranglamasin, onaning his-tuyg'ulari, kechinmalari namoyoni bo'lib qolaveradi. Bola ona allasi bilan o'z tiliga muhabbat va xalqiga sadoqat tuyg'ularini shakllantiradi. Shuning uchun biz allalarni abadiy hayot qo'shig'i deb ataymiz.

Qo'llangan adabiyotlar:

1. O.Safarov. O'zbek bolalar folklori . – Toshkent – 2007. 17 – bet
2. D.Harper " Lullaby" Online Etymology Dictionary. 2013
3. Sh Rahmatullayev. O'zbek tili etimologik lugati. 1- jild. Toshkent-2000, 599 bet

MILLIY MA'NAVIY MEROSIMIZDA AXLOQ-ODOB MASALALARI

Nomanov Kozim Komoliddinovich,
University of Business and Science,
Pedagogika-psixologi yo'nalish magistranti
Telegram manzil: @k84nk
Telefon raqam: 945904011

Annotatsiya: Talaba yoshlarni Vatanga sadoqat, elga muhabbat ruhida tarbiyalashning bosh mezon, albatta, ma'naviy merosimiz va milliy qadriyatlarimizdir. Kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklashda, yangi marralarni zabt etishga ishonch bag'ishlashda biz ajdodlarimiz qoldirgan boy adabiy va ma'naviy taraqqiyot mahsullariga suyanamiz. Universitet talabalarida go'zal xulq va tarbiyani shakllantirishda milliy ma'naviy merosimizning o'rnini salmoqlidir.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ma'naviyat, qadriyatlar, pedagogik salohiyat, tafakkur

Аннотация: Главным критерием воспитания учащейся молодежи в духе верности Родине и любви к стране являются, конечно же, наше духовное наследие и национальные ценности. Чтобы повест будущее поколение к хорошему развитию, дать уверенность в победе новых вех, мы опираемся на богатые продукты литературного и духовного развития, оставленные нашими предками. Наше национальное духовное наследие должно сыграть свою роль в формировании хорошего поведения и образования у студентов вузов.

Ключевые слова: национальное образование, духовность, ценности, педагогический потенциал, мышление.

Annotation: The main criterion for educating young students in the spirit of loyalty to the Motherland and love for the country is, of course, our spiritual heritage and national values. In order to lead the future generation towards good development, to give confidence to conquer new milestones, we rely on the rich literary and spiritual development products left by our ancestors. we lean Our

national spiritual heritage should play a role in the formation of good behavior and education in university students.

Key words: *national education, spirituality, values, pedagogical potential, thinking*

KIRISH

O'zbek xalqining shunday o'ziga xos qadriyatlari, milliy madaniy-ma'naviy merosi borki, ular mamlakatda yashayotgan har bir oila, har bir jamoa va oliy o'quv yurtlari talabalarining ham turmushining barcha jabhalaridan chuqur o'rin egallagan. Milliy ma'naviyatimiz asoslari orqali xalqimizning o'zligini, borlig'ini, turmush tarzi va an'alarining tarixiy ildizlarini teranroq anglashimiz mumkin. Shu xususiyat saqlanib qolinsa, millat o'z tanlab olgan yo'lidan og'ishmay olg'a boradi. Milliy ma'naviyatimiz bugungi kunda jamiyatning har bir sohasi bilan o'zaro uyg'unlashlashib bormoqda. Ma'naviy meros – ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuyini ifodalaydigan tushuncha. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida “Har bir kishi o'z tabiatiga ko'ra turli darajali yetuklikka erishish uchun intiladi, bunday yetuklikka faqat ilm orqali erishish mumkin”.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy meros ajdodlar tajribasi, qoldirgan ma'naviy boyliklarining kelgusi avlodlarning amaliy faoliyati, tafakkur tarzida qanday ahamiyat kasb etishiga ko'ra, yakka shaxs, alohida guruh yoki muayyan millat vakillariga tegishli bo'lishi mumkin. Ular ma'lum milliy tilda yaratilgani, milliy urf-odatlar, an'alar, milliy taraqqiyot yo'lini aks ettirishiga ko'ra millatga, ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi turli millatlarni qamrab olishi xususiyatiga ko'ra jamiyatga, ma'lum bir davlat hokimiyati amal qilib turgan davrda yaratilganiga ko'ra davlatga, insoniyat tarixida tutgan yuksak o'rniga ko'ra sivilizasiyaga xos bo'lishi ham mumkin.

Shuningdek, ma'naviy meros bir vaqtning o'zida millat, davlat, mintaq va butun imkoniyatga tegishli bo'lishi ham mumkin. Muhaddis olimlarimiz Imom Buxoriy va Imom Termiziyning diniy-ma'rifiy merosi, Beruniyning Minereologiya, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga yoki Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga tegishli kashfiyotlari, nafaqat o'zbek millatining, mintaqamizda istiqomat qilayotgan xalqlar, balki jahon sivilizasiyasi, madaniyatiga oid o'rin bebaho ma'naviy meros hisoblanadi. Ma'naviy meros moddiy merosdan farq qilgan holda, olamda va insonning ichki ruhiyatida ro'y bergan, berayotgan yoki berishi mumkin bo'lgan intellektual va psixologik holatlar, xatti-harakatlar, amaliy faoliyat va uning natijalarini anglashga keng imkoniyatlar yaratishi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birgalikda, ma'naviy merosni moddiy merosga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. O'tmishda moddiy boyliklarni yaratishda foydalanilgan texnologiyalar, qo'l ishi mehnati, yaratilgan me'morchilik obidalari shaxsning tafakkuriga ta'siri natijasida ma'naviy merosga aylanishi ham mumkin. Xuddi shuningdek, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalari moddiy merosga mansub bo'lsa-da, bu boradagi an'analarning ajdodlardan avlodlarga o'tishi ma'naviy meros tarzida amalga oshadi. Shu jihatdan olib qaraganda, insoniyatning yozma manbalarda aks etmagan ko'plab tabiiy ko'nikmalari ma'naviy meros tarzida ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi. Yozuvning kashf etilishi insoniyatning o'z ma'naviy merosini saqlash va boyitish yo'lida juda kata yutuqlarga erishishiga sabab bo'ldi. Kishilar ongi, ichki dunyosi, tafakkur tarzi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g'oyaviy yo'nalishlarga boshqarish ma'naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, bugungi kunda ma'naviy merosning odamlar hayot tarziga chuqur ta'sir etadigan qadriyat sifatida ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jamiyat tafakkuridagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar, dunyoqarash, urf-odat, an'analar va munosabatlar kelajak avlodning ma'naviy merosini belgilaydi. Madaniy qadriyatlar va ma'naviy meros ming yillar mobaynida xalqimiz uchun qudratli ma'naviyat manbayi sifatida xizmat qilib kelgan. O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li ma'naviy meros nuqtai nazaridan to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar: umuminsoniy

qadriyatlarga sodiqlik; xalqimiz ma’naviy merosini qayta tiklash, mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o’z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; vatanparvarlik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda O’zbekiston zaminining nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo’lgani e’tirof etilmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Milodgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko’rk-u fayzini, mahobatini yo’qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo’lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo’lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o’n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bu qadar katta merosga ega bo’lgan xalq dunyoda kam topiladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon hisoblanadi va uni takomillashtirishga innovatsion yondashuv yangilik o’rin almashinuvchi, bekor qilinuvchi yoki ochib beruvchilarga qarab belgilanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Xalqimizning haqiqiy ma’naviy merosi bo’lmish iymon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo’stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodning qon-qoniga singdirish va talaba-yoshlar tafakkurida ularga cheksiz hurmat hissini uyg’otish uchun oliy ta’lim muassasalarida, kutubxonalarda, ma’naviyat maskanlarida keng targ’ibot ishlarini olib borish, turli milliy va folklor festivallarini o’tkazish bugunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Urf-odatlar, an’analar, xalq og’zaki ijodi, fan, adabiyot ma’naviy meros tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSALAR

Xalqimizning milliy-madaniy an’analari, udumlari, ulug’ siymolarning pedagogik fikrlarini ijobiy o’rganish asosida bo’lajak mutaxassislar o’qishi, mehnat faoliyati, o’zaro munosabatlari, ichki “men”i va umumiy hayot faoliyatida tamal toshi sifatida qabul qilsak, jamiyatimizning davomchilari-yoshlar ongini turli yot g’oyalardan samarali himoya qilgan bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маънавийят ва мустақиллик. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент Давлат педагогика институти. Тошкент , 1993 . 14- бет.
2. Хайруллаев М. М. Форобий ўқитиш жараёнида ғоявий тарбия ҳақида . Т.: “ Ўқитувчи” 1967. Хайруллаев М.М . Форобий . Т.: “ Ўзбекистон” , 1991.
3. Хайруллаев М. М Форобий руҳий процесслар ва таълим – тарбия ҳақида. - Т.: Ўқитувчи, 1967. Хайруллаев М. , Шораҳмедов Д. Маданият ва мерос. – Т .: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.
4. Ачилов М. Нравственное формирование будущего учителя, Т.: “ Ўқитувчи “ , 1979.
5. Очилов М. Студентларнинг ахлоқий тарбия жараёни. – Т.: Ўқитувчи, 1978
6. Антология педагогической мысли УзССР. М .: “ Педагогика “ , 1986
7. Темурова С . Болаларни прогрессив традициялар намунасида тарбиялаш . – Т .: Ўқитувчи, 1975 . – 111 б.
8. Мусурмонова О. Адабиёт ва ахлоқий тарбия . Т .: “ Ўқитувчи” , 1988. Мусурмонова О. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш. Т: Фан , 1993. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари. Педагогика фанлари доктори . . . диссертация . Тошкент, 1993 . – 364 б.
9. Г.В.ИЗБУЛЛАЕВА. ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙНИНГ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ методик қўлланма Тошкент, “Наврўз” нашриёти, 2015

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI - YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING XALQARO HUQUQIY ASOSI

J.A.Umarov

*Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish
metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanishi va uning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashdagi muhim ahamiyati va o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar- deklaratsiya, konstitutsiya, inson, huquq, erkinlik, tenglik, jamiyat, davlat, xalqaro hujjatlar.

*Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib
tug‘iladilar.*

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1-modda

Jamiyatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning, shu jumladan iqtisodiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlarning asosida oilalarni mustahkamlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda yanada farovonligini ta’minlash maqsadi yotadi. Shu o‘rinda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi chinakam xalqchil demokratik konstitutsiya sifatida xalqning takliflari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, bir necha marta umumxalq muhokamasida o‘tgan va umumxalq ovoz berishi yo‘li bilan referendum o‘tkazish oqali qabul qilinganligi bilan jahon hamjamiyati tarixida ilk bor qabul qilingan konstitutsiya hisoblanadi hamda barcha huquqiy hujjatlarning, shu jumladan inson huquqlarining bevosita huquqiy poydevori sifatida namoyon bo‘ladi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib,...inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda,...xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo’shni davlatlar bilan do’stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib,...fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz”-deb bejiz ta’kidlanmagan.

Bunga asos bo‘lib, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” xizmat qilgan. Dunyo hamjamiyati ushbu xalqaro hujjatni qabul qilishi uchun insoniyat muayyan qirg‘inbarot urishlarni doshidan kechirishini taqozo etgan. Ma’lumki, dunyo tarixidagi eng qonli urush sanalgan ikkinchi jahon urushidan so‘ng Yevropa va Osiyoning eng yirik mamlakatlari xarobazorlarga aylanib, million-million insonlarning yostig‘i quridi, undan-da ko‘proqlari urush asoratlaridan, ocharchilikdan aziyat chekdi. Shunday murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda aslida shu kabi jahon urushlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun xalqaro tashkilotga ehtiyoj sezildi. 1945 yilning aprel oyida dunyoning 50 mamlakati delegatlari San-Frantsiskodagi konferentsiyada tinchlikni saqlash va urushlarning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi xalqaro organni shakllantirish maqsadida yig‘ildilar. Mazkur tashkilot ideallari uning muhokamaga qo‘yilgan ustavi preambulasida yaqqol ifoda topdi: “Bizkim, Birlashgan millatlar xalqlari, kelgusi

avlodlarni umrimiz davomida ikki bor bashariyatga cheksiz musibat olib kelgan urush talofatlaridan asrashga qat’iy ahd qilganmiz”.

Bugungi kunda inson huquqlari, tinchlik va barqarorlikni saqlash borasidagi eng nufuzli tashkilotlardan biri – Birlashgan Millatlar Tashkiloti ana shu taqlid vujudga keldi. Tashkilotning Ustavi 1945 yilning 24 oktyabr sanasida tasdiqlandi va shu kundan e’tiboran ushbu sana BMT kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tarkibidagi o’ttizta modda insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini ta’kidlaydi. Ularda mulk, yashash, oilaviy munosabatlarga kirishish, fuqarolik, shaxsiy daxlsizlik, mehnat qilish kabi huquqlarga egalik har bir inson uchun nafas olishdek tabiiy holat ekanligi ifoda topgan bo’lib, bugungi kunda dunyoning demokratik taraqqiyot yo’lidan borayotgan barcha davlatlar konstitutsiya va qonunchilik hujjatlari deklaratsiya moddalarida bayon etilgan g’oyalarga tayanib tuzilgandir.

Joriy yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganiga 75 yil to’ladi. Shu munosabat bilan butun dunyoda, jumladan, O’zbekistonda ham, qator tadbirlar o’tkazilmoqda. Xususan, joriy yilning may oyida respublikamizda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qabul qilinganing 75 yilligiga bag’ishlangan tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Davlat, jamiyat va fuqarolarning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tamoyillari va qadriyatlariga e’tiborini kuchaytirish, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy va boshqa choralar tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, qonunchilikka va davlat organlarining amaliy faoliyatiga inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro standartlarni implementatsiya qilish mexanizmlari va tartibi samaradorligini oshirishga qaratilgan ushbu dastur doirasida mamlakatdagi barcha oliy va o’rta ta’lim muassasalarida maxsus darslar, inson huquqlari himoyasi sohasida amalga oshirilayotgan o’zgarishlar, xalqaro tajriba almashinuvini ta’minlovchi ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish nazarda tutilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi XX asrning eng muhim hujjatlaridan biridir. U 350 dan ortiq tilgan tarjima qilingan. Deklaratsiya qabul qilinganiga 75 yil boʻlganiga qaramasdan, bugungi kungacha u davlatlar, shaxslar va nodavlat tashkilotlarning inson huquqlari sohasidagi faoliyatining asosi hisoblanadi. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda BMTning boshqa hujjatlari qatori Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan normalarni hayotga tatbiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan joriy yilning 12 may kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida” farmoni qabul qilindi. Farmon bilan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bagʻishlangan tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Mazkur hujjat dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan va boshqa hech qaysi xalqaro hujjat bunday sharafiga daʼvo qila olmaydi. Chunki unda sayyoramizda yashayotgan har bir insonning, u qaerda tugʻilgani, yashayotgani, qaysi millatga mansubligi, qanday tilda soʻzlashishi, diniy eʼtiqodidan qatʼi nazar, bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani belgilangan.

Ushbu hujjat, oʻzining tavsiyaviy xarakterga ega ekanligiga hamda siyosiy xususiyatiga qaramasdan, butun xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro-huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqaradigan hujjat sifatida tan olingan. U inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimini rivojlantirishda yangi sahifa ochgan hujjatdir. Deklaratsiyaning asosiy tamoyil va qoidalari jahondagi aksariyat davlatlarning Konstitutsiyalaridan joy oldi hamda ularning inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchiligi rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi va milliy huquqning tarkibiy qismiga aylandi.

Hozirgi vaqtda 1948 yildan keyin qabul qilingan 100 dan ortiq davlatlarning milliy Konstitutsiyalarida Deklaratsiya qoidalariga uygʻun va hamohang koʻplab moddalar mavjud. Shu jumladan, 1992 yil 8-dekabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi uchun ham inson huquqlari boʻyicha universal standartlar uchun aniq “yoʻlchi yulduz” vazifasini bajardi, desak, mubolaga boʻlmaydi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo'ldi. Zero, demokratik, huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishining, butun ichki va tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishi etib belgiladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik normalarida o'z ifodasini topgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimiz tarixida birinchi marta Deklaratsiyaning 1-moddasida mustahkamlangan inson huquqlarining tabiiy huquq ekanligini tan olib, Konstitutsiyaning 19-moddasida inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishini huquqiy mustahkamlab qo'ydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi hamda milliy qonunchilikka nisbatan ustun ahamiyatga egaligi tan olinganligi, fikrimizcha, alohida e'tiborga molik.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 19-moddasida O'zbekistonda insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan e'tirof etilishi va kafolatlanishining belgilangan bo'lib, Deklaratsiyaning inson huquqlari bo'yicha umume'tirof etilgan hujjat sifatida davlatimizda bebosita amal qilishini nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, respublikamizda inson va fuqarolarning har tomonlama kamol topishi va istiqboli porloq bo'lishi uchun yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz timsolida mustahkam huquqiy poydevor yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari milliy bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son farmoni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 22.06.2020-y.

3. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>.

4. A. Mo'minov, M. Tillabayev "Inson huquqlari" (217-220 betlar) darslik ikkinchi nashr // - Toshkent : Adolat 2013-y.

YURIDIK SHAXSLARNING VUJUDGA KELISH VA BEKOR BO'LISHIDA RAXBARNING O'RNI

Ne'matjanov Samandar Jaxongir o'g'li

*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi MIG'-AU-21 guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik shaxsning paydo bo'lishi va tugatilishida rahbarlarning hal qiluvchi roli o'rganiladi. Unda yuridik shaxsni tashkil etishning turli bosqichlari, jumladan, shakllanish, tan olinishi va davom etishi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, u rahbarning yuridik shaxsni tugatish vakolatini va bunday xatti-harakatlarning oqibatlarini o'rganadi. Tegishli amaliy tadqiqotlar va huquqiy asoslarni tahlil qilish orqali ushbu maqola yuridik shaxslarni shakllantirishda rahbarlarning muhim vazifalarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Yuridik shaxs, rahbar, tarix, hokimyat, boshqaruv, huquq, xodim, litsenziyalash, ruxsatnomalar, soliq.

Аннотация: В данной статье рассматривается решающая роль руководителей в создании и ликвидации юридического лица. В нем рассматриваются различные этапы образования юридического лица, включая образование, признание и продолжение деятельности. Кроме того, рассматриваются полномочия исполнительной власти по прекращению

юридического лица и последствия таких действий. Посредством анализа соответствующих тематических исследований и законодательной базы данная статья призвана пролить свет на важные задачи менеджеров при создании юридических лиц.

Ключевые слова: Юридическое лицо, руководитель, история, полномочия, управление, закон, работник, лицензирование, разрешения, налог.

Abstract: *This article examines the decisive role of leaders in the creation and liquidation of a legal entity. It examines the various stages of legal entity formation, including formation, recognition and continuation. In addition, it examines the executive's authority to terminate a legal entity and the consequences of such actions. Through the analysis of relevant case studies and legal frameworks, this article aims to shed light on the important tasks of managers in the formation of legal entities.*

Key words: *Legal entity, leader, history, authority, management, law, employee, licensing, permits, tax.*

Conclusion: Storytelling is not an unknown concept in teaching and learning a foreign language. The main purposes of using stories and retelling the plot of stories are to challenge, educate, motivate, develop critical thinking, creativity, imagination, stabilize knowledge and learn intercultural communication. Storytelling helps learners to stabilize skills. We firmly believe in the validity of this approach because it brings the world students into the narrow space of classrooms and, in doing so, it may make learning more well-rounded and experienced and, as a consequence, easier. Moreover, as we have already stressed, the use of this approach may help students and people in general discover how similar their lives are to those of people living elsewhere, thus leading to a greater understanding and acceptance of different worlds and to a widening of horizons. It is not possible to consider a target language without understanding and appreciation of its culture. We do hope, therefore, that this approach may become more and more popular.

Bibliography:

5. Story-based language teaching method/ <https://sanako.com/story-based-language-teaching>
6. Byrnes, H. 2008. Articulating a foreign language sequence through content: A look at the culture standards. *Language Teaching* 41 (1): 103–118
7. Cohen, A. D., R. M. Paige, B. Kappler, M. Demmessie, S. J. Weaver, J. C. Chi, and J. P. Lasse-gard. 2003. *Maximizing study abroad: A language instructor's guide to strategies for language and culture learning and use*. Minneapolis: Center for Advanced Research in Language Acquisition, University of Minnesot
8. Byram, M. 1997. *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Clevedon, UK: Multilingual Matters.
9. Linguists and cultural anthropologists made the relationships between language and culture clearer with the development of structural linguistics. (Sapir in Kitao 2000)

10. Developing cultural awareness in ELT (thesis)\ Lucie Vrbova 2006
11. Why we should learn a foreign language with stories/
<https://langster.org/en/blog/why-you-should-learn-a-foreign-language-with-stories/>

O‘ZBEKISTONDA MUSIQIY MEROS NAMUNALARIGA MUNOSABAT

Zokirjonov Abbosbek Zokirjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti talabasi

abbosbekzokirjonov99@gmail.com

Bizning davrimizga qadar og‘zaki uslub vositasida etib kelgan musiqiy meros namunalarini amaliy o‘zlashtirish hamda ilmiy tadqiq etish ishlari dastlabki paytlarda mutaxassis olimlar, shu jumladan, etnomusiqashunoslar oldiga bir qator vazifalarni ko‘ndalang qo‘ydi. Avvalombor bu merosni to‘plash, uni mavjud bo‘lgan ovoz taratish vositalariga yozib olish hamda nota yozuvlarida nashr etish zarur edi. Chunki bu borada o‘tmishdan qolgan yozma yodgorliklar nihoyatda oz bo‘lib, ularning bori ham, asosan, o‘rta asrlar davri kasbiy musiqasiga taalluqlidir. Musiqiy folklorga doir esa to‘liq bo‘lmagan yozuvlar, ya’ni xalq qo‘shiqlarining she‘rlari bayon etilgan yozma manba‘lar uchraydi, xolos. Xususan, shunday qimmatli manba‘lardan biri – XI asrda yashagan ulug‘ bobokalonimiz Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridir. Ushbu devonda ilmu – hikmat, pand – nasihat, mehnatga shijoat, sevgi tuyg‘ulari kabi mavzularda she‘riy parchalar keltiriladi. Bu she‘rlar ma’lum ohanglarda kuylanganligi shubha tug‘dirmaydi, zero she‘riyat “ilgari kuylash uchun yo musiqa jo‘rligida aytish uchun yaratilgan”. (U.To‘ychiev “O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi”. Toshkent: Fan, 1985, 47-bet). Devondagi sherlar ham bu fikrni bilvosita bo‘lsa – da tasdiqlaydi.

O‘rta Osiyoda musiqiy merosni besh chiziqli merosni besh chiziqli tizim /notatsiya/ vositasida yozib olish ishlarining boshlanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu ishni ilk bor boshlab bergan musiqachilar – A.Eyxgorn va

F.Leysek (1857-1935) taqdir taqozosi bilan Rossiyadan O’rta Osiyoga harbiy kapelmeysterlik (dirijyorlik) vazifasini o’tashga kelgan edilar.

Avgust Eyxgorn asli Avstraliyalik bo’lib, 1870-83 yillari Toshkentda yashagan edi. Shu yillar ichida Toshkent, To’ytepa, Qo’qon, Chimyon, Andijon, Namangan va boshqa shaharlar bo’ylab musiqiy etnografik sayohatlar uyushtirdi va talaygina xalq qo’shiq kuylarini yozib oldi. Shu bilan birga, A.Eyxgorn O’rta Osiyo xalqlari musiqa cholg’ularini yig’ish, kolleksiya tuzish ishida ham faollik ko’rsatdi. Jumladan, u 36 cholg’udan iborat majmua to’plashga muvassar bo’lib, ularning har biriga yozma ravishda ta’rif berib o’tgan. Shuningdek, A.Eyxgorn kolleksiyasi Moskva, Peterburg va Vena shaharlarida uyushtirilgan xalqaro ko’rgazmalarda namoyish etilgan.

Chexiyalik harbiy kapelmeyster va kompozitor Frantishek Vaplav Leysek umrining salmoqli qismini (1878-1935) O’zbekistonda yashab, milliy kuylarimizni to’plash borasida barakali ijod qildi. Chunonchi, F.Leysek 200 ga yaqin O’rta Osiyo xalqlari musiqasi namunalarini yozuvlarda jamlagan bo’lib, uni Butun Rossiya ko’rgazmasiga taqdim etganligi ma’lum. Bundan tashqari, u “Rajabiy”, “Boljuvon”, “Munojot” singari el orasida mashhur kuylarni damli cholg’ular orkestriga qayta ishlash amaliyotini keng qo’llaydi. Shu maqsadda 1890 yili 30 ga yaqin xalq qo’shiq va kuylari asosida “Osiyocha popurri”, 1923-24 yili esa “O’zbek qo’shiqlaridan popurri” asarlarini yaratdi. F.Leysekning “Osiyo popurri” si asarlarini yaratdi. F.Leysekning “Osiyo popurri”si Chexiya va Avsraliya kabi xorijiy Evropa mamlakatlarida ham ijro etilgan edi.[1]

O’zbek musiqa merosini to’plash va yozib olish ishlari XX asrda muntazam va izchil amalga oshirib borildi. Bunda dastlab 1919 yili Turkiston respublikasi xalq maorifi komissarligining san’at bo’limi huzurida tashkil etilgan Badiiy – etnografik komissiyasi e’tiborli faoliyat ko’rsatdi. Hay’at a’zolari – G’.Zafariy, V.Uspenskiy, N.Mironov va E.Melngaylislar o’z oldilariga O’rta Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha o’rganishni, uni to’plab, nashr etishni va boshqa ilmiy – ijodiy vazifalarni maqsad qilib qo’yidilar. Bu boradagi dastlabki muhim ishlar mazkur komissiyaning rahbari, Turkistonga 1917 yili kelgan rus kompozitori va musiqiy etnografi

V.A.Uspenskiy (197-1949) tomonidan amalga oshirildi. Xususan, V.Uspenskiy 1921-1922 yillari Buxoroda maqomchi ustozlar – hofiz ota Jalol Nosir va tanburchi ota G’iyos Abdug’anilar ijrosida salobatli shashmaqom turkumini nota yozuvlarida ilk bor muhrlaydi. Bu mehnat natijasi ayrim kamchiliklarga qaramay (masalan, ashula yo’llari tanbur ijrosida yozilgan bo’lib, natijada ovoz tarovatiga xos nafas va xususan bezaklar etarlicha aks etmagan ayrim zarb – usullari ritm – o’lchov jihatdan nobop shaklda yozilgan va boshqalar) ustozlar san’atni saqlab qolishda yuksak ahamiyat kasb etadi. V.A.Uspenskiyning shashmaqom nota yozuvlari 1924 yili Buxoroda “Shest muzikalnix poem /maqom/” nomi bilan chop etildi. Oradan bir yil o’tib, V.A.Uspenskiy Toshkentlik mashhur hofiz Shorahim Shomurodovdan Farg’ona – Toshkent maqom yo’llaridan bo’lgan “Dugohi - Husayn”, “Chorgoh”, keyinroq /1930 yili/ esa “Gulyori Shahnoz” ashula turkumlarini yozib oldi.

Musiqiy merosni to’plash ishlarida A.A.Mironovning (1870 - 1952) faoliyati e’tiborga o’z faoliyatini avvaliga rus armiyasining harbiy kapelmeysteri sifatida boshlagan A.A.Mironov, keyinchalik musiqiy – ma’rifiy ishlar borasida jonbozlik ko’rsatgan edi. Xususan, 1928 yili uning tashabbusi bilan Samarqandda o’zbek musiqa va xoreografiya instituti ochilgan bo’lib, unda saboq berishga Ota Jalol Nosir, Ota G’iyos Abdug’ani, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Matyusup Harratov singari mashhur hofiz va sozandalar jalb etiladi. Institutning yuqori guruh talaba (aspirant) lari musiqiy merosni amaliy o’zlashtirish bilan birga uni fonograf orqali valiklarga muhrlash ishlarini ham bajarar edilar. Bu faoliyatning pirovardida A.A.Mironov tomonidan nashrga birin – ketin uch kitob tayyorlanib, ularga uning shogirdlari \M.Ashrafiy, Sh.Ramazonov, T.Sodiqov\ yozib olgan. Milliy musiqa kuylari to’plangan edi. Bu kitoblar quyidagicha nomlarda nashr etilgan: “Muzika uzbekov” /Samarqand, 1929/, “Obzor muzikalnix kultur uzbekov i drugix narodov Vostoka” /Samarkand 1931/, “Pesni Buhari, Fergani i Xivi” /Toshkent, 1931/. [2]

1932 yili o’zbek musiqa va xoreografiya instituti Toshkentga ko’chirildi. (Hozirda Hamza nomidagi San’atshunoslik ilmiy – tadqiqot instituti). Bu dargohning xodimlari V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya (1890-1947), Il.Akbarov

va H.Muhamedovalar (1915-1993) Toshkent, Farg’ona vodiysi (Andijon, Farg’ona, O’sh, Marg’ilon), Xorazm va Buxoro bo’ylab musiqiy –etnografik ekspiditsiyalari uyushtiradilar. Bir qator chop etilgan to’plamlar ana shu mehnatning hosilasidir. Xususan, - “O’zbek xalq qo’shiqlari” /I, II kitoblar – 1939, III kitob – 1954-“Xorazm klassik musiqasi”/1939/, “O’zbek cholg’u musiqasi” /1948/, Navoiy so’ziga musiqalar /1949/, “O’zbek vokal musiqasi” /1960/ nota to’plamlari shular jumlasini tashkil etadi. Ushbu yozuvlar mazmunida xalq musiqalari namunalari Farg’ona ayollarining qo’shiqchilik ijodlari va kasbiy musiqaga doir Xorazm maqomlarining cholg’u kuy va boshqa turdagi rivojlangan ashula yo’llari o’z aksini topgan edi. Shuningdek, 1949 yili Ilyos Akbarov O’zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilovdan 50 ga yaqin doira usullarini yozib oldi va 1952 yili “Doira zarblari” nomi bilan chop etildi.

1940 yillar oxiri 1950 yillar boshlarida bu sohada institut hodimi K.Olimboeva (1926-1992) kelib qo’shildi. Musiqashunos olima “Shoxsanam va G’arib” dostonidan ayrim kuylarni notalashtirdi. Toshkent Farg’ona (1951) va Xorazm viloyatlariga (1952) taniqli folklorshunos olimlar M.Alaviya va K.Abdullaevlar bilan entsiklopediyalarda qatnashib, zamonaviy qo’shiqlarni yozishga muvaffaq bo’ldi. Hamda shu asosda “25 o’zbek xalq qo’shig’i” to’plamini nashr uchun tayyorladi.

O’zbek musiqa merosini asrab qolish va uni rivojlantirishda ulkan hissa qo’shgan san’atkorlardan biri akademik Yunus Rajabiydir (1987-1976). Ustoz Rajabiyning o’zbek musiqasining deyarli barcha janrlariga mansub yozuv namunalari ko’p tomlik “O’zbek xalq musiqasi”da (I-V tomlar, 1955-59) nashr etilgan. Ushbu to’plamlarda jumladan bolalar qo’shig’i, xalq aytimlari (qo’shiq, lapar, yalla, ashula), katta ashulalar, cholg’u kuylari, Farg’ona – Toshkent maqom yo’llari, muhtasham shashmaqom turkumi kabi ham musiqiy folklor, ham kasbiy musiqa qatlamlari namunalari munosib o’rin olgandir. 1966-75 yillari shashmaqom majmuasini olti jildda qaytadan nashr etilishi hamda shu maqomlarni Yunus Rajabiy rahbarligidagi O’zbekiston teleradiosi maqomchilar ansambli ijrosida magnit tasmalar va lappaklarga (gramplastinkalarga) yozib olinishi bu ro’yxat

salmog’ini yanada oshirdi. Yunus Rajabiy to’plamlari nisbatan mukammal darajada bajarilganligi bilan o’zbek musiqasini amaliy o’zlashtirish va nazariy o’rganishda benihoya qimmatli manbadir. Ayniqsa shashmaqom yozuv yo’llari avvalgi urinishlardan sifatli farq etishini ta’kidlash kerak. Bunda ovoz xususiyatlari ma’lum darajada inobatga olinib, kuyohanglariga o’zbek mumtoz she’riyati namunalari monand etilganligi, ritm – usullar o’lchov kabi muhim holatlarini alohida aytish mumkin.

Shu o’rinda Xorazm maqomlarini ham to’liq turkum tarzida Matniyoz Yusupov (1925 -1992) tomonidan yozib olinishi va 1958 yili “O’zbek xalq musiqasi” to’plamining VI jildida chop etilishi e’tiborga molikdir. Xorazm maqomlari ham jiddiy o’zgarish va to’ldirishlar bilan 80 –yillar davomida qaytadan nashr etilgan edi. Xorazm musiqa an’analarini o’rganishda M.Yusupov nota yozuvlariga olgan mahalliy ashula, lapar. Suvora va boshqa aytim hamda cholg’u kuylari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mehnat natijalari “O’zbek xalq musiqasi” ko’p tomligining VII (1960) va IX (1962) jildlarida o’z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bigmatov.T.“Jaxon musiqa tarixi va kompoozitor, bastakorlari”.Toshkent-2001.B-67.
2. Sulaymonov.A. “O’zbek musiqa tarixi”.Toshkent-2011.B-143.

DUTOR CHOLG’USI TARIXI HAMDA O’QITISH METODIKASI

G’aybullayeva Fotima Xayrullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

“Musiqa ta’limi va san’at” yo’nalishi 1-bosqich magistri

Annotatsiya: *ushbu maqolada dutor cholg’usi tarixi hamda o’qitish metodikasi, talabalarga, maktab o’quvchilariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida o’zbek xalq milliy cholg’u asboblarning turlari, uning shakllanish jarayoni va ularni tarbiyaviy ahamiyati to’g’risida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit soʻzlar: dutor, cholgʻu asboblari, ta’lim-tarbiya, milliy gʻurur, metodika, tarix, mustaqillik, ijrochilik sa’nati.

Аннотация: в статье описаны история и методика преподавания дуторных музыкальных инструментов, виды национальных музыкальных инструментов узбекского народа в процессе обучения студентов и школьников, процесс их формирования и их воспитательное значение.

Ключевые слова: дутор, музыкальные инструменты, образование, национальная гордость, методика, история, независимость, исполнительское искусство.

Abstract: this article describes the history and teaching methodology of dutor musical instruments, the types of national musical instruments of the Uzbek people in the process of teaching students and schoolchildren, the process of their formation and their educational significance. information is provided.

Key words: dutor, musical instruments, education, national pride, methodology, history, independence, performance art.

Cholgʻularda har bir xalqning milliy gʻururi, anʼanasi, qadriyatlari oʻz ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholgʻularda ijrochilik sanʼati insoniyat maʼnaviyatini tarannum etuvchi vosita, yaʼni xalq ijodiyoti maxsuli boʻlib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan moʻjizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholgʻularning shakliga va milliylik mezoniga asos boʻlib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholgʻularga boʻlgan eʼtibor katta boʻlish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega boʻlib kelgan. Musiqa sanʼatning noyob turlaridan biri boʻlib, juda qadimiy tarixga ega. Bu sanʼat turi barcha davr daholari eʼtiborini oʻziga jalb qilib kelgan. Jumladan oʻz zamonasining buyuk faylasuflaridan biri Arastu musiqa sanʼati haqida quyidagi fikrlarni keltirib oʻtgan: «Musiqa koʻngilga axloqan muayyan taʼsir koʻrsatuvchi quvvatga ega. Musiqa shunday xislatga ega, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qoʻshilmogʻi lozim» - deb taʼkidlaydi. Xalq

cholgʻulari uzoq oʻtmishda paydo boʻlgan. Maʼlumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholgʻulari eramizdan avvalgi XIII-ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholgʻular paydo boʻlgan. Chunki eng qadimgi mehnat qoʻshiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan. Undan keyin shovqinli cholgʻular paydo boʻldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni taʼkidlagan, shovqinli cholgʻular taʼsirini koʻpaytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari oʻziga xos, takrorlanmas goʻzal holatni vujudga keltirar edi.

«Adabiyot, sanʼat va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi»[1]

Oʻzbek xalqi oʻziga xos milliy anʼana va qadriyatlar bilan sugʻorilgan goʻzal hamda benazir musiqa sanʼatiga egadir. Musiqa sanʼatining xalq orasida keng tarqalgan turlaridan biri boʻlgan cholgʻu musiqasi haqida gap borar ekan. Musiqiy cholgʻular inson maʼnaviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita yaʼni xalq ijodiyoti mahsuli boʻlib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalgan. Milliy cholgʻular uzoq yillar mobaynida ogʻzaki, yozma manbalar zahirida avloddan-avlodga oʻtib shakllanib, takomillashib kelmoqda. Oʻzbek xalq cholgʻulari tarixiga razm solar ekanmiz, juda koʻp musiqashunos olimlar, mutafakkirlar oʻz risolalarida milliy cholgʻularimiz va ularning shakllanishi borasida keltirib oʻtganliklarini koʻrishimiz mumkin. Jumladan, ilk uygʻonish davri qomusiy olimlari Abu Ali Ibn Sino (Kitob ush Shifo), Al Xorazmiy (“Mafotih al-ulum” ikkinchi maqolasining VII bobi “Musiqa haqida”), Abu Nasr Farobiy (“Musiqa haqida katta kitob” risolasining ikkinchi kitobi), Safiuddin Urmaviy (“Risolatun ash-Sharafiya”, “Kitab ul-advar”), Abdurahmon Jomiy (“Risolai musiqiy”), Darvesh Ali Changiy (“Tuhfatus-surur”), Zaynulobidin Husayniy (“Qonuni ilmi va amali musiqiy” - “Musiqaning ilmi va amaliy qonunlari” asarining oxirgi boblari,) va boshqa musiqiy olimlar tomonidan yozilgan risolalarda IX-XVII asr musiqa cholgʻulari haqida bayon etilgan.

Dutor juda qadimiy musiqa asbobi, uning paydo boʻlish tarixiga kelsak, eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutor tojikcha soʻz boʻlib ikki tor degan

ma'noni bildiradi. Dutor asr-asrlardan o'zbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotgan milliy musiqa cholg'ulardan biri hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbek xalqining cholg'usi bo'lmay, balki uni qardosh tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlari ham o'zlarining sevimli cholg'usi deb hisoblashadi. Dutor kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo'llanilayotgan dator-alt deb ataladi. Bu cholg'u kichik oktava lya va mi notalarga sozlanadi. Dutorga o'xshash cholg'uni, qozoqlarda «Do'mbira», qirg'izlarda «Qo'buz» deb atashadi. Dutorning yasalihi: Dutorlar asosan ikki xil turda yasaladi. Qadim o'tmishda sozandalarimizga xizmat qilib kelayotgan dator dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog'langan diatonik tovushqatorda (mumtoz kuylar va maqom yo'llari ijro etilardi) bog'langan va bu datorlarni xalq datorlari deyilgan. Dutor yasalihi jihatdan ikki qismdan iborat (dasta va kosa) bo'lib, bularni birlashtiruvchi qismini «Bug'iz» deb ataladi. Dutorning kosasi o'yma va qovurg'achalarning birlashganidan yasalihi mumkin. «O'yma dator» Samarqand, Xorazm, Tojikiston va Turkmanistonda qo'llanilib, bir bo'lak tut yog'ochidan o'yib ishlanadi. Qobirg'ali dator ham tut yog'ochidan ishlanib, 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog'ochidan tayyorlanadi. Odatda dator yasaladigan tut yog'ochi soyada quritiladi. Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 mm, ayrim joylarda esa 750-800 mm ni tashkil etadi.

1936-37 yillarda Toshkentda o'zbek musiqa cholg'ularini takomillashtirish ustaxonasi ochilib, boshqa sozlar qatori nota ilmiga moslashtirilgan yog'och pardali, kapron torli yangi datorlar ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda bu dutorda malakali o'qituvchilarimiz tomonidan yosh dutorchilarga ijrochilikdan saboq berilmoqda. Dutor haqida gap borganda, albatta, uning mohir ijrochilarini eslab o'tish joizdir.

Mashhur dutorchilar: H.A.Abdurasulov, Abdusoat Vahobov, Davlatoxun Qodirov, Yunus Rajabiyilar dator cholganlarida kishilar og'ir sukunatga cho'mib, olam-olam ma'noli hissiyotlar ummoniga botar ekan. Ulardan keyin esa Shokir Sartarosh, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, To'xtamurod Rasulov va boshqalar.

Hozirda esa xizmat qilib kelayotgan dutorchilar G'ulom Qo'chqorov, Abdurahim Hamidov, Mirsodiq Ergashev, Ro'zibibi Hojiyeva, Malika Ziyayeva, Obidjon Odilov, Sulton Qosimov va boshqalar.



Dutor – bu so'z forsha bo'lib, «ikki tor» degan ma'noni anglatadi. Yog'ochdan yasali b kosa qismi yupqa payraxalarning yelimlab birlashtirilishi orqali yasaladi (ba'zida o'yma holda ham uchraydi). Dastasi ingichka bo'lib bog'lama pardalar o'rnatiladi. Torlari ipak iplar, yoki mol, kuy, echki kabi hayvonlar ingichka ichagidan yasaladi. Dutor to'g'risida ma'lumotlar qadim manba'larda uchramaydi, u to'g'rida asosan Temuriylar davri haqidagi manbalarda ma'lumotlar bor. Hozirgi davrda dutor milliy cholg'ularimiz orasida eng peshqadamlaridan biri bo'lib, rekonstruksiya qilinishi natijasida bir oz o'zgarishlarga (bog'lama pardalar o'rniga yog'och pardalar, ipak yoki chak paradalar o'rniga plastmassa iplar, o'rik yog'ochidan qoplama o'rniga faner qoplama) uchradi va endilikda dutor oilasidan «Dutor prima», «Dutor sekunda», «Dutor al't», «Dutor bas», «Dutor kantrabas»lar ham joy oldi. Bular esa milliy cholg'u sozlarimizdan orkestr tuzish imkoniyatini yaratdi. Dutor ovozi mayus va mungli bulib inson ovozi bilan nihoyatda yaxshi uyg'unlashadi. Ansambl ijrochilarida tovushlarni yumshatuvchi bo'lib, barcha cholg'u ansamblari tarkibiga kiritildi. Keyingi davrda uning mohir ijrochilaridan Abdusoat Vaxobov, Yusup Aliev, Davlatoxun Qodirov, Orif Qosimov, Gulom Quchkorov va boshqalar halq orasida tanilgan.[2]

O'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek Dutori muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. U asosan tut, o'rik yog'ochlaridan yasaladi. Cholg'uning kosaxonasi

(rezonatori) 8—12 ta yupqa, bir-biriga yonmayon yopishtirilgan taxtacha (qovurg'a)dan ishlanadi. Kosaxonaning ustki, ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo'g'iz orqali dastaga ulanadi. Duning uzun va ingichka dastasiga 13—17 ta parda bog'lanadi. Kosaxona va dastaga suyak va sadafdan ishlangan bezak naqshlar o'yib yopishtiriladi. Torlari ipak iplaridan eshiladi. Ular Tanavor sozi (kvarta), Munojot sozi (kvinta), Qo'shtor sozi (unison)ga sozlanadi. Uyg'urlarda Dutor kattaroq shaklda, Turkmanistonda fakat o'yma (qazma) turi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda kosaxonasi qovurg'alik Dutorlar bilan birga hajmi kichik, o'yma xillari ham uchraydi. Dutor yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sozi bo'lib, sozandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutorda yakka zarb, qo'shzarb, bilak zarb, bidratma, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud. Dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayniy „Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari“ nomli risolasi (16-bobi)da uchratamiz. 16—17-asrlarda „Dutoriy“ ta xallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, mashhadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Hozirda milliy Dutor ijrochiligining o'ziga xos uslublari 4 ta asosiy (Andijon, Toshkent, Samarqand va Xorazm) maktablari orqali namoyon bo'ladi. 20-asrda Andijon maktabi namoyandalaridan Dorip dutorchi, M. Najmiddinov, O. Rustamov, K. Jabborov, Farg'onada Qo'zixon Madrahimov ijrosida „Nolish“, „Cho'pon“, „Andijon Kurdi“, „Andijon Sayqali“, „Tuya bo'zloq“, „Qo'shtor“; Toshkent maktabi yirik vakillaridan Solixon Hoji, A. Vahobov, F. Sodiqov, M. Yunusov, T. Alimatov, 3. Obidov, S. Yo'ldoshevlar talqinida „Sharob 1, 2“, „Shafoat 1, 2, 3“, Toshkent Sayqali", „Toshkent Kurdi“, „Rajabiy 1, 2“, „Kurash“, „Dutor Bayoti“, „Dutor Navosi“; Samarqand maktabi ustozlaridan Hoji Abdulaziz, Qori Siroj Yusupovlar ijrosida „Guluzorim“, „Bebokcha“, „Bozurgoniy“, „Gullar vodiysi“; Xorazm maktabi vakillaridan N. Boltayev, Yu. Jabborovlar ijrosida „Koradali“, „Aliqambar“, „Saqili Navo“ singari mumtoz kuylarda o'z ifodasini topgan. 1970- yillardan yakka Dutorda Shashmaqom cholg'u va ashula yo'llari ham ijro etila boshlandi. O'zbek bastakorlaridan N. Hasanov „Gilos“, F. Sodiqov „Dutorim“, S. Yo'ldoshev „Dil kuylasin“, 3. Obidov „Tog' go'zali“, O. Qosimov „Yangra sozim“ kabi asarlarni Dutir

uchun yaratganlar; dutor-alt — an’anaviy Dutorni 1930- yillarda qayta ishlash natijasida paydo bo’lgan turi. Torlari kapron (yoki boshqa polimer iplari)dan ishlanadi. Dastasiga xromatik tartibda joylashgan yog’och yoki suyak pardalari yelimlab yopishtiriladi. Repertuaridan asosan o‘zbek kompo-zitorlari tomonidan qayta ishlangan (garmonizatsiyalashgan) xalq kuylari, fortepiano jo‘rligida ijro etilayotgan asarlar o‘rin olgan. Mazkur Dutor asosida (O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga moslab) turli hajmdagi Dutor xillari (Dutor— bas, Dutor— kontrabas) ishlandi. Dutor uchun xalq orasida maxsus kuylar yaratilgan. Bular safiga „To‘rg‘ay“, „Farg‘onacha“, „Tanovar“, „Munojot“, „Rohat“, „Jigarpora“, „Dilxiroj“, „Chertmak“, „Shafoat“, „Suvora“, „Qo‘shyor“ kuylarini kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek milliy cholg‘ularimiz bilan talaba hamda yosh o‘quvchilarni tanishtirish ularda milliy qadriyatlarimizga bulgan xurmat, uning tarixiy ahamiyati, oxang yo‘llari, cholg‘ularning yasali sh holati va boshqa o‘ziga xos tomonlarini o‘quvchilarga tanishtirish kelajakda ularni kamol topishida muhim omil bulib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir bir talay ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022 yildagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish” to‘g‘risidagi qabul qilingan qarori milliy musiqa cholg‘ularni ijro qilishga qaratilgan yuksak e’tibordan dalolatdir. Zero, musiqa san’atining rivoji o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy yetuklik sari yetaklaydi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan.
2. J.Yusupov//“Dutor tarixi”//T-2001//B-173.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 02.02.2022 yildagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori.

ALISHER NAVOIY – SO‘Z MULKINING SULTONI, MILLIY MUSIQA SOHASIGA QO‘SHGAN HISSASI

G‘aybullayeva Zuhrahon Xayrullo qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Musiqa ta’limi va san’at
yo‘nalishi 1-bosqich magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolamda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy qoldirgan ulkan adabiy-ilmiy meros - bir-biridan rang-barang g‘azallar, pand nasihatga yo‘g‘rilgan ruboiy va qit‘alarning kitobxon ma’naviyatining shakllanishidagi o‘rni hamda bu ulug‘ zotning adabiy-badiiy merosining bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan, shuningdek ba’zi misralarida qo‘lla nilgan badiiy san’at turlari tahliliy tarzda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mutafakkir, she’riy san’at, g‘azal, ruboiy, badiiy obraz, Xamsa.

Аннотация: В данной статье рассматривается великое литературное и научное наследие, оставленное великим поэтом и мыслителем Алишером Навои, - красочные газели, роль рубаи и китаса в формировании духовности читателя, а также это великое значение литературного и Освещено художественное наследие породы сегодня, а также аналитически описаны виды искусства, использованные в некоторых стихах.

Ключевые слова: мыслитель, поэтическое искусство, газель, рубай, художественный образ, Хамса.

Annotation: In this article, the great literary and scientific heritage left by the great poet and thinker Alisher Navoi - colorful ghazals, the role of rubai and khitas in the formation of the reader's spirituality, as well as this great The significance of the literary and artistic heritage of the breed today is highlighted, and the types of art used in some verses are analytically described.

Key words: thinker, poetic art, ghazal, rubai, artistic image, Khamsa.

Kishilik tarixida o‘zining benazir shaxsiyati, umuminsoniy g‘oyalarga yo‘g‘rilgan ijodi bilan o‘chmas iz qoldirgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy uchun ham inson sha’ni, qadr-qimmatini asosiy bosh mezonlardan biri hisoblangan. Alisher Navoiy nafaqat o‘zining asarlari, ya’ni ma’naviy merosi bilan, balki o‘zining davlat boshqaruvidagi va jamiyatdagi mavqei bilan ham insonlarga har tomonlama xizmat qilish, uning uchun oliy qadriyat hisoblangan. Bu haqida uning o‘z asarlaridan tortib unga zamondosh bo‘lgan tarixchilarning asarlarida ham bir qator qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Alisher Navoiy o‘z moliyaviy ishlarining sarhisobi hisoblangan “Vaqfiya” asarida o‘z hisobidan kishilar foydalanishi uchun qurilgan masjid, madrasa, shifoxona, ko‘prik, rabot singari inshootlarning ro‘yxatini keltirgan. Manbalarda aytilishicha, Navoiy qurdirgan “Xalosiya” xonaqohida har kuni mingdan ortiq faqir miskinlar ziyofat qilingan, kiyim-bosh ulashilgan. E’tiborli jihati shuki, Alisher Navoiy ta’sis qilgan madrasalardagi o‘qish-o‘qitish tizimining ba’zi o‘ziga xos jihatlari, olimlar va talabarga to‘lanadigan nafaqa va maoshlar haqida uning “Vaqfiya” asarida ma’lumot berilgan. Unda aytilishicha, madrasadagi har bir dars halqasi (potok)da o‘n bittadan tolibi ilm tahsil olgan, ular o‘zlashtirishlariga qarab uch tabaqaga – a’lo, vasat (o‘rta) va adno (quyi)ga bo‘lingan va shu mezon asosida ularga nafaqa (stipendiya) tayinlangan. Bu ayni vaqtdagi universitet tizimiga juda o‘xshaydi. 9-fevral ulug‘ insonparvar, donishmand, davlat arbobi, o‘zbek adabiy tiliga asos solgan va o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘targan buyuk iste’dod egasi, shoh asarlari, nodir devonlari, betakror g‘azal va dostonlari bilan bashariyat tamadduni va adabiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan mashhur siymo, buyuk shoir va mutafakkir bobokalonimiz Alisher Navoiy tavallud topgan kun. Har yili ushbu sana alohida e’tirof etiladi. Shoir ruhiga chuqur hurmat va ehtirom bajo keltiriladi. Mana bu yil ham shoir tavalludining 581 yilligi mamlakatimiz miqyosida keng nishonlanmoqda.



Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti taraqqiyoti tarixida alohida ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy qoldirgan ulkan adabiy-ilmiy meros - bir-biridan rang-barang g'azallar, pand-nasihatga yo'g'rilgan ruboiy va qit'alar, diniy-ma'rifiy mazmundagi risola-yu dostonlar hali hamon dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak qadrlanib kelingan va kelinmoqda. Sharq adabiyotini, jumladan, sharq ma'naviyati va madaniyatini ulug' mutafakkir hamda buyuk shoir Alisher Navoiysiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Alisher Navoiyning asarlari nafaqat, sharq adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham o'zining munosib kitobsevar muhlislari tomonidan sevib o'qiladi. Sababi, Navoiy qalamiga mansub, ulkan ma'naviy meros va tarixiy-ma'rifiy, shu bilan birga, juda katta ijtimoiytarbiyaviy va estetik ruhga yo'g'irilgan, yuksak mahorat ila yaratilgan beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan betakror va bebaho ijod namunalari asrlar oshsa hamki o'z mazmun va mohiyatini yo'qotmagan va yo'qotmaydi ham. Navoiy asarlari kitobxonlar qo'lidan tushmay mutolaa qilinadigan darajada sevimli bo'lib, u kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. Navoiy g'azallari va ruboiylarini qayta – qayta o'qisangiz ham joningizga tegmaydi, aksincha yangidan yangi ma'nolarni kashf etasiz. Chunki Navoiy so'z san'atini ruboiylari-yu g'azallarida shunday mohirona uslubda qo'llaganki, uni o'qigan o'quvchi Navoiyning ijodidan hech qachon zerikmaydi.

Alisher Navoiy ijodi jahon miqyosida juda keng tarqalgan, bo'lib, Uning asarlari fors, italyan, nemis, fransuz, hind, turk, ingliz, rus, ozarbayjon, turkman va boshqa tillarga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilmoqda. Navoiyning boy adabiy merosi nazm va nasrda yaratildi. Navoiy lirik merosining asosini g'azallar tashkil

etadi. Navoiy g'azallari faqat son jihatdan emas, balki g'oyaviy-badiiy salmog'i jihatidan ham o'rta asr g'azalchiligining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Darhaqiqat, Navoiy o'zbek g'azaliyotini eng yuqori bosqichga olib chiqqan buyuk iste'dod sohibidir. Navoiyning badiiy mahorati ayniqsa uning g'azallarida namoyon bo'ladi. Navoiy g'azaliyotida juda ko'p masalalar tilga olingan. Ishq-muhabbat, ijtimoiy - siyosiy muammolar, insonlararo munosabatlar hamda diniy-tasavvufiy kabi masalalar shular jumlasidandir.

"Agar bu ulugi zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir"[1]

Alisher Navoiyning ishqiy g'azallari tom ma'noda insoniy go'zallik, pok tuyg'ular madhidan iborat bo'lib, "Xamsa" asarining birinchi dostoni hisoblanmish "Hayrat ul-abror" dostonida ishqni nafaqat insonning, balki butun borliqning mohiyatini belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etadi:

Bo'Imasa ishq, ikki jahon bo 'Imasin,
Ikki jahon demaki, jon bo 'Imasin.
Ishqsiz ul tanki, aning tani yo 'q,
Husnni netsun kishikim, oniyo'q.

Alisher Navoiy o'zining "Sab'ai sayyor" dostonida bir musiqashunosni Xorazmdan keltirib gapga solganligini quyidagi misralarda ifodalaydi:

Chun duo qildi, dedi farzona,
Ki dey o'z ko'rgonimdan afsona,
Menki tushmish buyon chuzor menga,
Mulk Xorazm erur diyor menga,
San'atim onda soz cholmoq ishi.
Qilmoyin men kabi ishimni kishi,
«Ilm advor» fan musiqiy
Mendin ul, ilm bo'ldi taxqiqiy.[2]

Darhaqiqatki, bu yerdagi madaniyat rivoji, birinchi navbatda, hukmdor Sulton Husayn Boyqaroning bosh vaziri bo'lgan Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Navoiy musiqani nihoyatda yaxshi ko'rgan, musiqiy asarlar yaratgan. Musiqani

nozik his etgan hamda uning katta emotsional, ma'naviy va estetik kuchga ega ekanligini anglagan adib musiqiy asarlarning mazmundor hamda hayot bilan bog'langan bo'lishi shart deb hisoblar edi. Navoiyning musiqani san'at sifatida axloqiy yuksak va estetik jihatdan teran talqini, uning musiqa kompozitsiyasi va fani haqidagi qarashlari ko'pgina badiiy hamda ilmiy-falsafiy asarlarida aks etgan.

O'rta asr sharq allomalarining musiqiy qarashlari intervallarning joylashishi, har bir ohangning o'ziga xos jarangi bilan ajralib turadi. Biri sof major, ikkinchisi sof minor, uchinchisi "minorga yaqinlashgandek", ammo yana bir kuy borki, unda major va minor ajratib bo'lmaydi. Nazarimda, Alisher Navoiyning besh dostoni xuddi ana shunday jaranglaydi"[3].

Mashhur musiqashunos olim farazlari, so'zsiz, asossiz emas, zero, buyuk shoirning poetik merosidagi musiqiylik, uning musiqiy ijod mohiyati haqidagi tushunchalari o'z davridagi musiqa cholg'ulari va musiqa amaliyoti haqidagi eslatmalar doirasidan juda uzoqlarga chiqib ketgan. Alisher Navoiy musiqiy ijodga chuqur ilmiy-badiiy tavsif beradi.

Junun vodusig'a moyil ko'rarman joni zorimni,
Tilarman bir yo'li buzmak buzulg'on ro'zgorimni

Falak bedodidan garchi manim xoki g'ubor o'ldum,
Tilarman, topmag'aylar to'tiyolikka g'uborimni.

Demang, qay sori azm etding, menga yo'q ixtiyor, oxir
Qazo ilkiga bermishman inoni ixtiyorimni.

Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish za'faroni yuz,
Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.

Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz mehnat,
Ne tong, boshim olib ketsam qo'yub yoru diyorimni.

Yomon holimg'a bag'ri og'rig'ay har kimsakim ko'rgay,
Bag'ir pargolasidan qong'a bulg'ong'on uzorimni.

Hayotim bodasidin sargaronman asru, ey soqiy,
Qadahqa zahr qotil quy,dog'i daf' et xumorimni.

Jahon tarkini qilmay chunki tinmoq mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o'rtab yo'qu borimni.

Bu g'azal Navoiyning zamonidagi eng boy va eng yorqin tuyg'ularini ifodalaydi. Bu g'azalning boshida, shoirning "Junun vodusiga moyil ko'rarman joni zorimni" deb boshlangan qatorida, "Men o'z xayoliga vodiya (sevgiga) moyil bo'lgan, yuragimni kuchli saqlayman" degan ma'noni aytadi. Bu qator, shoirning sevgidan ko'ra qanday qadr-qimmat berganligini ko'rsatadi. Shoir, o'zining xayollarini, o'zining jonini, hamisha sevganlarini saqlashga tayyor bo'lganligini anglatadi.

Navoiyning she'rida paydo bo'lgan boshqa tuyg'u va ma'no ham ma'nolarni bir-biriga qo'shadi. Shoirning "Tilarman bir yo'li buzmak buzulg'on ro'zgorimni" deb yozgan qatori, o'zining o'ziga xos, ajoyib yaratuvchanlik xususiyatlarini bildiradi. Uning so'zlarining ovozlari to'g'ri tanlab qo'yish va tarqatish usullari, asarni o'ziga xos qilgan ayrim "ro'zgor" va "buzulg'on" so'zlari, o'zbek poeziasining eng muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Navoiyning bu g'azali o'zining ajoyib taassurot, shoiriyat, va yorqinlik bilan tarkib topgan. Bu g'azal orqali, shoir o'z xayollarini, xayollardagi dunyoni, va uning o'zining yorqinlik va tuyg'ularini aks ettirishga urinadi. Shoir, o'z sevgisi va g'ayratini ifodalaydi va o'qituvchilarga, o'qlovchilarga uning shoiriy qobiliyatini va insonning eng yuksak tuyg'ularini his qilishga intiladi.

Bu g'azalning boshqa ahamiyatli xususiyatlari shu qatorlarda yashab kelgan etkazib beruvchilik va takrorlanuvchi saflaridir. Shoirning o'z hayotining ahamiyatini qadr-qimmat qilib, o'z turli ahamiyatli voqealarni baholash uchun

ayrim odamlar bilan muzokaralar olib borishi bu gazalning boshqa zamonlardagi eng ajoyib va eng oddiy xususiyatlaridandir.

Navoiyning bu g'azali, o'zbek adabiyotining eng yorqin va mashhur asarlaridan biri sifatida e'tibor bilan qarash lozim. Bu g'azal Navoiyning shoiriyatining, so'zning taassurotlarini o'z ichiga olganlik va o'zbek adabiyotidagi ahamiyatini ifodalaydi. Ushbu gazal bir til qoidalari va gazalning asosiy xususiyatlari bilan tanish bo'lgan o'zbek adabiyotidagi so'z san'atining bezak yonidir.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning falsafiy mushohadasi shu qadar keng qamrovliki, bu ulug' zotning adabiy merosining barcha murakkabliklari, falsafiy teranlig'i bilan to'liq holda to'g'ri, haqqoniy yoritib berish anchayin mushkuldir. Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining barcha taraqqiyot bosqichlarida ustoz shoir va xalqning benihoya katta hurmat - e'tiboriga va muhabbatiga sazovor bo'lgan so'z san'atkori hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ulug' siymoga "so'z mulking sultoni" deya ta'rif berilgan bo'lsa ne ajab.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yuksak m a'naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008
2. Алишер Навоий. Асарлар: XV томлик. IX том. Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. – Б. 256.
3. Конрад Н.И. Запад и Восток. –Москва: Восточной литературы, 1972. – Б.284

QASHQAR RUBOBI KELIB CHIQISHI TARIXI HAMDA FOYDALANISH METODIKASI

Tuychiboyev Dilmurod Tursunboy o'g'li

Namangan davlat pedagogika institute 1-bosqich magistri

tuychiboyevdilmurod750@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada qashqar rubobi kelib chiqishi tarixi hamda foydalanish metodikasi, qashqar rubobida ijro etiladigan asarlar haqida*

ma’lomotlar berilgan. Musiqa san’ati tushunchasida birinchi tasavvur etiladigani bu kuy, ya’ni ohangdir. Inson turli ifoda vositalari bilan o’z fikrlarini bayon etib, dilidagi histuyg’usi va mulohazasini boshqalarga yetkazuvchidir. Musiqa, kuyning yangrashi, albatta, musiqiy cholg’ular yordamida amalga oshiriladi. Ana shunday cholg’ulardan biri bu qashqar rubobidir.

Kalit soʻzlar: musiqa, san’at, rubob, tajriba, salohiyat.

Аннотация: в данной статье представлены сведения об истории происхождения кашгарского рубоба и способе его использования, а также работах, выполненных с кашгарским рубобом. В понятии музыкального искусства первое, что приходит на ум, — это мелодия, то есть тон. Человек выражает свои мысли различными выразительными средствами и передает свои чувства и мысли другим. Музыка, звучание мелодии непременно создается с помощью музыкальных инструментов. Одним из таких инструментов является кашкар рубоби.

Ключевые слова: музыка, искусство, рубоб, опыт, потенциал.

Abstract: this article provides information on the history of the origin of the kashgar rubob and the method of its use, as well as the works performed on the kashgar rubob. The first thing that is imagined in the concept of musical art is the melody, that is, the tone. A person expresses his thoughts with various means of expression and conveys his feelings and thoughts to others. The music, the sound of the melody, is certainly made with the help of musical instruments. One such instrument is the kashkar rubobi.

Key words: music, art, rubob, experience, potential.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy madaniyatimiz va san’atimizni yanada rivojlantirish, avloddan avlodga o’tib kelayotgan milliy merosimizni ko’z qorachig’idek asrash va uni aholi o’rtasida keng targ’ib qilish borasida ko’plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda hamda hayotga tatbiq etilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli qarorida aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish

xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: shu bois pedagogik mahoratni qo'llagan holda Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar) ni o'zida mujassamlashtiradi.[1:2]

Musiqiy cholg'ular insoniyat ma'naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib izaviy vadir. Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lishi bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Zamonaviy jarayonda o'tmish an'analariга yangicha qarash, ilg'or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nulla, komil inson tarbiyasida musiqa lat muhim, ya'ni insonlarni ruhiy hamda ma'naviy tarbiyasiga asos bo'la oladigan omil sifatida qaraladi. O'quv-ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e'tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir. Qolaversa, ta'limda alohida-alohida standartlar tarzida ishlangan dasturlar asosida faoliyat olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Natijada o'qitish mezonida qo'llanilayotgan adabiyotlar va mavjud barcha nashrlarni zamonaviy talab darajasidagi yangi qarashlar bilan boyitish, shaklan hamda mazmunan yaxlit bir o'quv adabiyoti ko'rinishiga keltirib

taqomillashil keltirib taqomillashig et keltirib taqomillashil. Taqdim etilayotgan mazkur o'quv qo'llanmasi ham ta'lim tizimining o'rta bosqichi bo'lmish akademik litsey va kollejlarda tarbiyalanayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangandir. Unda o'quvchilar uchun o'zbek xalq an'anaviy musiqiy cholg'ularining o'tmish davrlardan boshlab shakllanishi va rivoji, zamonaviy jarayondagi o'rni va qo'llanishi hamda takomillashish mezonlari xususida ma'lumotlar o'quv dasturida rejalashtirilgan tartib bilan bayon qilinadi.

Ma'lumki, har qanday musiqa asari bu badiiy asar. Uni badiiy asar darajasida ijro etish sozandadan puxta bilim va yuksak mahorat talab qiladi. o'qituvchi bo'lg'usi sozandani tarbiyalar ekan unda shu cholg'uga nisbatan mehr uyg'ota olishi kerak. Buning uchun dastlabki davrlardanoq imkoni boricha shu cholg'uda yaxshi jaranglaydigan, talabaga yoqadigan asarlarni pedagogik repertuar tarkibiga doimiy kiritib borish lozim. Asarlar ustida ishlaganda boshlang'ichdavrdan boshlab har bir shtrixni yazshi tovush hosil qilinishiga e'tibor berish kerak. Chunki sozandaning tovushining kuchi va sifati ijroning badiiy ifodalaydigan asosiy mezonlardan biridir. Badiiy ifodalik qashqar rubobi cholg'u ijrochiligida muhim ahamiyatga ega.

Rubob nafaqat respublikamizda, balki qardosh Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston respublikalarida ham keng tarqalgan. Shuning uchun ham professor S.M.Taxalov o'z ilmiy tadqiqot ishini “O'zbek va tojik an'anaviy cholg'u musiqasi ijrochiligi va nota yozuvlari muammolari” doirasida olib bordi va unda asosan qashqar rubobi va afg'on rubobi cholg'ulari ijrochiligi tilga olingan. Chunki rubob sozida milliy kuylar qatori mumtoz klassik kuylarni, bastakorlar ijodiga mansub rang-barang kuylarni, mashhur chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan murakkab yirik asarlarni ham mohirona ijro etish mumkin.



Rubob - o'zbek an'anaviy chertib chalinadigan cholg'u sozlaridan. Musiqa ijrochilik amaliyotida rubobning ikki turi mavjud afg'on rubobi va qashqar rubobi. Afg'on rubobi ko'proq akademik ijrochilik amaliyotida qo'llaniladi. An'anaviy rubob esa Qashqar rubobi nomi bilan mashhur cholg'udir. XX asrning boshlarida g'ashqardan keltirilgan rubobning takomillashgan varianti sifatida ijro amaliyotida ommalashgan. Tarixiy manbalarda rubobning turli nomlari keltirilganligi xususida yuqorida aytilgan edi. Xususan, Darvesh Ali Changiy o'z risolasida rubob, Sulton Muhammad Xorazmshoh davrida (1200-1220) keng ommalashgan va 4 ta ipli va 1 ta kumush torlari bo'lgan²⁶ - deb keltiradi. Davrlar osha rivojlanib, takomillashib XX asrga kelib hozirgi ko'rinishda o'zbek an'anaviy cholg'usi sifatida shakllangan. Rubob ham ikki qismdan iborat bo'lib, kosaxona va dastadan tashkil topgan. Uning kosasi butun daraxtdan o'yilib (odatda tut, o'rik va yong'oq daraxtlaridan tayyorlangan), unga hayvon terisidan parda qoplangan. Zamonaviy ruboblarga parda molning yurak pardasidan va baliq terisidan tortiladi. Kosaning dasta bilan ulangan iubilatio ikki tomonida yoysimon dekorativ shoxlar o'rnatilgan. Ular kosa bilan birga o'yilib ishlaniladi. Rubob globus boshlanish qismida 5 ta quloqlar joylashgan. Dastaga 21-23 tagacha misdan tayyorlangan maxsus pardalar xromatik tarzda o'rnatiladi.

Rubobning 5 ta tori bo'lib, I tasi ichakdan va 4 tasi po'lat simdir. 1 va 2-torlar ikkilangan tartibda joylashadi va quyidagicha kvarta- kvinta oralig'ida sozlaniladi;



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak rubob ijrochiligi badiiy xususiyatlarini mukammal egallash, asarni to'liq badiiy qimmatli qilib ijro etish sozandadan tinimsiz mehnat va izlanishni talab qiladi. Bu darajaga yetish uchun rubob ijrochisi faqatgina rubob ijrochiligini puxta egallabgina qolmay balki har qanday cholg'udagi badiiy asar ijrosini tushuna oladigan va tahlil qila oladigan musiqiy tafakkurga ega bo'lishi kerak. Bu esa musiqani chuqur his qila olish demakdir. Talabalarga aynan shu musiqani his qila olish qobiliyatini shakllantirib uni tarbiyalab borish asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli qarori.
- 2.Sh.M.Mirziyoyevning 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".

EFFECT OF OIL ON ENVIRONMENTAL POLLUTION

Ismailov Jaloliddin Kamoliddin' son

Namangan state university

Geography direction student

E-mail: ismailovjaloliddin5@gmail.com

Abstract: *This article is about the oil industry and the negative effects of oil and oil products on the environment, environmental pollution, degradation and inappropriate impact on other resources necessary for mankind, to ensure the reduction of processes It consists of studying the implementation of activities.*

Key words: *Environmental protection, ecological calendar, ecological culture, oil processing, toxic compound, soil cover, benzopyrene.*

June 5 "World Environment Protection Day" is one of the most important dates in the ecological calendar. Protection of the environment from pollution,

rational use of natural resources, and formation of ecological literacy and ecological culture of people are being paid special attention all over the world.

In our currently developing country, human health and harmlessness of nature are important factors. Many programs have been developed by the UN Environmental Protection Committee and a number of other organizations to reduce the harm and impact of harmful substances coming out of industrial enterprises on people and nature, and these activities are ongoing. In addition, within the framework of the developed programs, the standards of harmful substances released into the environment in the units of products produced by industrial enterprises are also determined accordingly. It is inappropriate not only in the world, but also in our Republic to give up industrial enterprises due to the above reasons, because industry and agriculture are the main forces that satisfy the needs of modern human society.

The oil refining industry is a branch of heavy industry that includes oil refining and the production of oil products. Oil refineries use high-octane gasoline (including B-92 aviation gasoline), diesel fuel, coke, paraffin, additives for motor oils, motor and drive oils for light vehicles (compressor, turbine, jet oils), kerosene, bitumen, fuel oil, etc. More than 50 types of oil products are produced.

bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida fuqarolar va boshqa subyektlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini tobora qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yigindisidan iboratdir. Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 2-moddasida belgilab qo'yilgan. Bunga asosan fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Fuqarolik huquqi ma'lum tartibda, muayyan guruhlariga, huquqiy institutlarga va subinstitutlarga bo'lingan fuqarolik huquqiy normalar yig'indisidan iborat. Fuqarolik huquqi institutlarining barchasini yig'indisi bir bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi tizimini tashkil etadi. Respublikamizda fuqarolik huquqi tizimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi asos qilib olingan. Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar doirasi nihoyatda keng. Bular jumlasiga oldi-sotdi, har xil buyurtmalar qabul qilish, turar joylarni ijaraga olish va berish, korxonalar, tashkilotlarning bir-biriga mahsulotlar yetkazib berish, qurilish ishlarini amalga oshirish, transport korxonalari orqali yuk va yo'lovchi www.ziyouz.com kutubxonasi tashish, yetkazilgan zararni to'latish, qonun va vasiyat bo'yicha meros olish, umuman, har qanday shakldagi mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardan iboratdir. Fuqarolik huquqi o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993 yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfidan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"da qayd etilganidek: "Fuqarolik huquqining asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy

bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan muvazelonlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar faoliyati haqida o’quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekistonning yangi qonunlari. 18-son. - T., «Adolat». 1998.
2. “Sinfidan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi” O’zbekiston Respublikasi „Ta’lim to’g’risida”gi Amalga kiritish tartibi haqida” qarori 1993-yil 16-mart.
3. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-y. Toshkent.
4. Akbarali O’g’li, Satvoldiyev Fakhridin. “PROSPECTS FOR IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF DEVELOPING LEGAL THINKING FOR SCHOOLCHILDREN (ON THE EXAMPLE OF THE PROVINCE OF NAMANGAN).” CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 4.01 (2023): 94-97.
5. Akbarali O’g’li, Satvoldiyev Fakhridin. “Maktab o’quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo’g’ini sifatida.” Ta’lim fidoyilari 13 (2022): 225-228.
6. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. SH.Mirziyoyev Toshkent, “O’zbekiston” 2016.
7. www.my.gov.uz O’zbekiston Respublikasi hukumat portali.

FUQAROLIK HUQUQIY MUNOSABATLARDA SUB’EKT LARNING HUQUQIY MAQOMI VA TUTGAN ROLI

Abdulxakimov Xasanboy Orzimurod o’g’li

*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g’oya, ma’naviyat
asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi MIG-AU-21 guruh talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Namangan Davlat universiteti Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi kafedrası stajyor o’qtuvchisi **Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o’g’li***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fuqarolik huquqiy munosabatlarda sub’ektlarning huquqlari va majburiyatlarning tushunchasi hamda ularning vujudga kelishi, o’zgarishi va bekor bo’lishining nazariy asoslari o’rganiladi. Unda fuqarolik huquqiy munosabatlardagi sub’ektlarning anashu munosabatda tutgan o’rni, vujudga kelish holatlari, anashu munosabatlardagi subyektlarning turlari, huquq va erkinliklari hamda qonun bilan belgilangan burchlari alohida holatda ko’rib chiqiladi. Bundan tashqari, subyektlarning fuqarolik huquqiy munosabatlarda tenghuquqli ishtirok etishlari uchun beriladigan vakolatlari va bunday vakolatlar qanday taqsimlanishi, uning oqibatlarini o’rganadi. Tegishli amaliy tadqiqotlar, izlanishlar va huquqiy asoslarni tahlil qilish orqali ushbu maqola ijtimoiy munosabatlarda subyektlarning turlari qanday taqsimlanishi, vakolatlar jihatidan qanday huquq va majburiyatlarga egaligini yoritishga qaratilgan.*

Kalit so’zlar: *Fuqarolik huquqi, huquqiy munosabat, subyekt, vakolat, huquq-majburiyat, boshqaruv, subyektiv huquq, yuridik majburiyat,*

Fuqarolik huquqiy munosabatlarda sub’ektlarni keng va atroflicha tushuntirishdan avval fuqarolik huquqiy munosabatlar so’ziga ta’rif berish maqsadga muvofiq bo’ladi. Fuqarolik huquqiy munosabat – bu turli sub’ektlar o’rtasida vujudga keluvchi va fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Fuqarolik huquqiy munosabat - fuqarolik huquqiy subyektlari o’rtasida tuziladigan, oldi-sotdi shartnomasi, ijara, qarz, kredit, sug’urta kabi shartnomalar tuzish orqali vujudga keladi. Fuqarolik huquqiy munosabat – ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari – mulkiy mustaqillika ega bo’lishlari kerak. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning vujudga kelishidagi hamda uing faoliyatidagi asosiy e’tibor sub’ektlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqola fuqarolik huquqiy munosabat

ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hamda anashu munosabatda subyektlarning alohida tartibdagi huquqiy ma’qomini ifodalashga qaratilgan. Albatta, fuqarolik huquqiy munosabatlarning sub’ektlari haqida gap ketar ekan, buz uning tub mohiyatiga e’tibor qaratishimiz zarur. Fuqarolik huquqiy munosabat sub’ektlarning turlari asosan uch tani tashkil etadi. Bular: Jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar hamda davlatdir. Bu uch turdagi sub’ektlar munosabatlarda ishtirokchi vazifasini amalga oshiradilar. Demak, sub’ektlarning ikkinchi nomi „Munosabat ishtirokchilari” deb ham ataladi. Fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilarining turlari haqida a’lohida to’xtalib o’tamiz. Fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilarining birinchi turi jismoniy shaxslar hisoblanadi. Fanda jismoniy shaxslarning uch turi: (fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi yo’q shaxslar) ko’rsatiladi. Fuqaro – arabcha “Faqir” ya’ni kambag’al degan ma’noni bildiradi. Fuqaro – shaxsni ma’lum bir davlatga tegishli yokki mansubligini anglatuchi belgidir. Fuqarolar ushbu huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar kabi teng huquqiy imkoniyatlardan foydalanadilar. Fuqarolar huquqiy munosabatlardagi asosiy ishtirokchilar hisoblanadilar. Fuqarolik huquqiy munosabatlardagi jismoniy shaxslarning ikkinchi turi bu – chet el fuqarolaridir. Chet el fuqarolari ham munosabatlarda ishtirokchi hisoblanib, ular qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarni bajaradilar. Chet el fuqarolari fanda Ajnabi deb ham yuritiladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlardagi jismoniy shaxslarning uchinchi turi bu – Fuqaroligi yo’q (apatirit) shaxslardir. Apatirit – degani “Bevatan”, “Vatanidan judo bo’lgan degan ma’nolarni anglatadi. Fuqaroligi yo’q shaxslar ham fuqarolik huquqiy munosabatlarida iqtisodiy va ijtimoiy sohaning turli jabhalarida teng huquqiy imkoniyatlarga egadirlar. Huquqiy munosabatlarning ikkinchi turi “Yuridik shaxslar” ham a’lohida o’rinni kasb etadi. Yuridik shaxs – o’z mulkiga xo’jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkiga ega bo’lgan, ham o’z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o’z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo’la oladigan va ularning majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo’la oladigan tashkilotdir. Aynan ular huquqiy munosabatlardagi huquqiy shartnoma va bitimlar

tuzishdagi yetakchi rolni o'ynaydilar. Huquqiy adabiyotlarda yuridik shaxslarning ikki turi jihatidan farqlanadi. 1). Tijorat tashkilotlari; 2). Notijorat tashkilotlariga bo'linadi. Tijorat yuridik shaxs degani maqsadlari daromad topish bo'lgan tashkilotlar hisoblanadi. Notijorat tashkilotlari esa maqsadi daromad topish bo'lmagan, aksincha, jamiyat va davlatga ko'maklashadigan, yordam beradigan yuridik shaxslar nazarda tutiladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda sub'ektlar ushbu munosabatga kirishlari uchun ularda fuqarolik muomala layoqati bo'lishi kerak. Fuqarolik muomala layoqati fuqarolik kodeksining 22-moddasiga ko'ra, "Fuqaroning o'z xarakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va ularni amalga oshirishi, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirishi va ularni bajarish layoqatiga aytiladi. To'liq muomala layoqati 18 yosh" deb belgilangan.

Davlat fuqarolik huquqiy munosabatlarining eng muhim sub'ekti hisoblanadi. Davlatda muomala layoqati degan tushuncha ishlatilmaydi. Chunki, davlat anashu ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan hujjatlarini chiqaradi. Davlat - jamiyat hayotining barcha sohalarida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan subyektdir. Davlatning Fuqarolik huquqiy munosabatlardagi xususiyatlari a) Fuqarolik huquqiy munosabat subyektlari amal qiladigan qonunlarni yaratadi, b) Fuqarolik huquqiy munosabatlar vujudga kelishi uchun asos bo'ladigan hujjatlar chiqaradi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda maxsus vakil qilgan davlat organlari ishtirok etish huquqiga ega. Davlat bilan yuridik shaxs o'xshashligi ular muayyan tashkilot bo'lib, ichki tuzilishiga, tashkiliy birligiga, boshqaruv organlarining, fuqarolik muomalasida o'z nomidan ishtirok etish huquqiga ega. Shunday bo'lishiga qaramay davlat yuridik shaxs emas, bu narsani isbotlovchi narsa fanda IPSO JURE deyiladi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Fuqarolik huquqiy munosabatlarda sub'ektlarsiz munosabatni o'zi bo'lmasligini hamda davlat organlari va fuqarolar qanday qilib fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirisha olishi haqida tasavvurlar va ko'nikmalar hosil qilish mumkin. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan tushuncha bu yuridik faktdir. Yuridik fakt esa harakat va holatlar

natijasida vujudga keladi ekan. Ushbu munosabatlarda davlat manashu munosabatlar tartibga solinishi zarur boʻlgan huquqiy hujjatlar koʻrsatiladi. Sub’ekt fuqarolik huquqiy munosabatlarining doimiy ravishda eng muhim tarkibiy elementlaridan biri hisoblanib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Topildiyev V.R., Jamalov N.K. “Fuqarolik huquqi” uslubiy qoʻllanma Toshkent “Mumtoz soʻz” 2014
2. R.Dj.Ruziyev, V.R.Topildiyev “FUQAROLIK HUQUQI” Umumiy Qism Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2011
- 3 O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 21.12.1995 LexUZ
4. Akbarali O‘g‘li, Satvoldiyev Fakhridin. “PROSPECTS FOR IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF DEVELOPING LEGAL THINKING FOR SCHOOLCHILDREN (ON THE EXAMPLE OF THE PROVINCE OF NAMANGAN).” CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 4.01 (2023): 94-97.
5. Akbarali O‘g‘li, Satvoldiyev Fakhridin. “Maktab o‘quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo‘g‘ini sifatida.” Ta’lim fidoyilari 13 (2022): 225-228.
6. R.Dj. RUZIYEV, V.R. TOPILDIYEV F U Q A R O L I K H U Q U Q I UMUMIY QISM Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2011
- 7.w.w.w.ziyouz.com kutubxonasi
8. w.w.w.wikipedia.uz

YURIDIK SHAXSLARNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

Mashrapova Dilyora Madaminjon qizi

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet Milliy g‘oya, ma’naviyat
asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi MIG-AU-21 guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Namangan Davlat universiteti Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi
kafedrasi o‘qtuvchisi Sultonov Akmaljon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada filiallar va vakolatxonalar ko'plab korxonalar va tashkilotlarning qonun hujjatlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu tuzilmalar kompaniyalarga o'z faoliyatini kengaytirish, ularning aloqalarini kuchaytirish va bir nechta joylarda jismoniy ishtirok etish imkoniyatini taklif qiladi. Biz yuridik shaxslarning filiallari va vakolatxonalari tushunchasini, shu jumladan ularning ta'riflari, funktsiyalari va ularni yuritish bilan bog'liq huquqiy oqibatlarini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: Yuridik shaxs, filiallar, vakolatxonalar, korxonalar, tashkilotlar, qonun, hujjatlar, savdo, marketing, mijozlar.

Yuridik shaxslarning filiallari va vakolatxonalari kompaniyalarning muhim kengaytmalari bo'lib, yangi bozorlarga, mijozlarga va resurslarga kengroq kirishni taklif qiladi. Bu sub'ektlar korxonalarning turli joylarda faoliyat yuritishiga imkon berishda muhim rol o'ynaydi va shu bilan ularning o'sishi va muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Filiallar va vakolatxonalar yuridik shaxslar tomonidan asosiy xo'jalik faoliyatini kengaytirish sifatida tashkil etiladi. Filial odatda boshqa joyda, ko'pincha savdo, marketing va mijozlarga xizmat ko'rsatish kabi asosiy biznes funktsiyalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan to'liq huquqli biznes mavjudligini ifodalaydi. Boshqa tomondan, vakolatxonalar, birinchi navbatda, asosiy kompaniyaning mahsulot yoki xizmatlarini ilgari surish, bozorni o'rganish va bozorga kirish uchun tashkil etiladi. Vakolatxonalar odatda bevosita tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydi. Filial - bu asosiy ofisga ulangan, lekin boshqa hududda joylashgan alohida va alohida biznes joyi. U o'ziga xos to'liq biznes sifatida ishlaydi, xuddi shu faoliyatni amalga oshiradi va bosh kompaniya bilan bir xil xizmatlar yoki mahsulotlarni taklif qiladi. Fuqarolik kodeksida Vakolatxonalar va filiallar to'g'risida 47-moddasida shunday ta'kidlanganki Vakolatxona yuridik shaxsning u turgan erdan tashqarida joylashgan, yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida bo'linmasidir. Filial yuridik shaxsning u turgan erdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan vakolatxona vazifalarini bajaradigan

alohida bo‘linmasidir. Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, vakolatxona va filiallar yuridik shaxs hisoblanmaydi. Ular o‘zlarini tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan mol-mulk bilan ta‘minlanadilar hamda u tasdiqlagan nizomlar asosida ish olib boradilar. Vakolatxona va filiallarning rahbarlari yuridik shaxs tomonidan tayinlanadi hamda uning ishonchnomasi asosida ish olib boradi. Odatda, filial o‘z harakatlari uchun qonuniy javobgar bo‘ladi va u bosh kompaniyaning umumiy nazorati ostida ishlayotgan bo‘lsa-da, o‘z boshqaruv jamoasi va xodimlariga ega bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan, vakolatxona boshqa funktsiyani bajaradigan filialning qisqartirilgan versiyasidir. U, birinchi navbatda, asosiy kompaniyani vakillik qilishga va uning manfaatlarini ilgari surishga qaratilgan. Vakolatxonalar ko‘pincha marketing va reklama faoliyati, bozorni o‘rganish va aloqa ishlari bilan shug‘ullanadi, biroq ularga tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotishga ruxsat berilmaydi. Huquqiy nuqtai nazardan, filiallar va vakolatxonalar asosiy yuridik shaxsning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu shuni anglatadiki, ular bosh kompaniyaning vakolati va mas‘uliyati ostida ishlaydi va bu shaxslar tomonidan yuzaga keladigan har qanday yuridik yoki moliyaviy majburiyatlar oxir-oqibat bosh kompaniyaga bog‘liq.

Ko‘pgina yurisdiksiyalarda filiallar yoki vakolatxonalar tashkil etish muayyan qonunchilik va me‘yoriy talablarga rioya qilishni talab qilishi mumkin. Masalan, ba’zi davlatlar filiallar yoki vakolatxonalar ochishga intilayotgan xorijiy yuridik shaxslarga hukumat yoki tegishli nazorat qiluvchi organlardan maxsus ruxsatnomalar yoki litsenziyalar olishlarini talab qilishi mumkin. Bundan tashqari, kompaniyalardan ushbu kengaytmalarni mahalliy biznesni ro‘yxatga oluvchi, soliq organlari va boshqa tegishli organlarda ro‘yxatdan o‘tkazish talab qilinishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, faoliyat yuritayotgan filiallar va vakolatxonalarining yuridik va soliq oqibatlari bir yurisdiksiyadan boshqasiga sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, filiallar ko‘pincha soliq maqsadlarida bosh kompaniyaning bir qismi sifatida ko‘rib chiqiladi, vakolatxonalar esa ularning daromad olish qobiliyatida cheklovlarga ega bo‘lishi mumkin va turli soliq qoidalariga bo‘ysunishi mumkin. “Chet el investitsiyalari

to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-modtsasida ko'rsatilishicha, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona ushbu Qonun talablariga rioya etgan xolda O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan sho'ba korxonalar, filiallar, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan vakolatxonalar va boshqa aloxdtsa bo'limlar ochishi mumkin.

Amaliy nuqtai nazardan, filiallar va vakolatxonalar yuridik shaxslarga ko'plab imtiyozlar berishi mumkin. Ushbu imtiyozlar bozorga kirishni kengaytirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va yangi bozorlarda jismoniy ishtirok etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Biroq, yuridik shaxslar filiallar yoki vakolatxonalarni tashkil etishdan oldin mahalliy qonunlar va qoidalarga muvofiqligini ta'minlash uchun huquqiy, tartibga solish va operatsion oqibatlarini diqqat bilan baholashlari kerak. Yangi joyda filial yoki vakolatxona tashkil etish yuridik shaxsga bir qancha imtiyozlarni berishi mumkin. Bu kompaniyalarga o'z izlarini kengaytirish va mijozlariga yaqinroq yordam ko'rsatish imkonini beradi, natijada xizmat ko'rsatish darajasini oshiradi. Bundan tashqari, filiallar yoki vakolatxonalar tashkil etish korxonalarga turli mintaqalarda yuzaga keladigan bozor imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu kengayish yuridik shaxslarga kengroq iqtidorlar fondidan foydalanish, strategik hamkorlik va potentsial xarajatlarni tejash imkonini ham berishi mumkin. Ammo shuni yodda tutingki, filiallar va vakolatxonalarni tashkil etish muayyan me'yoriy va huquqiy tartib-qoidalarga rioya qilishni talab qiladi. Turli mamlakatlarda bunday tashkilotlarni tashkil etish va faoliyat yuritishini tartibga soluvchi turli qoidalar va talablar mavjud. Yuridik shaxslar valyuta nazorati, mehnat qonunchiligi va soliq majburiyatlari kabi masalalarni o'z ichiga olgan mahalliy qonunlarga rioya etilishini ta'minlash uchun tijorat, soliq va tartibga solish masalalarini ko'rib chiqishlari kerak. Yuridik shaxslar filiallar va vakolatxonalarni tashkil etish masalasini ko'rib chiqishda ular bilan bog'liq xarajatlarni va investitsiyalarning potentsial daromadlarini sinchkovlik bilan baholashlari kerak. Bunga operatsion xarajatlarni, yuridik to'lovlarni, muvofiqlik xarajatlarini va doimiy ma'muriy va qo'llab-quvvatlash xarajatlarini baholash kiradi.

Xulosa qilib aytganda, filiallar va vakolatxonalar yuridik shaxslarning muhim kengaytmalari bo'lib, biznesni kengaytirish, bozorda ishtirok etish va mijozlarni jalb qilishga yordam beradi. Biroq, bunday kengaytmalarning ishlashi ko'pincha kompaniyalar e'tiborga olishlari kerak bo'lgan huquqiy va me'yoriy fikrlar bilan birga keladi. Mahalliy qonunlar va qoidalarga rioya qilgan holda yangi bozorlarda o'z ishtirokini o'rnatishga intilayotgan yuridik shaxslar uchun faoliyat yuritayotgan filiallar va vakolatxonalarning huquqiy oqibatlarini tushunish juda muhimdir. Filiallar tashkil etish yoki vakolatxonalar tashkil etish o'z faoliyatini kengaytirish va mustahkamlashni maqsad qilgan yuridik shaxs uchun strategik qadam bo'lishi mumkin. Biroq, kompaniyalar mahalliy qoidalarga rioya qilishni ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan imtiyozlar va muammolar haqida asosli qarorlar qabul qilish uchun sinchkovlik bilan tekshirish va professional maslahat olishlari juda muhimdir. Ehtiyotkorlik bilan mulohazalar va strategik rejalashtirish bilan filiallar va vakolatxonalar turli bozorlarda faoliyat yurituvchi yuridik shaxslarga o'sish va kengayish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK KODEKSI O'zbekiston Respublikasining 21.12.1995 y. 163-I-son va 29.08.1996 y. 256-I-son Qonunlari bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996 y. 257-I-son Qaroriga muvofiq 01.03.1997 y. e'tiboran amalga kiritilgan.
2. R.Dj.Ruziyev, V.R.Topildiyev “FUQAROLIK HUQUQI” Umumiy Qism Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2011
3. J.I.Yuldashev “FUQAROLIK HUQUQI” Toshkent — 2017
4. Akbarali o'g'li, Satvoldiyev Fakhridin. “PROSPECTS FOR IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF DEVELOPING LEGAL THINKING FOR SCHOOLCHILDREN (ON THE EXAMPLE OF THE PROVINCE OF NAMANGAN).” CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 4.01 (2023): 94-97.
5. Akbarali o'g'li, Satvoldiyev Fakhridin. “Maktab o'quvchilarining huquqiy

tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo‘g‘ini sifatida.” Ta’lim fidoyilari 13 (2022): 225-228.

6. Topildiyev V.R., Jamalov N.K. “Fuqarolik huquqi” uslubiy qo‘llanma Toshkent “Mumtoz so‘z” 2014

DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK – BEBAHO TINCHLIGIMIZ GAROVI

Javoxir Yuldashev,

Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda millatlararo totuvlik, dinlar orasidagi bag‘rikenglik tamoyillari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, bag‘rikenglik xislati xalqimizga xos bo‘lgan fazilatlardan biri ekanligi haqidagi fikr-mulohazalar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, tolerantlik, muruvvat, jizya, ahli zimma.

Yurtimiz qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilmaxil dinlarga e‘tiqod qiluvchi va bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan turli xalqlar, millatlar yashab kelayotgan zamindir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e‘tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular

o’rtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Konstitusiyamizda “O’zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo’lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar”, – deb belgilab qo’yilganligi, ko’pmillatli xalqimiz o’rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash uchun yaratilgan zamindir.

Mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlash uchun barcha huquqiy asoslar hamda zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bag’rikenglik madaniyatini shakllantirish va yanada mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Bag’rikenglikdan asosiy ko’zlangan maqsad insoniyatni tinchlik va osoyishtalikni saqlashga undashdir. Hozirgi kunda O’zbekiston diniy bag’rikenglik va dinlararo muloqot borasida butun dunyoga namuna bo’lmoqda. Respublikamizda istiqomat qilayotgan fuqarolar qaysi dinga mansub bo’lishidan qat’iy nazar birgalikda, tinch va osoyishta sharoitda, yurtimiz ravnaqi uchun faoliyat yuritib kelmoqdalar. Yurtimizda vijdon erkinligiga doir qonun asoslari yanada takomillashtirildi. Bugungi kunda O’zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to’siqlarsiz o’z dinlariga e’tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Tarixdan shu narsa ma’lumki, qaysi jamiyat hayotida diniy bag’rikenglik tamoyillari o’z ifodasini topsa, o’sha jamiyatda o’zaro hurmat va samimiyat qaror topib, barcha insonlar tinch va osoyishta hayot kechiradilar. Tinchliksiz taraqqiyot va farovonlik bo’lmagani kabi, diniy bag’rikengliksiz tinchlik barqaror bo’lmaydi. Shuning uchun ham insoniyat Yer yuzida hayot kechirishni boshlagandan buyon bag’rikenglik tamoyillariga amal qilib yashashga ehtiyoj sezadi. O’rta Osiyo, xususan O’zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo’lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi, bir-biriga o’xshash bo’lmagan bir necha xalqlar yashagan o’lkadir. O’zbekistonning jo’g’rofiy nuqtai nazaridan muhim savdo yo’llari chorrahasida joylashgani, ko’plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani yerli xalqlarning diniy va ma’naviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrda urf-odatlar ham o’zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli ta’sir

ko’rsatgan. Bu esa o’ziga xos millatlararo hamjihatlik va diniy bag’rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo’lib xizmat qilgan. Haqiqatdan ham O’zbekiston zaminida qadim zamondan islom dini bilan bir qatorda boshqa din vakillari ham yonma-yon yashab, rivojlanib va bu jamiyatning ma’naviy yuksalishiga muayyan hissa qo’shdi.

Mana shunday diniy bag’rikenglik namunalarini yurtimizda yashab o’tgan buyuk ajdodlarimiz hayotida ham ko’plab ko’rishimiz mumkin. Ayrimlarini misol tariqasida keltiradigan bo’lsak, buyuk sarkarda Amir Temur bobomizning qo’shini tarkibida yahudiy va yana boshqa dinga mansub askarlarni ham xizmat qilishi yoki Sohibqironning o’g’illaridan Mironshoh o’sha paytdagi Fransiya, Ispaniya va Angliya kabi davlatlar bilan diplomatik aloqalar uchun mas’ul etib tayinlangani fikrimizning tasdig’idir. Hindiston xalqi bugungi kungacha Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlarini hurmat bilan yodga oladi. Sababi boburiylar davlatni diniy bag’rikenglik asosida boshqargan edilar. Dinlararo bag’rikenglik g’oyasi nafaqat dindorlarning, balki, butun jamiyat a’zolarining ezgulik yo’lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Azal-azaldan yurtimizning yirik shaharlarida masjid, cherkov va sinagogalar o’z ibodatchilariga emin-erkin xizmat ko’rsatib kelgani, tariximizning og’ir sinovli damlarida ham diniy asosda hech qanday mojaro kelib chiqmaganligi xalqimizning dinlararo bag’rikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham O’zbekistonda tom ma’noda diniy bag’rikenglikning yuksak an’analariga amal qilinayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Yahudiylar jamoasining vakillaridan biri R. Beneman shu haqda to’xtalar ekan, Buxoroda dastlabki sinagoga VIII asrdayoq qurilganini, boshqa din vakillari bilan bir qatorda o’z dinlariga erkin e’tiqod qilish uchun o’sha paytdayoq yetarli shart-sharoit yaratib berilganini ta’kidlab, “O’rta asr Yevropasi va Vizantiya imperiyasida quvg’in qilingan yahudiylar, Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan bir xil huquqqa ega edi”, – deb yozadi.

O’zbek xalqining bag’rikengligi turli e’tiqod va madaniyatlarga hurmat bilan qarashi millat va elat vakillari tomonidan chuqur samimiyat bilan e’tirof etilmoqda.

Hozirgi vaqtda yurtimizda 130 dan ortiq millat vakillari, 16 ta diniy konfessiya, 2200 dan ortiq diniy tashkilotlarning diniy bagʻrikenglik asoslariga rioya qilgan holda oʻzaro tinchtotuvlikda umrguzaronlik qilayotgani soʻzlarimizning yaqqol dalilidir. Demak, yuqoridagilardan maʼlum boʻladiki, jamiyatning rivojlanishi, tinch va osoyishta boʻlishi, totuvlik va hamjihatlik qaror topishi uchun insonlar oʻzaro mehr-oqibatli boʻlishi, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, qarindoshchilik va qoʻshnichilik haqlariga rioya etish, oʻzga din vakillariga bagʻrikeng boʻlish kabi insoniy fazilatlarda namoyon boʻladi. Zero, millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglik va hamjihatlik fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy mezonlaridan biri boʻlib, ushbu tamoyillar yurtimiz taraqqiyoti va tinchligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida soʻzlagan nutqidan.
2. Beneman R. Deyatelnost religioznych organizatsiy po ukrepleniyu mejreligioznogo soglas

BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARIDA MATEMATIK TASAVVURLARINI INTEGRATIV YONDASHUV SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

M.M.Murodova

Turon zarmed universiteti “Maktabgacha ta’lim va sport” kafedrasi oʻqituvchisi

Annotasiya: mazkur maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarida matematik tasavvurlarni rivojlantirish va fanlarning oʻzaro aloqadorligi haqida soʻz boradi. Maqolagi fikr- mulohazlar ta’lim olishga ishtiyoqi yuqori boʻlgan oʻquvchilarning bilim olishga fanning nozik nuqtalarini oʻrgatishda oʻtuvchilar uchun muhim manba sanaladi.

Tayanch atamalar: matematika, tasavvur, integrativ yondashuv, integrasiya, fanlarning mazmuni, aloqadorlik, muloqot, dars, tuzilish, afzallik, kamchilik, tafakkur, qarash.

THE CONTENT OF FORMING AN INTEGRATIVE APPROACH OF MATHEMATICAL IMAGINATION IN PRIMARY CLASS STUDENTS

M.M. Murodova

teacher of the "Pre-school education and sports" department of Turan Zarmed University

Annotation: *this article talks about the development of mathematical imagination in elementary school students and the interrelationship of sciences. Essay reviews are an important resource for students who are eager to learn the finer points of science.*

Basic terms: *mathematics, imagination, integrative approach, integration, content of sciences, connection, communication, lesson, structure, advantage, disadvantage, thinking, vision.*

СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА МАТЕМАТИЧЕСКОГО ВООБРАЖЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Муродова М.М.

преподаватель кафедры «Дошкольное воспитание и спорт» Университета Туран Зармед

Аннотация: *в данной статье говорится о развитии математического воображения у учащихся младших классов и взаимосвязи наук. Обзоры эссе — важный ресурс для студентов, которые хотят изучить тонкости науки.*

Основные условия: математика, воображение, интегративный подход, интеграция, содержание наук, связь, общение, урок, структура, преимущество, недостаток, мышление, видение.

Maktabgacha ta'limi tizimini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'limning yangi bosqichda boshlang'ich sinflar o'quvchilarining integrativ yondashuv yordamida matematik tasavvurlarini shakllantirish, ijodiy fikrlaydigan, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda [1.3-b] innovatsion bilimlar va kasb-hunarlarni o'rganib, kelajakda fuqarolik jamiyaning munosib vakiliga aylanishi, yetuk mutaxassis bo'lishini davrning o'zi talab etmoqda. Zero, o'quvchilarimizni mukammal bilimlarni o'rganib, ilm-fan va texnikaning yutuqlaridan samarali foydalanib, keying hayoti davomida mehnat faoliyatiga egallagan bilimlaridan samarali natijalarga erishishiga ko'maklashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish integrativ yondashuv yordamida o'rganish zaruriyati, yo'zilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va qiyosiy tahlili, integrativ yondashuv asosida ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglar Ya. Komenskiy, D. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalotssi, K. Ushinskiy R. Safarova, A. Musurmonov, P. Musayev, A. Ch. Choriyev, A. A. Salomov, B. Abdullayeva kabi o'zbek olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilish, I. Ya. Lerner, M. N. Skatkinlar matematik bilimlar asosida o'quv jarayonini faollashtirish, M. K. Ashirova matematikaning boshqa fanlar bilan fanlararo aloqadorligi xususiyatlari, A. M. Matyushkin, V. T. Kudryavtseva, L. S. Vigotskiy, B. G. Ananov, G. F. Fedoresning ilmiy tadqiqot ishlarda matematik ko'nikma va malakalarni fanlararo aloqadorlikda shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari,

o‘quvchilarda bilishni takomillashtirishning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Maktab ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[3]gi farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, PF-134-sonli, “2022-2026-yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”[5]gi farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-22-sonli “Maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[4]gi farmoyishlarida ta’lim tizimini sifat va mahsuldorligini oshirishga alohida ahamiyat berilganligi bilan ahamiyatlidir.

Asosiy qism. Matematik tasavvurlarni shakllantirishning mazmuni integrativ yondashuvga qaratilgan ekan, albatta integratsiya, yondashuvlarning integrativ shakli, fanning o‘zaro aloqadorligi, qonuniyatlar, tamoyillar, fanning shart-sharoitlari, shakl, usul, metodlari mavzuni mazmunini ochib berishi lozim.

“Nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”[2] o‘quvchilarning ilm olishining boshlang‘ich davrida integratsiya masalasi amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. I-IV sinflarda integratsiyalash masalasi keyingi paytda bir qancha yondashishlarga ega. Pedagoglarning ikkitasi fanni bir darsga birlashtirib, uni bir pedagog tomonidan o‘tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirishni ham taqozo etadi.

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim, innovatsion ta’lim jarayoning muhim kontseptual g‘oyalaridan biri sanaladi. Integratsiya—so‘zi lotincha —*integro*—tiklash, to‘ldirish, —*integer*—butun so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, integratsiya—ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir[7.314-b].

Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, ona tilida kommunikativ,

kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni nazarda tutadi [6. 75-b].

Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integrativ ta'lim —o'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Bolalar o'z bilimlarini amaliyotda aniq va lo'nda, ravon ifoda erishgan muyassar bo'lishadi, chunki bu yondashuvda bilimlarning tub mohiyati keng ochib berish imkoniyati olamni bir butunlikda, bir-biriga bog'liq holda tasavvur qilish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi[7].

Integratsiya fanlararo aloqalarni, turli ta'lim dasturlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish orqali ta'lim mazmunining yaxlitligiga erishish jarayoni, natijasidir. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoning mazmuni fanlararo aloqadorlikka asoslanadi. Shunday ekan, boshqa fanlar singari matematikani atrofimizni o'rab turgan dunyoni, tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganadi. Masalan, o'lchov haqidagi fan predmetlarning shakli va o'lchamlari o'rganadi, uning boshqa xususiyatlari: massasi, rangi, qattiqligi va boshqalar inobatga olinmaydi, abstraktlanadi. Shuning uchun geometriyada «predmet» so'zi o'rniga «o'lchov shakli» deyiladi. Kema, nur, to'g'ri chiziq, burchak, kvadrat — geometrik figuralardir. Matematik tushunchalar ham abstraktlash natijasi «Son» va «kattalik» larda namoyon bo'ladi.

Atrof dunyo predmet va hodisalaridan miqdoriy va fazoviy xossa va munosabatlarni ajratish hamda ularni boshqa barcha xossalardan abstraktlash har qanday matematik obyektlar natijasidir. Demak, matematik obyektlar real holda mavjud emas, bizni o'rab turgan dunyoda geometrik figuralar, sonlar va hokazolar yo'q. Ularning barchasi jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida kishilar ongi bilan yaratilgan va faqat kishilar tafakkurida hamda matematik ta'lim tashkil etuvchi belgi va simvollarda mavjud.

Matematik obye’ktlarni tashkil etishda mos predmetlarni ko’pgina xossalardan nafaqat abstraktlash, balki ularga hech qanday real predmet ega bo’lmagan xossalarni qo’shish hollari ham yuz beradi. Masalan, to’g’ri chiziq kabi matematik ob’yektda faqat real predmetlarning uzunliklari xossasigina emas, balki ikkala yo’nalishdagi cheksiz uzunliklarda namoyon bo’ladi.

Qadimgi Misr davlatida yer o’lchovchilar yerga ikkita qoziq qoqqanlar va ular orasiga arqon tortganlar. Biroq, kichik qoziqlar olish, arqon o’rnida esa ingichka ip olish mumkin. Buni yana ham aniqlashtirish nima uchun mumkin emasligi noaniq.

Moddiy jismlarning o’ziga xos xususiyatlari noaniqligi u yoki bu shartlar bilan bog’liq bo’lib, ularni geometrik yasashlarning o’zining mohiyatiga nisbatan tasodifiydir. Shuning uchun jismlarning shakli va o’lchamlari asosan cheksiz aniqlashtiriluvchi deb tasavvur sifatida qatnashadi. Bundan ideal geometrik figuralar haqidagi tasavvurlar hosil bo’ladi. Masalan, yog’ochdan ham, temirdan ham, boshqa narsadan ham yasalmagan uchburchak, ideal uchburchak sifatida qaralmoqda. Tasavvurlarning vujudga kelishi va qaror topishining birinchi sababi uzviy bog’langan ikkinchi sababi aniq mulohazalar predmetlarni talab qilishidan iborat. Xulosalar chiqarish, amaliy topshiriqlarni yechish uchun aniq qoida zarur. Aniq qoida esa aniq tushunchani talab etadi, shuningdek, aniq tushuncha aniq nazariyani talab etadi. Geometriyaning ideal tushunchalarining qaror topishining ikkinchi sababi mana shundan iborat. Hozir ham davom etayotgan geometrik tushunchalarni aniqlashtirish, matematik mulohazalar – ta’rif va teoremlarni aniqlashtirish bilan mustahkam bog’langan. Aniq ish uchun yaxshi aniq ish quroli zarur bo’lgani kabi, aniq nazariya, oqibat natijada, fan va texnikada qo’llash uchun zarur.

Aytilganlarga yana shuni qo’shimcha qilish mumkinki, moddiy dunyoning fazoviy shakli va miqdoriy munosabatlarni o’rgana borib, matematika nafaqat abstraktlashning turli usullaridan foydalanadi, balki abstraktlashning o’zi ko’p bosqichli jarayon sifatida qatnashadi. Matematikada faqat real predmetlarni o’rganish davomida paydo bo’lgan tushunchalargina emas, balki dastlabki

tushunchalar asosida vujudga kelgan tushunchalarning xossalari ham qaraladi. Masalan, oʻzgaruvchi tushunchasi konkret oʻzgaruvchi miqdor (kattalik)ning abstraksiyasidir, ya’ni abstraksiyadan abstraksiyadir.


Matematika oʻzining rivojlanish davrida bir qancha bosqichlardan oʻtdi. U bu bosqichlarning har birida moddiy dunyoning turli-tuman shakli va miqdoriy munosabatlarini bilish va anglashning ma’lum usullarini yaratdi. Xususan, hozirgi vaqtda keng tarqalgan oʻrganishning matematik modellarini yasash metodi biror-bir majmuasi (toʻplami) ning matematik simvolikalar yordamida taqriban tavsiflanishidir. Matematika modellarni oʻrganish bilan birga, u real borliqning oʻzini ham oʻrganadi. Masalan, $u = kx$ funktsiyaning xossalari haqidagi bilimlar turli miqdorlar orasidagi: vaqt bilan toʻgʻri chiziqli tekis harakatdagi masofa orasidagi, buyum miqdori bilan narxi orasidagi va boshqa bogʻlanishlarning oʻziga xos xususnyatlarini tavsiflash imkonini beradi.

Umuman, matematikada abstraktlash uni bilishning turli sohalarida qoʻllash imkonini beradi, chunki u tabiatni bilish va texnikani yaratishning qudratli qurolidir.

Har qanday matematik ob’jekt ma’lum xossalarga ega. Masalan, kvadrat toʻrtta tomon, toʻrtta toʻgʻri burchak, teng diagonallarga ega.

Kvadratning boshqa xossalarini ham koʻrsatish mumkin.

Obyektning xossalari orasida uni boshqa ob’yektlardai ajratish uchun muhim va muhim boʻlmagan xossalari farq qilinadi. Agar xossa ob’jekt uchun oʻziga xos va bu xossasiz obyektning mavjud boʻlishi mumkin boʻlmasa, bu xossa obyekt uchun muhim xossa hisoblanadi. Muhim boʻlmagan xossa — bu shunday xossalarki, ularning boʻlmasligi obyektning mavjud boʻlishiga taʼsir etmaydi.



A Masalan, kvadratning aytib oʻtilgan xossalari muhim xossalardir, “ABCD kvadratning AD tomoni gorizontal holatda” xossa muhim xossa emas (agar ABCD

kvadrat burilsa (1-rasm), AD tomon boshqacha holatda joylashadi). Shuning uchun berilgan obyekt nimani anglatishini tushunib olish uchun uning muhim xossalarini bilish yetarli. Bunday holda **bu obyekt haqida “tushuncha mavjud”** deyishadi.

Obyektning barcha o‘zaro bog‘langan muhim xossalari to‘plami bu obyekt haqidagi **tushunchalar mazmuni** deyiladi.

Matematik obyektlar haqida gap borganda, odatda bitta termin (so‘z, nom) bilan ifodalanadigan (belgilanadigan) barcha obyektlar to‘plami ko‘zda tutiladi. Jumladan, kvadrat haqida gap borganda kvadrat bo‘lgan barcha geometrik figuralar ko‘zda tutiladi. Barcha kvadratlarni to‘plami kvadrat tushunchasi ko‘lamini (hajmini) tashkil etadi. Umuman tushunchaning hajmi – bu aynan bir termin bilan belgilanuvchi barcha obyektlar majmui (to‘plami) dir.

Shunday qilib, har qanday tushuncha termin, hajm va mazmun bilan xarakterlanadi.

Tushuncha hajmi va uning mazmuni orasida bog‘lanish mavjud: tushunchaning hajmi qancha “katta” bo‘lsa, uning mazmuni shuncha “kichik” bo‘ladi va aksincha, masalan “to‘g‘ri to‘rtburchakli” uchburchak tushunchasining hajmi “uchburchak” tushunchasining hajmidan “kichik”, chunki birinchi tushunchaning hajmiga hamma uchburchaklar kiravermaydi, faqat unga to‘g‘ri burchakli uchburchaklar kiradi. Biroq birinchi tushunchaning mazmuni ikkinchi tushunchaning mazmunidan “katta” to‘g‘ri burchakli uchburchak faqat barcha uchburchakning xossalarigagina ega bo‘lib qolmay, balki faqat to‘g‘ri burchakli uchburchaklarga xos bo‘lgan boshqa xossalarga ham ega.

Boshlang‘ich matematika kursi turli tuman matematik tushunchalarga bor. Masalan, o‘quvchilar birinchi sinfdayoq “raqam”, “son”, “qo‘shiluvchi”, “yig‘indi”, “kesma”, “kesmaning uzunligi” va boshqa ko‘pgina tushunchalar bilan tanishadilar. Ikkinchi sinfda bularga ko‘paytirish va bo‘lish bilan bog‘liq tushunchalar, uchinchi sinfda esa kasr, figuraning yuzi va boshqa tushunchalar qo‘shiladi.

Integrativ yondashuv bilan ta’lim tashkil etiladigan shakllari **integratsiyalashgan kurs, integratsiyalashgan dars** sanalib, ularning mazmini ko‘p qirrali bo‘lib, ularning mohiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli xil

ilmiy tushunchalar, kategoriyalar va yondashuvlarda ifodalanadigan sifat jihatidan yangi turdagi bilimlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda tegishli fanlar pedagoglarining ishtiroki psixologik muammoni hal qiladi. O'quvchilarni yangi ma'lumotlar blokiga osongina kiritish imkonini beradi, pedagogning umumiy va kasbiy madaniyati darajasining o'sishiga yordam beradi, global ta'lim nuqtai nazaridan maktab o'quvchilarining qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishga ham ko'maklashadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlarni talab etib, darsni ikki fan pedagogi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir pedagog tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishni ko'rsatmoqda. ham taqozo etadi.

Demak, matematik ob'ektlar real holda mavjud emas, bizni o'rab turgan dunyoda geometrik figuralar, sonlar va hokazolar yo'q. Ularning barchasi jamnyatning tarixiy rivojlanish jarayonida kishilar ongi bilan yaratilgan va faqat kishilar tafakkurida hamda matematik talim tashkil etuvchi belgi va simvollarda iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston nashriyoti, 2023. 48-b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. T: 2020. 23 sentyabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi maktab ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-sonli Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, PF-134-sonli, “2022 — 2026-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni, 2022.11.05.

5. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b
6. Ashurbayeva R. Ta’lim tizimida integrativ yondashuvdan foydalanish // BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2019, № 4 (75)
7. Mavlonova R, Vohidova N va boshqalar. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: –Fan va texnologiyalar. 2013. 314-b
8. Murodova M. M. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini tabiatshunoslik fani bilan integrativ yondashuv asosida tashkil etish //pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 77-79.
9. Murodova M. M. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini tabiatshunoslik fani bilan integrativ yondashuv asosida tashkil etish. 2022 20, May. <https://zenodo.org/records/6567419>
10. Murodova M. M. *Boshlang'ich sinflarda matematika fanini tabiatshunoslik fani bilan integrativ yondashuv asosida tashkil etilishi.* (2022). <https://www.pedagogs.uz>
11. Murodova M.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishning ahvoli // Экономика и социум. 2022. №12-1 (103). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-integrativ-yondashuv-asosida-darslarni-tashkil-etishning-ahvoli> (дата обращения: 13.12.2023).
12. Ortiqov O. R. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 42-47.
13. Ortiqov O. Bo‘lajak o‘qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda umuminsoniy tarbiyaning o‘rni - Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2021
14. Ortiqov.O.R. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tashkil etilishi. Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Том 3 № 10 2023.10.17

GLOBALLASHUV JARAYONIDA JAMIYAT HAYOTIDA MILLIY QADRIYATLAR VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALASI

Tursunov Ramziddin Abdixalil o’g’li

*Namangan davlat pedagogika instituti Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot
faoliyatini tashkil etish bo’limi boshlig’i*

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kunda jamiyat hayotida ro’y berayotgan o’zgarishlar, xususan globallashuv jarayoni, uning mazmun mohiyati, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va millatlararo totuvlik masalasi, ma’naviyatga ehtiyoj hamda uning ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalardan iborat

Zamonaviy iqtisodiyotda yuzaga keladigan muammolar evolyutsiyasi, ularning oldindan aytib bo'lmaydiganligi tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali iqtisodiy rivojlanish yo'llarini izlash iqtisodiy tafakkur va odamlarning xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishni talab qiladi.

Iqtisodiy tafakkur – tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiya kabi aqliy operatsiyalar yordamida iqtisodiy hodisalar, obyektlarning mohiyatini bilish, ularning qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Iqtisodiy fikrlash yoki iqtisodiy nuqtayi nazardan fikrlashning o‘ziga xos xususiyati uning iqtisodiy faoliyatga, insonning ong bilan tartibga solinadigan, intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradigan va iqtisodiy ehtiyojlar, manfaatlar va munosabatlarni amalga oshirishga, mehnat sifati va miqdorini yaxshilashga va moddiy jihatdan muhim natijalarga erishishga qaratilgan aqliy hamda mehnat faoliyatiga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Uzoq vaqt davomida iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning hojati yo‘q edi. Chunki, ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida hech narsani o‘zi hal qilmasligi kerak edi, chunki inson iqtisodiy munosabatlarning ishtirokchisi bo‘lmaganligi sababli, unga ta’sir o‘tkazish kerak emas edi. iqtisodiy voqealar rivojiga, xo‘jalik tizimida o‘z o‘rnini tanlashiga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga o‘sha davrda mavjud bo‘lgan rag‘batlantirish tizimi to‘sqinlik qildi.

Iqtisodiy fikrlash iqtisodiy voqelikni subyektiv aks ettirish shakli sifatida insonning iqtisodiy makondagi xatti-harakatlarini belgilaydi. Shaxsning iqtisodiy xulq-atvori iqtisodiy qaror qabul qilishda ifodalanadi. Shaxsning shakllangan iqtisodiy tafakkuri va xarakteri natijasida uning iqtisodiy xulq-atvorining xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy xulq-atvorning asosiy maqsadiga erishish – maksimal foyda olish;
- iqtisodiy xulq-atvorning axloqiy me‘yorlarga va ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bog‘liqligi.

Iqtisodiy tafakkurning shakllanishi, shaxsning iqtisodiy xulq-atvoriga qo‘yiladigan talablar iqtisodiy ta’limni takomillashtirish, iqtisod sohasidagi qonunchilik bazasini mukamallashtirish, o‘quv jarayonida tarbiyaviy ishlarning rolini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida mehnatni intellektuallashtirish maxsus va umumiy ta’limning yuqori darajasiga bo‘lgan talabni oshiradi.

Iqtisodiyotning shaxs va umuman jamiyat hayotida ortib borayotgan ahamiyati ta'siri ostida, har doim ham axloqiy va ma'naviy yo'l bilan emas, balki moliyaviy barqarorlikka, ijtimoiy mavqega erishish istagida ifodalangan shaxslarning xatti-harakatlarida o'zgarishlar ro'y beradi. Shu munosabat bilan oilada ham, ta'lim muassasalarida ham shaxsni axloqiy tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy fikrlashning jamiyat a'zolari o'rtasida orttirish bevosita iqtisodiy fanlarni o'qitish sifatini oshirish orqali yechim topadigan masala hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarni an'naviy usullarda o'qitish o'z navbatida jamiyatdagi maxsus iqtisodiy bilimlarga ega aholi doirasini toraytiradi. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda darslarni tashkil etish hamda jahon amaliyotida ijobiy natijalarga ega bo'lgan ta'lim metodlari, usullari va texnologiyalari bilan integratsiyalashuv iqtisodiy fanlarni o'qitishni sifat darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish sifatini oshirish bevosita quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

- iqtisodiy fanlarni o'qitish uchun o'qitish va ta'limning umumiy qonuniyatlarini ham, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham o'zlashtirish;
- iqtisodiy fanlarni o'qitishning metod va vositalarini yuqori saviyada o'rganish;
- o'quv mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish;
- o'qituvchining talabalar mustaqil ishlariga rahbarlik qilish malakasini chuqurlashtirish;
- ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash [1].

Hozirgi sharoitda iqtisod fanini o'qitish metodikasining o'rni va ahamiyati ortib borayotganligi quyidagi omillarga bog'liq:

- iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi mutaxassislar o'z g'oyalarini talabalarga yetkazishda ijrochilik bilan cheklanib qolmay ijodkorlik qilishlari ham talab etilishiga;

- iqtisodiy fanlarni o’qitishda jamiyatdagi talaba (iste’molchi)larning iqtisodiy vazifalarini boshqa jabhalardan ajrata olish ko’nikmalarini shakllantirishga;

- nazariy berilayotgan bilimlarni amaliyotda mutaxassislar yordami bilan chambarchas bog’liqligini ta’minlashga;

- iqtisodiy fanlarni o’qitishda ta’lim beruvchilarga ta’lim berish huquqi kasbiy kompetensiyaga ega ekanligi bilan bog’liq.

Iqtisodiy fanlarni o’qitish metodikasi – iqtisodiy ta’lim sifatini oshirish omili hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarni o’qitish metodikasi o’zida nafaqat asosiy iqtisodiy bilim va qonuniyatlarni, balki ushbu bilimlarni idrok etishning psixologik va ijtimoiy-siyosiy qonuniyatlarini ham sintez qiladi [1].

Iqtisodiy fanlarni aholining turli yosh guruhlariga qanday o’rgatish, o’quvchilarga iqtisodiy bilim, ko’nikma va malakalarni qiziqarli va samarali o’tkazish yo’llari iqtisodiy fanlarni o’qitish metodikasining asosiy muammosidir.

O’quv jarayonining muvaffaqiyati sifati u yoki bu o’quv materialini qanday yetkazish va o’qitish natijasi qanchalik jiddiy va professional bo’lishiga bog’liq. O’qitishning muhim uslubiy yondashuvi talabalarning bilim olishga bo’lgan ehtiyojini shakllantirishda namoyon bo’ladi. Iqtisodiy fanlarni o’qitish jarayonida talabalarning muammoli vaziyatlarni yechishdagi mehnatini, mustaqil tadqiqot faoliyatini tashkil etish mumkin.

Iqtisodiyot bo’yicha raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy tizimi ko’nikma va malakalarini baholash tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Xorijiy tajribalar asosida o’quv jarayonini tashkil etish talabalarning imkoniyatlarini faollashtirishga imkon beradi. Zamonaviy ta’lim madaniyati odamlarga o’z iste’dodlarini ochishga yordam berishi, nafaqat talabalarga ma’lumot berish, balki iqtisodiy ma’lumotlarni amaliy hayotda qo’llashni ham o’rgatishi kerak.

Xorijiy tajribalar asosida iqtisodiy fanlarni o’qitishda o’qituvchi o’qitish tamoyillari sifatida belgilangan metodikaning eng muhim talablariga rioya qilishi

kerak. Iqtisodiy fanlarni xorijiy tajribalar asosida o‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq:

- ilmiy o‘qitish tamoyili – eng yangi yutuqlarni hisobga olgan holda materiallarni ilmiy tarzda taqdim etish, eskirgan iqtisodiy tushunchalar va qarashlarni asosli rad etish;

- amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili – o‘quv jarayoni zamonaviy sharoitda iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlarini ochib berishni, o‘quv kursi sohasidagi amaliy ishlanmalardan foydalanishni, kelajakda egallanadigan mutaxassilik va kasbiy jarayonlarga talabalarni ruhiy tayyorlashni e’tiborga oladi;

- ma’lumotlarni yaxlit va tezkor uzatish tamoyili;

- ta’lim oluvchilarning iqtisodiy kompetensiyasi imkoniyatlari doirasida ta’lim berishning noan’anaviyligi, qamrovi va tashkiliyligi bo‘yicha qulaylik tamoyili;

- vizuallik tamoyili;

- kollaborativlik va o‘rganishga individual yondashish tamoyili.

Iqtisodiy fanlarni o‘qitishning zamonaviy metodlarining mohiyati tegishli o‘qitish usullarini qo‘llash orqali o‘quv maqsadlariga muvaffaqiyatli va oqilona erishishni ifodalaydi. Iqtisodiy fanlarni o‘qitish usuli – bu professor-o‘qituvchi va talabaning ta’lim maqsadlarida birgalikdagi faoliyati usulidir. Iqtisodiy fanlarni o‘qitish usullari quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- bilimlarni uzatish manbai (og‘zaki, vizual, amaliy);

- o‘quv jarayoni subyektlarining o‘quv materialini yaratishda ishtirok etish darajasi (akademik, faol, interaktiv);

- o‘quv jarayonida ma’lumotlarni uzatish usuli (to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tadqiqot, modellashtirish, qo‘shma).

Bilimlarni uzatish manbasiga ko‘ra professor-o‘qituvchi materiallarni og‘zaki bayon qilish jarayonida tushuntirish, ko‘rsatma yoki ma’ruza orqali mavzuni bayon etishi mumkin. Suhbat, guruhlarda ishlash, seminar, konferensiya va muhokama ko‘rinishida darslarni tashkil etish esa o‘tgan materiallarni takrorlash va o‘rganish, shuningdek, yangi qo‘shimcha bilim olish imkonini beradi. Axborot

kommunikatsion texnologiyalar yordamida turli rasmlar, diagrammalar, grafiklar, slaydlar, videoroliklar namoyish etish orqali darslarni vizual usulda tashkil etish mumkin. Mashqlar, laboratoriya ishlari, ishbilarmon o‘yinlar, aniq vaziyatlar usuli yoki “keys usuli”, o‘quv loyihalash yordamida talabalardan ma’lum bilim, ko‘nikma, malaka talaba qiladigan amaliy o‘quv faoliyatlarini tashkil etish samarali hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi Janubiy menejment instituti izlanuvchisi T.V.Kreps tadqiqotlariga ko‘ra iqtisodiy fanlar bo‘yicha ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilar o‘rtasida iqtisodiy fanlarni o‘qitishda yangi ta’lim texnologiyalarining qaysi turlaridan foydalanishlari bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazilgan. O‘tkazilgan so‘rov natijasida respondentlarning 25 foizi tematik munozalar, 21 foizi taqdimotlar, 20 foizi kichik olimpiadalar, 15 foizi biznes o‘yinlari asosida mashg‘ulotlarni olib borishi aniqlangan. Kamchilik respondentlar mashg‘ulotlarni axborot texnologiyalariga asoslangan o‘yinlar, guruhlarda ishlash va ilmiy-amaliy konferensiyalar ko‘rinishlarida tashkil etishlari aytib o‘tilgan [2].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy fanlarni o‘qitishda professor-o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy innovatsiyalarning qo‘llanishi va ulardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari yuqori emas. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida iqtisodiy munosabatlarda talabga ega bo‘lgan mutaxassislarni kasbiy tayyorlashni mehnat bozorida yangi turdagi kadrlarga bo‘lgan talabni inobatga olgan holda tashkil etish lozim. Ta’lim oluvchilarda zamonaviy iqtisodiy fanlar bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarining shakllanishi ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari va ulardan foydalanish samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. O‘z navbatida, ushbu texnologiyalar turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatida, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati sohasida vakolatlarni shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi [3].

Zamonaviy iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida jahon tajribalarining integratsiyalashuvi jarayonlari bevosita innovatsiyalarga asoslanadi. Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda innovatsiya atamasining mazmuni taqdim etilayotgan

ma'lumotlarning sifat tomonlama yangi turlari va ko'rinishlari, yangi pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanishning ta'limga qaratilganligi, ularning ilmiy asoslanganligi va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari orqali izohlanadi.

Bu bozor munosabatlari sharoitida ta'lim xizmatlarini sotib olish va sotish sharti sifatida taqdim etilgan mutlaqo yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotda o'z ifodasini topgan. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsiyalarning xususiyatlaridan kelib quyidagi turlarga bo'linadi:

- yopiq innovatsiyalar – innovatsion jarayonlar amalga oshirilayotgan ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda ta'limga tatbiq etish holatlari faqatgina ushbu ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari jamoasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan innovatsiyalar;

- ochiq innovatsiyalar (integratsion innovatsiyalar) – boshqa ta'lim muassasalarining o'xshash iqtisodiy fanlarni o'qitish uchun maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini izlash va ko'rib chiqish, o'z tizimiga ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha ko'rib chiqilgan tashqi tajribani kiritish [4].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy fanlarni o'qitish tizimida mutaxassislar tayyorlashning yuqori, ham uslubiy, ham shaxsga yo'naltirilgan darajasini ta'minlashi kerak bo'lgan o'qitish usullari kerak. Integratsion ta'lim texnologiyalari zamonaviy oliy ta'limning quyidagi dolzarb muammolarini hal qilishga yordam beradi:

- talabalarda egallagan bilimlariga asosan kelgusida olib boradigan faoliyatlarida ish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishdagi kompetensiyalarni shakllantirish;

- talabalarga mustaqil bilim olish va tadqiqotlar bajarish bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlariga o'tishni kafolatlash;

- iqtisodiy yo'naltirilgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan kognitiv faollikni oshirish.

Ushbu vazifalarni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mehnat bozorida talabga ega bo'lgan mutaxassislarning malakasini shakllantirish vositalari va usullari majmui bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida samarali hal qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Конспект лекций по «Методике преподавания экономики»
<https://studfile.net/preview/9368670/>
2. Т.В.Крепс. Применение современных образовательных технологий при преподавании экономических дисциплин// Scientific bulletin of the Southern Institute of Management. No. 4, 2018, 129-130 p
3. Галиянова Г. Инновационные технологии в преподавании экономики// Человек. Общество. Культура. Социализация. Материалы XVII Международной молодёжной научно-практической конференции. 2021, 23-24 апрел. 227-232 стр.
4. Кулжабаев Д.Б. Инновационные образовательные технологии в преподавании экономических дисциплин //XI Международная студенческая научная конференция. Студенческий научный форум – 2019
<https://scienceforum.ru/2019/article/2018011963>

OLIV TA'LIM MUASSASASIDA BOSHQARUV TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA IQTISODIY DIAGNOSTIKANING ZARURIYATI

Boydadayev Davron Mahmudovich

Namangan davlat pedagogika instituti Ishlar boshqarmasi boshlig'i

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy iqtisodiyotda xodimlarni baholash va mehnat unumdorligini oshirish kabi maqsadli yo'nalishlarni tashkil etish, tizimli tahlil hamda oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda iqtisodiy diagnostikaning zarururiyati haqidagi fikr-mulohazalardan iborat.*

***Kalit so'zlar:** diagnostika, strategiya, menejment, kapital, tendensiya*

Oliy ta’lim muassasasining boshqaruv tizimi – xodimlar vakolatini taqsimlash, muvofiqlashtirish va amalga oshirish shakli bo’lib, ichki bo’linmalarning o’zaro ta’siri va bog’liqligi bilan belgilanadi.

Albatta, oliy ta’lim muassasasini (OTM) rivojlantirish qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tizimlarning boshqaruv faoliyati qanday rasmiylashtirilgan va xolisona belgilanganiga bog’liq. OTM bir vaqtning o’zida davlat tomonidan yuqori darajada tartibga solinuvchi tizimga ega bo’lgan murakkab boshqaruv ob’ektidir. Bunday sharoitda OTM muqarrar ravishda boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun qanday samarali choralar ko’rish kerak? degan savolga duch keladi. Mazkur holat OTMda boshqaruv tizimining o’ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

OTMni boshqarish tizimi nuqtai nazaridan murakkab tuzilmalar mavjud bo’lib, o’ziga xos xususiyatlarga ega:

- yuqori darajadagi inson resurslarining mavjudligi;
- OTM faoliyatining ijtimoiy ahamiyati;
- professor-o’qituvchilarning vazifalari doirasida shakllangan izolyatsiya va tarixiy jihatdan yuqori darajadagi mustaqillik;
- professor-o’qituvchilarning o’quv jarayonini tashkil etish usullarini tanlashda yuqori erkinlik darajasi.

Yuqoridagilar bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga xos bo’lgan bir qator xususiyatlar OTM uchun odatiy holdir. Jumladan:

- tashkilot ichida va tashqarisida davom etayotgan o’zgarishlar dinamikasini hisobga olish;
- bozor talablariga muvofiq keladigan qarorlar qabul qilish;
- boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish uchun har qanday qulay imkoniyatlardan foydalanish.

Zamonaviy iqtisodiyotda xodimlarni baholash va mehnat unumdorligini oshirish kabi maqsadli yo’nalishlar belgilangan bo’lib, OTMlar ham bundan mustasno emas. Lekin, bunday talablar OTM faoliyatining o’ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olishni taqozo etadi. OTMni boshqarish tizimiga qo’yiladigan talablar o’quv jarayoni sifat darajasini oshgani sayin ortib boradi. Bu

esa OTMni boshqarish tizimida ko’p bosqichli va majmualiy modellardan foydalanish zarurligiga olib keladi. Natijada, OTMni boshqarish tizimi ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan murakkab tizimga aylanadi. Ushbu sohadagi asosiy nuqta OTMdagi o’quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlarining barcha ishtirokchilar manfaatlarini hisobga olgan holda boshqarish tizimini yaratish zarurati bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda OTMni boshqaruv tizimining asosiy xususiyati yangilikka intilish va shunga mos ravishda boshqaruv qarorlarini qabul usuli o’zgarishidan iborat. Bunda OTMni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun o’quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishini modernizatsiya qilish zarurligini hisobga olishi kerak. Bu esa professor-o’qituvchilarning ilmiy resurslari va talabalarning ta’lim salohiyatini rivojlantirish bilan mutunosib ravishda amalga oshirilishi kerak bo’lgan innovatsion tadqiqotlar va amaliy loyihalarni rag’batlantirish zarur. Ayniqsa, OTM infratuzilmasini modernizatsiya qilish, boshqarish tizimi faoliyatini takomillashtirish zarurligini e’tiborsiz qoldirib bo’lmaydi. Chunki, OTMning boshqaruv tizimi darajasida shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish asosida zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlash uchun sharoit yaratish kerak.

Jahon amaliyotida OTMning boshqaruv tizimiga ilmiy Kengash, rektor, prorektorlar, shuningdek Vasiylik Kengashi va Kuzatuv Kengashi kiradi. Vasiylik Kengashi OTMning hozirgi va kelajakdagi rivojlanish vazifalarini hal etishga ko’maklashish, shuningdek qo’shimcha jalb qilingan moliyaviy resurslardan foydalanishni nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan. Kuzatuv Kengashi OTMning boshqa boshqaruv organlarining takliflarini ko’rib chiqadi va asosan moliyaviy-xo’jalik faoliyati sohasida o’z tavsiyalarini beradi. OTMning jamoaviy boshqaruv organlari (bo’limlar, fakultet va kafedralar) rektor nomidan ish yuritadi. OTM rektorati yagona ijro etuvchi tuzilma bo’lib, ilmiy Kengash faoliyati asosida boshqaruv qarorlari ishlab chiqish tamoyillarini birlashtirish modelini amalga oshiradi (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval

OTMning boshqaruv tizimida amal qilinishi zarur bo’lgan qoidalar

Qoidalar	Tavsif
Boshqaruv tizimini tashkil etish	OTMni boshqarish tizimi buyruq va jamoaviy birlik tamoyillarining kombinatsiyasi asosida ishlaydi.
OTMning ijro etuvchi organlarini tashkil etish	OTMning yagona ijro etuvchi organi rektor bo’lib, uning faoliyat sohasi joriy boshqarishni o’z ichiga oladi.
OTMning jamoaviy boshqaruv organlarini tashkil etish	Jamoaviy boshqaruv organlari OTMning ustaviga muvofiq tuziladi. OTM ustaviga ko’ra vasiylik kengashi, boshqaruv kengashi, kuzatuv kengashi va boshqa jamoaviy organlar tuzilishi mumkin.
Boshqaruv tizimini shakllantirish	Boshqaruv organlarining tuzilishi, shakllanish tartibi, vakolatlari va ularning qaror qabul qilish tartibi OTM ustavida belgilanadi.
OTM jamoaviy organlarining boshqaruv jarayonida ishtirokini kengaytirish	OTMni boshqarish va qarorlar qabul qilish jarayonida professor-o’qituvchilari va talabalar fikrlarini hisobga olish uchun vakillik uyushmalari tashkil etiladi.
Boshqaruv tarkibini shakllantirish	OTM boshqaruv tarkibini shakllantirishda mustaqil bo’lib, o’quv

	jarayonining yo’nalishlarini hisobga olgan holda turli bo’linmalarga ega bo’lishi mumkin.
Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish	Mamlakat qonunchiligiga muvofiq va OTM ustavida belgilangan ta’lim munosabatlarini tartibga soluvchi me’yorlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqiga ega. Boshqaruv qarorlari o’quv jarayonini tashkil etish doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu tamoyillar faoliyat sohalari vakolatlarini hisobga olgan holda boshqaruv tizimining muvozanatini o’rnatadi. Jumladan: boshqaruv tizimini tashkil etish buyruq va jamoaviy birlik tamoyillarining kombinatsiyasi asosida ishlaydi; OTMning yagona ijro etuvchi organi rektor bo’lib, uning faoliyat sohasi joriy boshqarishni o’z ichiga oladi; OTM boshqaruv tarkibini shakllantirishda mustaqil bo’lib, o’quv jarayonining yo’nalishlarini hisobga olgan holda turli bo’linmalarga ega bo’lishi mumkin va boshqalar

Zamonaviy sharoitda OTMlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va jamoaviy organlari ishini samarali tashkil etishning roli sezilarli darajada oshmoqda. Bu esa OTMning boshqarish modeli samaradorligini oshirishga bo’lgan talabning ortishiga sabab bo’lmoqda va turli xil boshqaruv modellarining afzalliklari yanada keng qo’llanilmoqda. OTMning boshqaruv tizimlari va boshqaruv kanallarini diversifikatsiyalashga asoslangan yondashuvlar qo’llanilmoqda.

Albatta, OTM bozor munosabatlari keng va chuqur amal qilayotgan sharoitda faoliyat olib borishiga to’g’ri keladi. SHuning uchun OTM faoliyatining moliyaviy barqarorligi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy jarayonlarning oqilona yo’lga qo’yilishi OTMdagi ta’lim-tarbiya va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining izchil va yuqori samara bilan olib borilishiga, ilmiy-pedagogik salohiyat va moddiy-

texnik bazadan samarali foydalanishga xizmat qiladi. OTMning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlari va barqarorligi alohida ahamiyat kasb etmoqdaki, bu borada iqtisodiy diagnostika orqali boshqaruv tizimini baholash chora-tadbirlarini ishlab chiqish ob’ektiv zaruriyat bo’lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyotining barcha darajalarida keskin o’zgarishlarga olib kelgan transformatsion jarayonlar oliy ta’lim sohasini sezilarli darajada kengaytirdi va iqtisodiy faoliyatini yangi tarkib bilan to’ldirib bormoqda. Natijada boshqaruv tahlilining predmeti va usuli tubdan o’zgarmoqda. Zamonaviy sharoitda qo’llaniladigan boshqaruv usulining majmualiy tahlili va diagnostika qilishning an’anaviy modeli yangi funktsional tizimni qayta qurishni talab qiladi.

Ma’lumki, “diagnostika” atamasi (yunoncha “diagnosis” – tanib olish, aniqlash, farqlay olish) o’rganilayotgan obektning holatini bilvosita belgilar bilan tanib olish demakdir. Dastlab “diagnostika” tushunchasi faqat tibbiy atama sifatida ishlatilgan, XX asr boshlarida “texnik diagnostika” tushunchasi paydo bo’lgan va XX asr oxirida “iqtisodiy diagnostika” atamasi iqtisodiy tadqiqotlar sohasida qo’llanila boshlangan.

Iqtisodiyotda tibbiy atamadan foydalanish tabiiydir, chunki agar biz inson va tashkilotning holatini bir-biriga solishtirsak, tashkilotni “yashaydigan”, “kasal bo’lib qoladigan” va “tiklanadigan” murakkab organizm deb hisoblash mumkin bo’ladi. SHu bois diagnostika atamasining mumkin bo’lgan yana bir jihati – boshqaruv ob’ektining iqtisodiy holatini tahlil qilishdir.

Albatta, umumiy yondoshuvda iqtisodiy diagnostika – bu tashkilotni rivojlanishining mumkin bo’lgan istiqbollari va joriy boshqaruv qarorlarining oqibatlarini aniqlash uchun iqtisodiy ko’rsatkichlarni tahlil qilish va baholashdir. Iqtisodiy diagnostika ob’ektiga tashkilotning barcha funktsional quyi tizimlari bilan ajralmagan holda yuqori darajada tashkil etilgan boshqaruv jarayoni kiritiladi. Diagnostikaning maqsadi iqtisodiy holatni va tashkilotda yuzaga keladigan muammolarni o’rganish, muayyan muammolarga ta’sir qiluvchi omillar va kuchlarni aniqlash, kutilayotgan muammolarni rejalashtirish va muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni tayyorlashdan iborat.

Diagnostikani amalga oshirish quyidagi yo’nalishlar bo’yicha savollarga javob topishdan iborat: muammo; muammoning sababi; munosabatlar; imkoniyatlar va rivojlanishning mumkin bo’lgan yo’nalishlari. Diagnostika bosqichlari esa: diagnostik tahlilning kontseptual asoslarini aniqlash; ma’lumotlarni yig’ish; faktlarni aniqlashga asoslangan qaror qabul qilish; xulosalar tayyorlash.

SHunday bo’lsada, “diagnostika” tushunchasining iqtisodiy mazmuni olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi (1.2-jadvalga qarang).

1.2-jadval

“Diagnostika” tushunchasining iqtisodiy talqini

Mualliflar	Ta’riflar
V.SH.Rapoport	Diagnostika – korxonani boshqarish tizimidagi muammolar va to’siqlarni aniqlash bo’yicha boshqaruv ishlaridir
R.I.SHnipper	Diagnostika ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishida omillarning ta’siri va me’yordan og’ishlarni aniqlashga qaratilgan
J.K.Lafta	Diagnostika – tizimning ierarxik darajasida paydo bo’lgan muammoni bartaraf qilish usulidir
E.M.Korotkov	Diagnostika – tadqiqot muolajasi to’plamini amalga oshirish bo’lib, ulardagi zaif aloqalarni va to’siqlarni aniqlash orqali ob’ekt, hodisa yoki boshqarish jarayonining holatini aniqlashdir
A.R.Mishchenko	Diagnostika – bu qarorlarni qabul qilish jarayonining bosqichi

	bo'lib, menejerlar ma'lum bir vaziyatning asosiy sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladilar
E.N.Vыborova	Diagnostika – bu mustaqil bilim sohasi bo'lib, uni iqtisodiy tahlilning bir qismi sifatida ham, boshqarish funktsiyasi yoki yordamchi element sifatida ham ko'rib bo'lmaydi, tadqiqot jarayonida o'zining shaxsiy tarkibiga ega.
T. M.Kovalchuk	Diagnostika – tipik belgilar asosida iqtisodiy jarayonlarning me'yorida borishi va buzilishi uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash usulidir

Diagnostikaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- diagnostika nafaqat korxonalarni boshqarish tizimida, balki boshqa har qanday tizimda ham muammolarni aniqlashga imkon beradi;
- diagnostika zaif aloqalar va to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi;
- diagnostika nafaqat buzilishlarning mohiyatini aniqlashga, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlarni aniqlashga va ularning paydo bo'lishining oldini olishga va aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to'g'risida qaror qabul qilishga imkon beradi.

Iqtisodiy diagnostikaning metodologiya sifatidagi uzoq evolyutsiyasiga qaramay, hozirgi bosqichda kontseptual ilmiy apparatni shakllantirishning hal qilinmagan masalalari ham mavjud. Jumladan:


- iqtisodiy diagnostikaning mazmunini ochib berishga qaratilgan yondashuvlarni umumlashtirish;
- iqtisodiy diagnostika tamoyillari va usullarini takomillashtirish;
- iqtisodiy diagnostikani tadqiqot ob'ektiga moslashtirish va tizimlashtirish;


- diagnostik “muolaja” majmuasini aniqlashtirish;
- tadqiqot jarayonida axborot oqimi va ma’lumotlar bazasini tartibga solish;
- iqtisodiy diagnostik baholash ko’rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.

Yuqoridagi tahlillarni to’ldirgan holda iqtisodiy diagnostikaga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Iqtisodiy diagnostika – bu mumkin bo’lgan xatolarni qidirish, tahlil qilish, aniqlash va boshqaruv tizimini takomillashtirish usullarini ishlab chiqishdir.

Yuqoridagi ta’rif diagnostikaning quyidagi tarkibiy qismlarga ajratishga imkon beradi: tashkilotning asosiy ko’rsatkichlarini aniqlash va o’rganish; ichki va tashqi omillarning tashkilot holatiga ta’sir kuchini baholash; kerakli holatdan og’ishlarni aniqlash; mavjud va yangi muammolarni oldini olish; rivojlanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; tashkilotning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg’or boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Bu esa alohida ko’rsatkichlar tizimi asosida uslubiy yondashuvlarni talab etadi. SHuning uchun har qanday tashkilotning holatini diagnostika qilish to’g’ridan-to’g’ri, oraliq va ichki strategik boshqaruv vositalaridan foydalanish muammosini yangilab boradi.

Ko’rinib turibdiki, boshqaruv vositalari bir-birining o’rnini bosmaydi va o’zini o’zi ta’minlaydigan darajada elementlarga ega emas. SHu bois, boshqaruv jarayonining bosqichlari va oldindan belgilangan maqsadlar bilan birgalikda diagnostika amalga oshiriladi. Bunda tashkilotni rivojlantirish kontseptsiyasi maqsadni belgilash va vazifani shakllantirish hamda harakatlar strategiyasini muqobil variantlar asosida tanlashdan iborat. Albatta, tanlangan strategiyaning samaradorligini baholash tashkilotning boshqaruv faoliyatining tsiklik xususiyatiga bog’liq bo’lib, har qanday muammoning bartaraf etish chora-tadbirlari diagnostika vositalariga bog’langan (1.1-rasmga qarang).





1.1-rasm. Strategik menejment jarayonida diagnostikaning o’rni

Demak, boshqaruv diagnostikasi – bu boshqarish tizimining samaradorligi oshirish muammolarini aniqlash, tahlil qilish va baholash, shuningdek ularning yechimlarining asosiy yo’nalishlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot faoliyatidir. Bunday faoliyatni tashkil etish bir qator muolajalarni amalga oshirishni o’z ichiga oladi.

Yuqoridagi diagnostik vositalar OTMga xos bo’lgan turli xil usullardan foydalanishni talab etadi, ya’ni: muammoli joylarni aniqlash va muammolar katalogini yaratish; asosiy muammolarini tahlil qilish uchun me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash; ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini tasdiqlash; tashxis qo’yish va “davolash vositalari”ni tanlash; qaysi diagnostik usullardan foydalanish to’g’risida yakuniy qaror qabul qilish; yangi boshqaruv texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ko’rinib turibdiki, boshqaruv diagnostikasi juda ko’plab tarkib bilan to’ldirilgan. Umumiy yondoshuvda diagnostikaning asosiy yo’nalishlari OTM boshqaruv tuzilmasini, rahbar-xodimlar va professor-o’qituvchilarni boshqarish sifatini va OTMning umumiy faoliyatini baholashdan iborat.

OTMning boshqaruv tuzilmasini baholashda rasmiy aloqa kanallarini o’rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda kadrlar siyosati va xodimlarni boshqarish amaliyoti orqali OTMning bugungi va ertangi maqsadlariga muvofiqligi darajasi aniqlanadi. Jumladan:

- kadrlar siyosati (kadrlar tayyorlash, kadrlar bilan ishlashni rag’batlantirish tizimi va rejalarning bajarilishini nazorat qilish);

- rahbar-xodimlar va professor-o’qituvchilarni boshqarish jarayonini tartibga solish (xizmat vazifalarini bajarishni tartibga solish, ichki mehnat qoidalari, mehnatni rag’batlantirish to’g’risidagi Nizom, OTMning alohida bo’limlari faoliyati to’g’risidagi Nizom);


- boshqaruv jarayonining rasmiy qoidalari va tartiblari (ishga qabul qilish, sertifikatlash, malakasini oshirish, xodimlarni ishdan bo’shatish, ijtimoiy moslashish, axloqiy rag’batlantirish, ijrochini qo’llab-quvvatlash tizimi va mehnat intizomi).


- tashkiliy madaniyat elementlarining rahbar-xodimlar va professor-o’qituvchilarning xulq-atvoriga ta’siri (xodimlarning norasmiy aloqasi, xodimlar va ma’muriyat o’rtasidagi munosabatlar, buyruqlar va an’analar, qoidalar va tartiblar).

Albatta, OTMning umumiy faoliyatini baholash uchun umumiy samaradorlikni tavsiflovchi mezon va ko’rsatkichlar to’plamidan maqsadlarga erishish o’lchovi sifatida foydalaniladi. Bunda diagnostika uchun ma’lumotlarni quyidagicha guruhlash mumkin: OTMning xususiyatlari (asosiy faoliyat turi, mulkchilik shakli); OTM faoliyatining tabiati (miqyosi, jamiyatdagi o’rni, ixtisoslashuvi); ilmiy-tadqiqot ishlari (ilmiy-tadqiqot ishlari uchun xarajatlar miqdori, laboratoriya xodimlarining malakasi, ilmiy-texnik darajasi, ishlab chiqarish dasturi va quvvati, laboratoriya vositalari parkining xususiyatlari; tijorat faoliyati (shartnoma majburiyatlariga muvofiqligi, narx siyosatining xususiyatlari); OTM boshqaruvining tashkiliy tuzilishi (boshqaruv kengashi tarkibi, iqtisodiy mustaqillik darajasi) va boshqa iqtisodiy-moliyaviy holatlar.

SHu jihatdan OTMni boshqarish va uning elementlariga nisbatan iqtisodiy diagnostik baho berishni quyidagicha izohlash mumkin (1.2-rasmga qarang):

- diagnostika jarayoni mazmuni – boshqaruv tizimini sifat mezonlariga ta’sirini aniqlash va boshqaruv qarorlarini kutilayotgan natija bilan taqqoslashga qaratilgan tadqiqotlar olib borish;
- diagnostika ob’ekti – oliy ta’lim muassasasi va uning bo’limlari, fakul’tet va kafedralar bo’lishi mumkin;
- diagnostika maqsadi – oliy ta’lim muassasasining jamiyatdagi yoki oliy ta’lim tizimidagi egallab turgan mavqei va undagi o’zgarishlarga baho berish.





1.2-rasm. OTMni boshqarishning iqtisodiy diagnostik modeli va uning imitatsion bosqichlari

OTMni boshqarishning iqtisodiy diagnostikasida quyidagi tahliliy metodlar talab etiladi:

- tizim ichiga to'g'ridan-to'g'ri kirmagan holda statistik axborotdan va iqtisodiy tahlilning murakkab usullaridan foydalanib olib boriladigan tadqiqot;
- tizimdagi ma'lumotlarni umumlashtiruvchi ekspertiza;
- matematik-statistik metodlarni qo'llab tadqiqotlar olib borish;
- dinamik dasturlash va matematik modellardan foydalanish;
- miqdoriy ifodaga ega maqsadlarga erishish uchun optimallashtirishni ta'minlovchi chiziqli dasturlash;
- turli xil mazmundagi ko'rsatkichlarni agregatlash va omilli baholash metodlaridan foydalanish;

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, OTM faoliyatining majmualari iqtisodiy diagnostikasiga 5 bosqichdan tashkil topgan tahliliy jarayon sifatida qarash mumkin. Mazkur bosqichlar o’zaro bog’langan va tartibli joylashgan, ular orqali maqbul natijaga erishish mumkin. Har bir bosqich o’zidan oldingi bosqichga tayangan holda amalga oshiriladi.

Diagnostika qilishdan asosiy maqsad OTMning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini baholash va barqarorligini aniqlab olish hamda rivojlanish imkoniyatlari va zahiralarini ochib berishdan iborat. Mazkur maqsadga erishishda, albatta, moliyaviy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo’nalishlari ishga solinadi. Diagnostika ana shu siyosatni olib borishining muhim dastaklaridan biri bo’lib xizmat qiladi. Diagnostika natijalariga ko’ra, OTMning jamiyatdagi mavqeini taqqoslash yoki o’zining turli vaqt oraliqlaridagi holati o’zgarishlarini baholash mumkin.

Hozirgi paytda OTMning faoliyati natijalarini reyting baholash yo’lga qo’yilgan bo’lib, bu ham o’z mazmuniga ko’ra OTM faoliyati diagnostikasini bildiradi. Biroq, bu tizimda iqtisodiy yondashuv yetarli darajada mavjud emas. SHuning uchun OTM faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholab berish va bu borada integral ko’rsatgichlar ishlab chiqish zarur bo’ladi.

Bugungi kunda moliyaviy-iqtisodiy koeffitsientlar tahliliga asoslangan diagnostikani OTMga nisbatan ham qo’llash mumkin va zarur, deb hisoblaymiz. Rivojlangan mamlakatlarda OTMning faoliyati sezilarli darajada tijorat harakteriga ega bo’lmoqda. OTMning tijoratlashuv jarayoni bozor mexanizmlari yaratib beradigan imkoniyatlardan foydalanish salohiyati bilan o’lchanadi. SHuning uchun OTMlar faoliyati tijoratlashuvining kuchayib borishiga tabiiy jarayon, deb qaralishi zarur. Albatta, bunda OTMni boshqaruv tizimining o’ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinishi lozim.

MUNDARIJA

I. TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;

- | | | |
|----|---|----|
| 1. | Umumiy o’rta ta’lim maktablari faoliyatini tashkil etishda strategik maqsadni belgilash va amalga oshirish mexanizmlari
<i>Mo’minova M.U.</i> | 3 |
| 2. | Ўқувчи ёшларни ватанпаварлик рухида тарбиялашда китоб мутоаласи ва китобхонлик янги ўзбекистон тараққиётининг буюк пойдевори сифатида
<i>Қулматов Н.Э.</i> | 12 |
| 3. | Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta’lim muhitini yaratishda pedagogik faoliyatning ta’siri
<i>Egamberdiyeva D.I.</i> | 26 |
| 4. | Tasviriy san’at fanini o’qitishda zamonaviy metodlarning qo’llanishi va ularning o’qitishdagi samarasi
<i>Aliyeva M.J.</i> | 30 |
| 5. | Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik sharoitlar
<i>Boltaboyev A.</i> | 38 |

II. TA’LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

- | | | |
|-----|---|----|
| 6. | Tasviriy san’atda qalamtasvirning o’rni
<i>Ibrohimova I.T., Mamadjanova M.M.</i> | 47 |
| 7. | Ta’lim jarayonida kognitiv uslub rivojlanishining psixologik xususiyatlari
<i>Badritdinova M.B.</i> | 51 |
| 8. | Ta’lim muassasalarida texnologik xavfsizlik qoidalari
<i>Mamadjanov M.</i> | 62 |
| 9. | Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo’lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi
<i>Yusupjonova S. O.</i> | 71 |
| 10. | Pedagogika predmeti, maqsadi va vazifalari
<i>Azizova Sh.F.</i> | 76 |
| 11. | Musiqqa pedagogikasi fanining talabaning mustaqil ta’lim olish jarayonidagi o’rni
<i>Toshmatov G.O.</i> | 80 |

V. MAXSUS PEDAGOGIKA:

- | | | |
|-----|--|----|
| 12. | Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining inklyuziv kompetentsiyasini takomillashtirish | 90 |
| | <i>Kuchkarova N.T.</i> | |
| 13. | Bolalarga psixologik yordam ko'rsatish va uning turlari | 94 |
| | <i>Usmonova L. Z.</i> | |
| 14. | Maxsus pedagogika fanining maqsad va vazifalari imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda maxsus pedagoglarning o'rni | 98 |
| | <i>Karimova M.A.</i> | |

VI. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA:

- | | | |
|-----|---|-----|
| 15. | Sog'lom bola ma'naviyatini shakllanishiga oila muhitining ta'siri | 105 |
| | <i>Asranboyeva M.H.</i> | |
| 16. | O'zbek allalarida qo'llanilgan badiiy tasvir ositalarining lisoniy tahlili | 113 |
| | <i>Egamberdiyeva Sh.M.</i> | |
| 17. | O'zbek xalq folklorida mayna obrazi | 122 |
| | <i>Mehmonjonova M.</i> | |
| 18. | O'zbek madaniyati va san'atining tarixiy bosqichlari | 125 |
| | <i>Zokirjonov A.Z.</i> | |
| 19. | Badiiy adabiyot vositasida bola ruhiyatini Rivojlantirish | 130 |
| | <i>Abdullayeva D.L.</i> | |
| 20. | O'zbek xalq maqollarida dehqon obrazi | 134 |
| | <i>Abdullajonova M.</i> | |
| 21. | O'zbek va ingliz allalarida obrazlar silsilasi | 137 |
| | <i>Ahmadaliyeva M.</i> | |
| 22. | Milliy ma'naviy merosimizda axloq-odob masalalari | 141 |
| | <i>Nomanov K.K.</i> | |
| 23. | Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - yangi tahrirdagi o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining xalqaro huquqiy asosi | 146 |
| | <i>Umarov J.A.</i> | |
| 24. | Yuridik shaxslarning vujudga kelish va bekor bo'lishida | 151 |

raxbarning o'rne

Ne'matjanov S.J.

- | | |
|---|------------|
| 25. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishning huquqiy asoslari | 156 |
| <i>Begaliyeva D.B.</i> | |
| 26. Yuridik shaxslarning vujudga kelishi huquqiy asoslari | 159 |
| <i>Qosimov X.A.</i> | |

VII. ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR:

- | | |
|--|------------|
| 27. Steam ta'lim tizimi asosida katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining intellektual-bilish malakalarini shakllantirish | 165 |
| <i>Mamadaliyeva F.B.</i> | |
| 28. The benefits of using stories in elt to develop learners intercultural awareness | 170 |
| <i>Toshmatova M.K.</i> | |
| 29. O'zbekistonda musiqiy meros namunalariga munosabat | 178 |
| <i>Zokirjonov A.Z.</i> | |
| 30. Dutor cholg'usi tarixi hamda o'qitish metodikasi | 185 |
| <i>G'aybullayeva F.X.</i> | |
| 31. Alisher Navoiy – so'z mulkining sultoni, milliy musiqa sohasiga qo'shgan hissasi | 192 |
| <i>G'aybullayeva Z.X.</i> | |
| 32. Qashqar rubobi kelib chiqishi tarixi hamda foydalanish metodikasi | 198 |
| <i>Tuychiboyev D.T.</i> | |
| 33. Effect of oil on environmental pollution | 203 |
| <i>Ismailov J.K.</i> | |
| 34. Boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratlarini oshirib borish usullari hamda metodlari | 207 |
| <i>Otamirzayeva M.J.</i> | |
| 35. Ijtimoiy ong va ma'naviyat tushunchalarining mohiyati | 215 |
| <i>Mamatov O.V., Tursunov R.A.</i> | |
| 36. Methodological principles of geographical study of population health and location | 218 |
| <i>Ismailov J.K.</i> | |
| 37. The art and methodology of using text for translation | 221 |
| <i>Ismonaliyeva S.A.</i> | |
| 38. The purpose and content of the educational process. | 223 |

	Educational practices	
	<i>Ismonaliyeva S.A.</i>	
39.	Terminology in linguistics	228
	<i>Mamadaliyeva N.</i>	
40.	Mass media	240
	<i>Mamadaliyeva N.</i>	
41.	Ma’naviyat insonning ulg‘ayishi va kuch qudrati manbaidir	248
	<i>Qosimov X.A., Tillayev B.A.</i>	
42.	Intelektual mulk huquqi ni himoya qilishning huquqiy asoslar	253
	<i>To‘raxonov E.D., Gapparov E.O.</i>	
43.	Xo‘jalik shirkatlari - yuridik shaxs sifatida	258
	<i>Hasanov F.N., Habibullayev M.</i>	
44.	Yuridik shaxsni qayta tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari	262
	<i>Ne‘matova G.N., Tillayev B.A.</i>	
45.	Xususiyl korxonalar – yuridik shaxs sifatida	266
	<i>Sotivoldiyev M.S., Ismoilov T. I.</i>	
46.	Fuqarolik huquqini himoya qilishning o‘ziga xos jihatlari	270
	<i>Nosirjonova M.Y., Ismoilov T. I.</i>	
47.	Fuqarolik huquqiy munosabatlarda sub’ektlarning huquqiy maqomi va tutgan roli	273
	<i>Abdulxakimov X.O., Satvoldiyev F.A.</i>	
48.	Yuridik shaxslarning filiallari va vakolatxonalari	277
	<i>Mashrapova D.M., Sultonov A.</i>	
49.	Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik – bebaho tinchligimiz garovi	282
	<i>Yuldashev J.</i>	
50.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarini integrativ yondashuv shakllantirish mazmuni	285
	<i>Murodova M.M.</i>	
51.	Globallashuv jarayonida jamiyat hayotida milliy qadriyatlar va millatlararo totuvlik masalasi	295
	<i>Tursunov R.A.</i>	
52.	Паралимпия спорт турлари бўйича машғулотларни кинематик кўрсаткичлари бўйича педагогик назорат қилиш услубияти	301
	<i>Миржамолов М.Х.</i>	
53.	Фарғона вилоятидаги жаҳид мактаблари фаолиятига доир янги маълумотлар (“Таржимон” газетаси материаллари асосида)	308
	<i>Исоқбоев А.А.</i>	



- | | |
|--|-----|
| 54. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlar integratsiyalashuvini tashkil etilishi
<i>Urinov B.J.</i> | 319 |
| 55. Oliy ta'lim muassasasida boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy diagnostikaning zaruriyati
<i>Boydadayev D.M.</i> | 327 |



“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045 044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 5-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-noyabr 2023-yildagi 11-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 11). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, Faks: (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 5-soni 346 sahifadan iborat bo’lib, 55 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan.

Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o’zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgan hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2023